

**Mirzraxmonova Shaxnoza Mirzaaxmadovna  
Sotbarov Atabek Asilbek o'g'li  
Azamov Sherzod**

## **TARBIYA NAZARIYASI**



**Toshkent  
2024**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

Mirzraxmonova Shaxnoza Mirzaaxmedovna  
Sotbarov Atabek Asilbek o'g'li  
Azamov Sherzod

## TARBIYA NAZARIYASI

*O'quv qo'llanma*

Toshkent  
«Sarbon LLS»  
2024

UO'K 37.01;17.0  
KBK 74.200  
M 47

Mirzaxmonova Sh.M., Sotbarov A.A., Azamov Sh.  
TARBIYA NAZARIYASI. O'quv qo'llanma. – T.: "Sarbon LLS", 2024. 182 b.

#### Taqrizchilar:

Ximmataliyev D. - ChDPU Pedagogika kafedrasи professori, p.f.d.  
Qorayev S.B. - TIPI o'quv uslubiy department boshlig'i, dotsent, p.f.f.d.

Mazkur o'quv qo'llanma jamiyatimizning yangi rivojlanish davridagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli, 2018 yil 5 sentabrdagi "Xalq ta'lmini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-sonli hamda 2019 yil 6 sentabrdagi "Professional ta'lif tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5812-sen Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 15 maydagi "O'zbekiston Respublikasida Kasbiy malakalar, bilim va ko'nikmalarni rivojlanish milliy tizimi faoliyatini tashkil etish choralari to'g'risida"gi 287-sen Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 29 martdagagi 163-sen «Professional ta'lif tizimida dual ta'lifni tashkil etish chora-tadbirlari haqidagi»gi Qarori va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Mazkur o'quv qo'llanma "Tarbiya nazariyasi" fani bo'yicha talabalarga nazariy va amaliy mashg'ulotlarga tayyorlanishda yordamchi manba sifatida xizmat qiladi. Qo'llanma tarbiya psixologiyasi, yoshlarni kasbga yo'naltirish, tarbiya diagnostikasi kabi muammolar bo'yicha fanda shakllangan an'anaviy qarashlar hamda bu sohadagi eng yangi tadqiqotlarning natijalari bilan tanishtiradi. O'quv qo'llanma pedagogika oly o'quv yurtlarining "Pedagogika", "Pedagogika va psixologiya" ixtisosligi bo'yicha tahsil oluvchi talabalarga mo'ljalangan.

UO'K 37.01;17.0  
KBK 74.200

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 17-iyuldagagi 314-sonli buyrug'iga asosan o'quv qo'llanma sifatida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-9392-7-3

#### MUNDARIJA

1.	Yangi O'zbekiston sharoitida tarbiya nazariyasining moxiyati va mazmuni .....	5
2.	Tarbiya fanining didaktik asoslari .....	19
3.	Tarbiyaning shakillantirishda ommaviy madaniyat va axborot xurujlaridan tasiri .....	28
4.	Tarbiyaning shakillanishida konfliktologik madaniyatni rivojlantirish .....	32
5.	Tarbiyaning shakillanishida odob-axloq masalalari .....	43
6.	Estetik tarbiya .....	50
7.	Ekologik tarbiya .....	60
8.	Mexnatni inson tarbiyasidagi o'rni .....	66
9.	Tarbiyaning shakillanishida xuquqiy madaniyat va xuxuqiy savodhonlik masalalari .....	72
10.	Oila va tarbiya .....	74
11.	Vijdonni tarbiyalash dinniy bag'rikenglik .....	80
12.	Jismoniy tarbiyaning maqsadi, vazifasi .....	85
13.	Iqtisod tarbiya .....	92
14.	Jamoada shaxsni tarbiyalash .....	98
15.	Tarbiya nazariyasida shaxsiy yondashuv .....	107
16.	Tarbiya jarayonida insonparvarlik .....	115
17.	Tarbiya jarayonida bunyodkorlik g'oyalari .....	127
18.	Maktab o'qituvchilari jamoasi tarbiya muxitida tarbiyaning vazifalari .....	134
19.	Abdulla Avloniyning tarbiya xaqidagi g'oyalari .....	144
20.	Shaxs va jamoda tarbiyaning o'rni .....	149
21.	Tarbiya nazariyasining psixologik xususiyatldari .....	158
22.	Psixologik omillaming tarbiyaga ta'siri .....	173

## Kirish.

Tarbiya nazariyasi pedagogika fanining muhim tarkibiy qismi bo'lib, tarbiyaviy jarayonning mazmuni, shakl, metod, vosita va usullari hamda uni tashkil etish muammolarini o'rGANADI. U Markaziy Osiyo faylasuflarining va xalq pedagogikasining tarbiya borasidagi boy tajribasiga tayanadi. Pedagogika tarixidan ma'lumki, ta'lim tarbiyadan, tarbiya rivojlanishdan ajratib tekshirilmagan. XVIII asrning ikkinchi yarmiga kelib Rossiya pedagogikasida tarbiya masalalarini alohida ko'rish hollari uchraydi. «1806 yilda chiqarilgan Rossiya Akademiyasi lug'atida birinchi bor tarbiya so'zi pedagogik tushuncha sifatida alohida keltiriladi», kmkdeb ta'kidlaydi I.Tursunov O'tgan mavzularda tarbiyaga berilgan ta'riflarni yodga olaylik: «Tarbiya - ma'naviy manbalar va hozirgi zamontalablariehtiyorlarini nazarda tutgan holdao'qituvchining o'quvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan o'zaro amaliy va nazariy muloqatidir». «Tarbiya - tarbiyachi xohlagan sifatlarni tarbiyalanuvchilar ongiga singdirish uchun tarbiyalanuvchining ruhiyatiga muayyan suratda va tizimli ta'sir ko'rsatish jarayonidir». Tarbiya jarayoni shaxsni maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun uyuşhtiriladi va tarbiyalanuvchining shaxsiga mutnazam va tizimli ta'sir etish imkoniyatini beradi.

Mazkur o'quv qo'llanma bu sohadagi kemtiklikni to'ldirishga yo'naltirilgan bo'lib, "Tarbiya nazariyai" fani namunaviy dasturi asosida tayyorlangan. O'quv qo'llanma shartli ravishda uch guruhg'a ajratilgan 22 ta mavzuni o'z ichiga oladi. O'quv qo'llanmaning ilova qismida tarbiyaga yo'naltirish ishining turli sohalarida qo'llanishi mumkin bo'lgan amaliy uslubiy ishlanmalar, psixologik metodikalar va boshqa yordamchi materiallar keltiriladi.

## 1-mavzu: Yangi O'zbekiston sharoitida tarbiya nazariyasining moxiyati va mazmuni

### REJA:

1. Tarbiya jarayonining mohiyati va vazifalari.
2. Tarbiya jarayonining xususiyatlari.
3. Tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyotidagi roli.
4. Tarbiya qoidalari va ularning mohiyati.

**Tarbiya nazariyasini nimalarni o'rGANADI?** degan savolga javob qidirsak. Tarbiya nazariyasi - pedagogika fanining bir qismi bo'lib, tarbiyaviy jarayonning mazmuni, usuli va tashkil etilishi masalalarini o'rGANADI. U Markaziy Osiyo faylasuflarining va xalq pedagogikasining tarbiya borasidagi boy tajribasiga tayanadi.

Pedagogika tarixidan ma'lumki, ta'lim tarbiyadan, tarbiya rivojlanishdan ajratib tekshirilmagan. XVIII asrning ikkinchi yarmiga kelib Rossiya pedagogikasida tarbiya masalalarini alohida ko'rish hollari uchraydi. «1806 yilda chiqarilgan Rossiya Akademiyasi lug'atida birinchi bor tarbiya so'zi pedagogik tushuncha sifatida alohida keltiriladi», deb ta'kidlaydi I.Tursunov.

O'tgan mavzularda tarbiyaga berilgan ta'riflarni yodga olaylik: «Tarbiya - ma'naviy manbalar va hozirgi zamontalablariehtiyorlarini nazarda tutgan holda o'qituvchining o'quvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan o'zaro amaliy va nazariy muloqatidir».

«Tarbiya-tarbiyachi xohlagan sifatlarni tarbiyalanuvchilar ongiga singdirish uchun tarbiyalanuvchining ruhiyatiga muayyan suratda va tizimli ta'sir ko'rsatish jarayonidir».

Qat'iy ishonch bilan aytish lozimki, - degan edi Prezident I.Karimov O'zbekiston teleradiokompaniyasi muxbirini bilan muloqotda, - ma'naviy boylik moddiy boylikdan ming bor ustun, shu bois biz ta'lim - tarbiya masalasiga davlat

siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida yondoshmoqdamiz. Kadrlar tayyorlash haqida qonun qabul qilingan milliy dastur ham mohiyat e'tibori bilan shu maqsadni amalga oshirishga qaratilgan.

### **Tarbiya jarayoni deganda nimani tushunamiz?**

Tarbiya jarayonining mohiyati shu jarayon uchun xarakterli bo'lgan va muayyan qonuniyatlarda namoyon bo'ladigan ichki aloqa va munosabatlarni aks ettiradi.

Tarbiya jarayoni shaxsnii maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun uyuştiriladi va tarbiyalanuvchining shaxsiga muntazam va tizimli ta'sir etish imkoniyatini beradi. Tarbiya jarayoni o'zaro bog'liq ikki faoliyatni - o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini o'z ichiga oladi. Tarbiya jarayonida o'quvchining ongi shakllana boradi, his-tuyg'ulari va turli qobiliyatlari rivojlanadi, g'oyaviy, axloqiy, irodaviy, estetik xislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlar tizimi tarkib topadi, jismoniy kuch-quvvatlari mustahkamlanadi.

Tarbiya jarayonida o'quvchida jamiyatning shaxsga qo'yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlar hosil qilinadi. Bunga erishish uchun o'quvchining ongiga (ta'limgarayonida), hissiyotiga (darsda va turli sinfdan tashqari ishlarda), irodasiga (faoliyatni uyuştirish, xulqni idora qilish jarayonida) tizimli va muntazam ta'sir etib boriladi. Tarbiyalash jarayonida bulardan birortasi (ongi, hissiyoti, irodasi) e'tibordan chetta qolsa, maqsadga erishish qiyinlashadi.

Biror bir maqsadga qaratilgan tarbiya jarayonining mohiyati va vazifalari tarbiyachi tomonidan rejalashtiriladi va tartibga solinadi.

A) O'quvchining qaysi xislatini shakllantirish yoki yo'qotish maqsadida rejalashtiriladi.

B) Shu hislatlarni tarbiyalash yoki yo'qotish uchun xizmat qiluvchi manbalar izlab topiladi.

V) Belgilangan maqsad uchun xizmat qiladigan nazariy va amaliy manbalarni qaysisini va qayerda ishlatish rejalashtiriladi.

Bunday rejaga solinib olib borilgan tarbiya mohiyatini ta'limgarayonida - tarbiya tizimi jamiyat va insonlarning intellektual va jismoniy faoliyati tashkil qiladi.

### **Tarbiya jarayoni qanday xususiyatlarga ega, u ta'limgarayonida nimalari bilan farq qiladi?**

Tarbiya jarayonining xususiyatlari				
Ko'p qirrali jarayon	uzoq muddat davom etadi	yaxlit holda va konsentrik asosda amalga oshadi	Ikki tomonlama xususiyat, bolaning faolligi	Qarama-qarshi-liklar ko'pligi

Tarbiyaning birinchi xususiyati uning ko'p qirrali jarayon ekanligi bo'lib unda maktab, oila, bolalar va o'smirlar tashkilotlari, mahalla, keng jamoatchilik, kino-teatr, televideeniye, adabiyot va san'at ishtiroy etadi.

Tarbiyaning yana bir xususiyati uning uzoq muddat davom etishidir. Ta'limgarayonida farqli ravishda u bola tug'ilganidan boshlanadi, maktab yillarida, undan keyin va butun umr bo'yini davom etadi.

Tarbiyaning ta'limgarayonida farqlantiruvchi yana bir xususiyati shundaki, u yaxlit holda va konsentrik asosda amalga oshiriladi. Tarbiyaning turli tomonlari bir-biri bilan uzviy bog'langan. Boshlang'ich sinfda ham, o'rta va yuqori sinfda ham ayni bir narsa, masalan, do'stlik, ahillik, vatanparvarlik va boshqalarni tarbiyalash ko'zda tutiladi.

Tarbiyaning yana bir xususiyati shundaki, bu jarayon ikki tomonlama xususiyatga ega bo'lib, unda bolaning o'zi ham faol ishtiroy etadi.

Tarbiyalash yoki yo'qotish maqsadida rejalashtiriladi. Bu qarama-qarshiliklar bolalarda o'z tushunchalariga muvofiq dastlabki paydo bo'lgan sifatlar bilan tarbiyachi tomonidan tarkib toptirilayotgan sifatlar o'rtasida o'quvchilarga qo'yilgan talablar bilan uni bajarish imkoniyatlari

o'rtasidagi kurashlarda namoyon bo'ladi.

### **Jamiyat taraqqiyotida tarbiya jarayonining qanday o'rni bor?**

Tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyotidagi roli nihoyatda beqiyosdir. Mutafakkir olim Abu Nosir Forobiy ta'lim - tarbiyaning asosiy vazifasi jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan yetuk insonni tarbiyalashdan iborat deb biladi.

Jamiyat taraqqiyotida muhim o'rin egallagan insonni tarbiyalash, uni bilim olishga, mehnat qilishga undash va bu hatti harakatini sekin - asta ko'nikmaga aylantirib borish lozim. Insonning mushohada qilishi qobiliyatni tarbiyalaydi va aqlni peshlaydi. Aql ongni saqlaydi. Ong esa moddiy va ma'nnaviy manbagaga aylanadi. Shu tarzda inson asta - sekin takomillashib, komillikka erishib boradi. ammo buning uchun tarbiyachi va tarbiyalanuvchilardan uzoq davom etadigan mas'uliyat, sharaflı mehnat va qunt, irodani talab etadi. Bunda tarbiyachi bolalarning yosh xususiyatini e'tiborga olishi zarur.

### **Tarbiyaning samarali bo'lishi nimalarga bog'liq?**

Ma'nnaviy va insoniy sifatlarning shakllanishida oiladagi, atrofdagi, jamiyatdagi muhit va munosabat muhim o'rin egallaydi. Bolalarni taqlidchanlik xususiyati mavjudligi tufayli ularni tarbiyalashda ota - onaning ongi, ma'nnaviyati, bilimi, tarbiyalanganligi muhim ahamiyatga egadir.

Aniq bir maqsadga qaratilgan tarbiyaning samaradorligi tarbiyachining qanday metoddan foydalanishiga bog'liq.

Metod, ya'ni usul axborotni uzatish va qabul qilish xarakteriga qarab:

1. So'z orqali ifodalash usuli.
2. Ko'rgazmalilik usuli.
3. Amaliy namuna usuli.

Rag'batlantirish va jazo usullariga bo'linadi.

Bu metodlar o'z navbatida quyidagi guruhlarga bo'linadi.

**Birinchi guruh** - so'z orqali uzatish, maslahat berish,

ma'lumotlarni eshitish orqali qabul qilish, hikoya, ma'ruza, suhbat va boshqa usullarga.

**Ikkinci guruh** - kinofilmlar, tasviriy san'at, badiiy san'at va boshqa ko'rish orqali tarbiyalash usullariga.

**Uchinchi guruh** - tarbiya jihatlarini amaliy mehnat harakatlari orqali berish, o'rnak ko'rsatish, boshqalar mehnatinini misol tariqasida ko'rsatish.

**To'rtinchi guruh** - yaxshi bajarilgan ishlarni o'rtoqlari oldida ma'qullah, minnatdorchilik bildirish, iqtisodiy va ma'nnaviy rag'batlantirish.

**Jazo** - bu bolaning noto'g'ri qilgan ishiga o'zini iqror qildirish.

### **Tarbiya jarayoniga, milliy ma'nnaviyatimizga, mafkuraga oid tushunchalarni ko'rib chiqaylik:**

**Tarbiya** - har bir insonning hayotida, yashashi mobaynida orttirgan saboqlari va intellektual salohiyatlarining ijobjiy ko'nikmasini o'zgalarga berish jarayoni.

**Tarbiyalanganlik** - jamiyatda qabul qilingan axloqiy normalarga bo'y sunish va o'z galarning nafratini qo'zg'atadigan hatti harakatlardan o'zini tiya bilish.

Beruniy insonning kamolatga yetishishida ilmu ma'rifikat, san'at va amaliyot asosiy rol o'ynasada, nasl - nasab, ijtimoiy muhit va turmush qonuniyatları ham katta ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha inson kamolga yetishuvining eng muhim omillari ilm ma'rifikatli bo'lish va yuksak axloqlilikdir. Axloqlilikning belgilari yaxshilik, to'g'rilik, adolat, kamtarlik, saxovat, oliyjanoblik, do'stlik va hamkorlik, mehnat, poklik, go'zallikka intilish kabilardir.

**Adolat** - hayotiy masalalarni axloqiy va huquqiy normalarni rioya etgan holda hal etishdir.

Adolat tushunchasi bilan bog'liq jihatlar juda keng qamrovli bo'lib, adolatli inson, adolatli jamiyat kabi tushunchalar shunday jihatlar jumlasiga kiradi. Adolatparvarlik tushunchasi

esa adolat tamoyili amal qilgan holda ish olib borish, yo'l tutish, faoliyat yuritish demakdir. Prezidentimiz I.A.Karimov "O'z kelajagimizni o'z qo'llimiz bilan qurmoqdamiz" (1999 yil, 13 fevral) mavzusidagi "Turkiston" gazetasi muxbirining savollariga javoblari biz uchun dasturilamal bo'ldi.

· Vatan, millat taqdiri hal bo'ladigan qaltis vaziyatda to'g'ri yo'lni tanlash uchun avvalo tarixni yaxshi bilish, hayotning achchiq-chuchugini bilish kerak.

· Adolat biz qurayotgan jamiyatning mezoni bo'lmog'i darkor.

· Endi, eski jamiyatni inkor qilish yoki ma'qullash kayfiyatidan voz kechib, bunyodkorlik kayfiyatiga o'tish kerak.

· Millat, davlat, jamiyat taqdiri hal bo'layotgan pallada o'zligimizni anglash, ma'naviy ildizlarimizni unutmaslik.

· Insonlar tafakkurini boyitish, uni yangi ma'no va mazmun bilan to'ldirish lozim.

Mamlakatimizning huquqiy demokratik davlat qurish jarayonida o'tmishimizning hali o'rganilmagan sahifalarini tadqiq etish, davlat va siyosiy arboblarimiz nomlarini xalqimizga qaytarish, huquqiy qadriyatlarimizni tiklashga alohida e'tibor berilmoqda. «Biz uchun mustaqillik-eng avvalo, o'z taqdirimizni qo'llimizga olish, o'zligimizni anglash, milliy qadriyatlarni, urf-odatlarni tiklash, mu'tabar shu zaminda, tinchlik-osoyishtalikni, barqarorlikni saqlashdir».

Shu nuqtai nazardan, yoshlarda ijtimoiy adolat haqidagi tushunchalarni shakllantirish ijtimoiy adolat mavzui doirasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, «adolat» keng qamrovli tushuncha sifatida ijtimoiy munosabatlarning barcha jabhalarini qamrab oladi. «Adolat, axloq va huquq kategoriysi sifatida axloqiy-huquqiy munosabatlarni nazorat qilib turuvchi, odamlarning faoliyatiga baho beruvchi zaruriy o'lchovdir», -deb yozadi F. Nizomov.

Har qanday jamiyat ijtimoiy adolat normalariga rioya qilishi bilan yuksalish darajasi belgilanadi. Tarixga nazar

tashlasak, turli jamiyatlarda adolat nizomi yaratishda xilma-xil yondashuvlarga amal qilib kelinganligining guvohi bo'lamiz.

Istiqlol sharofati bilan ko'plab ajdodlarimizning ilmiy merosi va ularda ilgari surilgan adolat to'g'risidagi g'oyalar atroficha o'rganish zamon talabi bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasida chuqr huquqiy bilimlarga ega, sotsiomadaniy darajasi rivojlangan, amaliy ko'nikma-malakalarni egallagan, raqobatbardosh kadrlar talab qilinadi. Shu sababli yoshlarda ijtimoiy adolat to'g'risidagi tushunchalarni kamol toptirish uchun zamin yaratish lozim. Kelajakda mutaxassis bo'lib yetishuvchi kadrlar, bugungi kun uzlusiz ta'lim qatnashchilari huquqiy davlat muammolarini to'g'ri baholay oladigan, chuqr huquqiy bilimlarga ega, ijtimoiy hayot sohalari ichki qonuniyatları to'g'risidagi tushunchalarni egallab borishlari zarur. Hozirgi zamon talablaridan kelib chiqqan holda yoshlar rivojlanayotgan huquqiy demokratik davlatdagi ijtimoiy sohadagi islohatlar, ahloqiy-huquqiy munosabatlar kabi masalalarga alohida e'tibor berishlari lozim.

Mazkur tushunchalarni shakllantirishda uzlusiz ta'lim tizimi shaxsning ijtimoiy munosabatlarga kirishishida asosiy bo'g'in bo'lib hisoblanadi. Hayotda adolat me'yorlariga rioya etish ijtimoiy-axloqiy, ma'naviy-ruhiy jarayondir.

Xuquqiy tarbiya muammolari va ularni ta'lim-tarbiya jarayoniga tadbiq qilish muammolariga bag'ishlab ilmiy izlanish olib borgan olimlar: A. Saidov, B. Karimov, I. Ergashev, A. Begmatov qarashlari qimmatli ahamiyatga molikdir.

Ma'lumki, inson jamiyatda erishishi mumkin bo'lgan narsalar-mulk, daromad, ijtimoiy maqom, hokimiyat, huquqlar insonlararo munosabatlaridagi **adolatga** bog'liq. Moddiy ne'matlar va xizmat turlari, ijtimoiy (obro', hurmat-ehtirom), siyosiy ne'matlar (siyosiy erkinliklar, shaxs huquqi), sog'liqni saqlash kishilarining ijtimoiy ahvoli kabi sohalarda odamlar adolat muammolariga katta e'tibor beradilar. Mutafakkir Shahobiddin Am'aqi odil shoh g'oyasini ilgari surar

ekan, ayni paytda hukmdorga adolat me'yorlariga rioya qilish lozimligini o'qtiradi. Jamiyatdagi mavjud sotsial guruhlar, sinflar, tabaqalarga nisbatan moddiy ma'naviy ne'matlarni ulashishiga «chun xurshed meboyat zist», ya'ni quyosh singari barchaga baravar, barchani birday ko'rib, adolat yuzasidan taqsimlash lozimligini ta'kidlaydi. Alloma o'z madhiyalarida ilm ahli, ziyoililar dehqon, hunarmand xizmatchilariga alohida ahamiyat qaratish, jamiyat barqarorligi va taraqqiyot yo'lida qilayotgan mehnatlarini qadrlash kerakligini aytib, o'z faoliyatida ham shunga erishishga intiladi.

«Mutafakkir Am'aqi Buxoriy adolat-Ollohnning benazir inoyatidir, undan barchani bahramand qiling-degan g'oyani ilgari surgan. Bu borada mashvarat (kengash)ga alohida ahamiyat berib, jamiyatni adolatli bojarishda uning vazifasi muhim ekanligiga e'tibor qaratadi». Bu bilan davlatning kuch qudrati faqatgina iqtisodiy imkoniyatlar, kuchli qushin, mirshab va qozilarga emas, balki adolat tamoyilining amal qilishga hamda uning amaliy faoliyatiga ham bog'liqligini ko'rsatib beradi.

Tarbiya jarayonida o'qituvchi, tarbiyachilarining asosiy vazifasi ta'lim - tarbiya berish, o'kuvchilar bilim, ko'nikma malakalarini muttasil oshirib borish, ularda tafakkur, ilmiy dunyoqarash va mafkuraviy tushunchalarni shakllantirishdan iboratdir.

Mafkura - inson ruhiyati, tafakkur va dunyoqarashini o'zgartiradigan kuchli vositadir. Uning g'oyalari xalqning ishonch - e'tiqodi, intilish va manfaatlari ifodasiga aylansa yetarlich samara beradi. Shuning uchun ham mafkura sohasidagi targ'ibot va tashviqot ishlarni, o'quvchilarining tushunchasi, aql - idroki va tafakkur darajasini inobatga olgan holda marifiy yo'l va usullar orqali amalga oshirish taqoza etiladi.

## Mustaqil ishslash uchun topshiriqlar.

1. Mahallada tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish uchun tavsiyalar ishlab chiqing.

2. Masalani yeching: ota o'z o'g'lining yetuklik attestatini olishi va 16 yoshga to'lishi munosabati bilan ziyofat berdi. O'g'lini bugungi baxtli kuni bilan tabriklab unga qadah uzatdi. Oila a'zolari bu voqeaga quyidagicha munosabat bildirishdi:

dadasi: «o'g'lim muborak yoshing bilan tabriklayman, shu munosabat bilan bir qadah ko'taraylik!»

Buvisi: «jon bolam, spirtli ichimliklarga o'g'lingni o'rgata ko'rma, ichkilikbozlikning oxiri voy bo'lishi mumkin».

Bobosi: «...mayli, otangning so'zi yerda qolmasin».

Oyisi: «...o'g'lim, otangsenga qadahnispirtli ichimliklarning qanchalik zararli ekanligini bilishing yoki bilmasligingni sinab ko'rish uchun uzatdi».

**Savol:** Siz oila a'zolarining bu voqeaga bo'lgan munosabatlarini qaysi birini to'g'ri deb o'ylaysiz?

3. Qo'yida amerikalik yozuvchi Lengston Xyzuning «RAHMAT, MEM!» nomli hikoyasini o'qing.

## RAHMAT, MEM!

Kechqurun soat o'n birlar, qorong'i tushgan. Gavdali ayol katta va og'ir sumkasini yelkasiga ortib ko'chada ketib bormoqda. To'satdan qorong'ulikdan bir yigitcha paydo bo'ldi-yu, uning orqasidan kelib, sumkasini tortib olmoqchi bo'ldi. Bolakay orqadan sumkani shunday kuch bilan tortdiki, uning qayishi uzilib, yerga tushib ketdi. Lekin sumka shunchalik og'ir , bolakay esa shunday kichik ediki, u muvozanatini yo'qotib, qochish o'rniga, oyoqlarini osmonga cho'zgancha, orqasi bilan trotuarga yiqilib tushdi. Barvasta ayol keskin qayrilib, bolaning tor jinsi kiygan orqasiga tepdi. Keyin engashib bolani yelkasidan ko'tardi va kuch bilan silkitdi.

- Ey bolakay, sumkamni olib ber,- dedi ayol.  
Bola sumkani olish uchun biroz oldinga qadam tashladi.

- Senga uyat emasmi?
- Ha, mem,- deb g'uldiradi bola. Ayol uni avvalgidek yoqasidan ushlab turardi.

- Nega bunday qilding?
- Men atayin qilganim yo'q.
- Senga ishonib bo'pman.

Ularning yonidan ikk-uch kishi o'tdi, kimdir ularga qayrilib qarab, yana yo'lida davom etdi, kimdir to'xtab ularni tomosha qila boshladi.

- Agar seni qo'yib yuborsam- qochib ketasanmi?
- Ha, mem.
- Unda qo'yib yubormayman,- dedi ayol.
- Xonim ,kechiring, -shivirladi bolakay.
- Aftingga qara, qanday iflos. Nima uyingda hech kim yuzingni yuv demaydimi?
- Hech kim yo'q, mem.
- Endi kimdir bo'ladi. Bugun yuzing ham har qachongidan toza bo'ladi,- deb ayol bolani sudragancha ko'cha bo'ylab keta boshladi.

Ko'rinishdan bola 1'-15 yoshlarda, oriq, nimjon bo'lib, krossovka va jinsida edi.

- Afsus, sen mening o'g'lim emassan,- dedi ayol.- Bo'lmasam ko'rsatib qo'yan bo'lardim. Menga tegish kerak emasdi. Endi- qutila olmaysan. Missis Luella Beyts Vashington Jonsni endi uzoq vaqt unutmaysan.

Bola qo'ldan chiqishga harakat qilardi. Lekin ayol uni qo'yib yubormay, uyigacha olib keldi. Bolani xonasiga itarib olib kirdi, dahliz bo'ylab tortib, oshxonaga olib o'tdi. Ayol hamon uni qo'ltig'i ostidan ushlab turardi.

- Isming nima?
- Rodjer,- javob berdi bola.
- Hozir borib yuzingni yuvasan. Uqdingmi?

Rodjer eshikka qaradi, so'ngra ayolga, yana eshikka... va chanoqqa bordi.

- Meni qamoqqa olib borasizmi?- deb so'radi bola, chanoqqa engashib.

- Shunday iflos bashara bilan hech qayerga olib bormayman. Kechki ovqat tayyorlayman. Balki sen ham hali ovqat yemagandirsan?

- Uyimda hech kim yo'q,- javob berdi bola.
- Demak unda birga ovqatlanamiz. Sen och qolgadirsanki, sumkamni o'g'irlashga qaror qilibsan.
- Men zamshadan tikilgan ko'k tuqli olishni xohlagan edim,- dedi bola.

Bola yuzini yuvib, artindi. Keyin nima qilsam ekan deb o'girildi. Eshik ochiq edi. Dahlizga yugurib chiqish va qochib ketish mumkin.

- Ayol o'rindiqda o'tirardi.
- Men ham yoshligimda ko'p narsa xohlar edim,- deb ayol jim bo'ldi. Uzoq sukonat cho'kdi...

Ha, men ham shunday narsalar qilganmanki, bu haqda gapirmaslik ma'qul o'g'lim. Kim bilan bunaqa ishlar bo'lmaydi deysan. O'tir, men hozir biror yegulik tayyorlayman.

Xonaning boshqa chetida, to'siqning ortida gaz plitasi vasovutgich bor edi. Missis Jons o'rnidan turib, har daqiqada qochib ketishi mumkin bo'lgan bolaga ham, uning yonida turgan sumkasiga ham e'tibor bermay, to'siq ortiga o'tdi. Biroq bola qochishni o'ylamasdi. Buning ustiga u ayol ko'z qiri bilan kuzatishi mumkin bo'lgan xonaning uzoq burchagiga, sumkadan nariroqqa o'tirdi. U ayol unga ishonishini xohlardi.

Ayol sovutgichdan yegulik oldi, kakao qaynatdi va stolga qo'ysi. U boladan qayerda yashashini ham, ota-onasini ham, umuman uni noqulay ahvolga soladigan hech nimani so'ramadi. Bolaga o'zi to'grisida gapirib berdi, mehmonxonadagi kechgacha ochiq turadigan sartaroshxonada ishlashini, unga ko'proq qanday ayollar kirishini aytib berdi. Bolaga ovqat yeb bo'lgach, pirog kesib berdi. Ovqatlanib bo'lgach, dasturxonadan turib, dedi: Ma ol, o'ntalik, o'zingga zamshadan tikilgan ko'k

botinka sotib ol. Bundan keyin birovlarining narsasiga ko'z olaytirma. Yodingda bo'lsin: harom pulga poyabzal sotib olsang, ular butun umr tovoningni kuydiradi. Ayol uni uzun dahlizdan chiqishgacha kuzatib qo'ydi.

Xayrli tun, bundan keyin o'zingni yaxshi tut, dedi ayol eshikdan tashqariga qarab.

Shalog'i chiqqan zinadan yugurib tushib, bola pastdan yuqoriga qarab, eshik oldida turgan ayolga «Raxmat, mem» deb, yana nimalardir demoqchi bo'lidiyu, ammo labi pichirlagani bilan, ovozi chiqmasdi. Bola ovoz chiqarib minnatdorchilik ham bildira olmadi.

**Tarbiya qoidasi** - pedagogik ta'lif va tarbiya jarayonini yaxshiroq tashkil etish maqsadida foydalanadigan boshlang'ich holat, rahbarlik asosidir. Tarbiya qoidalari - o'qituvchi va tarbiyachilarga yo'l - yo'riq ko'rsatuvchi qoidalari hisoblanadi. Tarbiya qoidalariaga quyidagilar kiradi:

**Tarbiyaning ma'lum maqsadga qaratilganlik qoidasi.** Tarbiyadan ko'zlangan asosiy maqsad har tomonlama ma'naviy rivojlangan aqliy va axloqiy barkamol shaxsni shakllantirishdan iborat. Tarbiyaviy ish ma'lum maqsadni ko'zlovchi va uzlusiz davom etadigan jarayondir. Tarbiyaning ma'lum maqsadga qaratilganligi qoidasi bolalar jamoasining rivojlanish istiqbollarini ko'ra bilishga yordam beradi.

**Tarbiyada insonparvarlik va demokratiya qoidasi.** O'qituvchining bilim saviyasi ma'naviyati jamiyatni harakatga keltiruvchi, taraqqiyotgga eltuvchi yetakchi omillardan biridir. Yoshlarni insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalashda Qur'oni Karim, Hadisi shariflardan foydalanish juda muhim. Tarbiyada inson shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir bola, o'smirning betakror va o'ziga xosligini hurmatlash, uning ijtimoiy huquqi va erkinligini hisobga olish lozim. Tarbiyani demokratiyalash - bu tarbiyani ma'muriy ehtiyoj va qiziqishlardan yuqori qo'yish, tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o'tasida o'zaro ishonch, hamkorlik asosida

pedagogik munosabatlar mohiyatini o'zgartirish demakdir. O'qituvchi o'quvchiga avvalgidek tarbiya ob'ekti emas, xuddi o'zi kabi sub'ekt deb qarashi darkor. Tarbiyaviy faoliyatni demokratiyalash va insonparvarlashtirish uning mohiyatini va mazmunini qayta tafakkur etishni ko'zda tutadi. Shaxsnинг rivojlanishi va o'zligini anglashni ta'minlaydi.

**Tarbiyada milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi qoidasi.** O'quvchilarni Vatanimiz qadriyatlarini, boy madaniyati bilan tanishtirish, madaniy va diniy bilimlarini egallashga bo'lgan talablarini shakllantirish malakalarini oshirib, tobora boyitish, estetik tushunchalarni shakllantirish juda muhim. Xalqimizning ko'p asrlik qadriyatlarini ulkan boy va madaniy merosini chuqur bilmasdan, milliy o'zlikni anglash, milliy g'urur tuyg'usini qaror toptirish mumkin emas. U yaratgan madaniy boyliklar yoshlarni tarbiyasida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Buyuk mutafakkirlarning asarlari orqali o'kuvchilar go'zal axloq, baxt, insof, poklik, mehr - shavqat, ota - onani hurmat qilish qoidalari haqida keng tasavvurga ega bo'ladilar. Insoniylik - o'z tarkibiga insonning eng yaxshi axloqiy xususiyatlarini, do'stlik, ota - onaga sadoqatlilik, mehnatsevarlik, diyonatlilik kabi fazilatlarni qamrab oladi. Shu sababli insondagagi eng yaxshi fazilatlar avloddan - avlodga ko'chib kelgan.

**Tarbiyada izchillik, tizimlilik, tarbiyaviy ta'sirlarning uyg'unligi va uzlusizlik qoidasi.** Tarbiya ishida izchillik juda muhim. Tarbiyachi avvaliga bolalardan biror narsani talab qilib, so'ngra o'zi bu talabni unutib qo'ysa, bu hol tarbiyaga yomon ta'sir qiladi. O'qituvchi subutli, o'z lafziga sobit bo'lmog'i kerak. O'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishda izchillikkha rioya qilish va bir xil talab qo'yish muvaffaqiyat qozonishning eng muhim shartlaridan biridir. Tarbiya uzoq davom etadigan jarayon, unda ota - ona, o'qituvchi, jamoatchilik qatnashadilar. Shu sababli ularning ishida izchillik va davomiylik bo'lishiga rioya qilish kerak. Bu qoida tarbiyani amalga oshiradigan barcha

bo'g'irlarni (oila, maktab, o'quvchilar jamoasi, maktabdan tashqari tarbiya muassasalari, keng jamoatchilikni) birligida ish ko'rinishlarini nazarda tutadi. Chunki tizimlilik faqat yoshlarni emas, balki aholining barcha qatlamlarini qamrab olishi kerak.

Bola o'qishni, tarbiya olishni ulg'ayib jamiyat hayotida faol ishtirok etishni xohlaydi. Pedagog uni qay usulda, qanday munosabatlar sharoitida, qanday pedagogik jarayonda tarbiyalash lozimligini bilishi kerak, shu bilan birga bola o'zini o'zgartirishda faol ishtirokchi ekanligini ham unutmasligi lozim.

## 2- mavzu Tarbiya fanining didaktik asoslari

### REJA:

1. Didaktika haqida tushuncha.
2. Ta'lif jarayoni mohiyati va vazifalari.
3. O'qitish jarayonining ta'lifi - tarbiyaviy va rivojlantiruvchi funksiyalari.

**Didaktika nima? U pedagogikaning qanday sohasi bilan shug'ullanadi?** Bilim jarayonining ilmiy, nazariy, uslubiy va amaliy asoslarini, ya'ni ta'lif, bilim berish, o'qitish nazariyasi bilan pedagogikaning mustaqil bo'limi didaktika ta'lif nazariyasi shug'ullanadi.

**Didaktika** - grekcha so'z bo'lib, "didasko", ya'ni o'qitish, o'rgatish ma'nolarini bildiradi. Ta'lif qonuniyatlarini o'rganish, tahlil qilish jarayonida ta'lif tushunchasi uning mohiyati, mazmun va vaziflari, o'qitish prinsiplari, shakllari haqidagi bilimlarni bayon etiladi. Didaktika pedagogikaning «nimaga o'qitish», «nimani o'qitish» va «qanday o'qitish» kabi savollariga javob izlaydi. **Ta'lif** - insoniyat tajribasining ma'lum tomonlarini, ya'ni o'quvchilar ijtimoiy taraqqiyotining hozirgi talablariga muvofiq darajada bilim va tarbiyaga ega bo'lishlarini ta'minlaydigan faoliyatdir. O'qituvchi ta'lif jarayonida faqat bilim berish bilan chegaralanmaydi, balki bu jarayonda o'quvchi, talabaga ta'sir ko'rsatadi, bu esa ularning bilim olishlarini yanada faollashtiradi, natijada o'quvchi ta'lif jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi. Ta'lifdagiyutuqlar avvalo o'qituvchiga bog'liq. Mutaxassis sifatida o'z fanini chuqur bilishi, pedagogik muloqot ustasi bo'lish psixologik - pedagogik va uslubiy bilim va malakalarni egallashi, xar xil pedagogik vaziyatlarni zudlik bilan o'rganish va baholash, pedagogik ta'sir ko'rsatishning maqbul usul va vositalarini tanlay olish qobiliyatiga ega bo'lish kerak.

**Ta'lif jarayoni**- ma'lumot mazmuni hamda unga

oid faoliyat usullarini o'quvchilarning o'zlashtirishi uchun o'qitish va o'qish faoliyatlarining real aloqalashuvi, sababiyatli bog'lanishi, bir-biriga muvofiqlashuvi asosida ta'larning aktlar, zvenolar, sikllar shaklida makon va zamonda harakatlanadigan maqsadga muvofiq shirkat faoliyatidir.

Ta'larning asosiy vazifalar shaxsnii ilmiy bilimlar, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishdan iborat. Ta'lim inson bilish faoliyatining bir turi sifatida bir necha ma'noni bildiradi, ya'ni ta'lim oluvchilarda bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilish, ularda dunyoqarash, fikr va e'tiqodlarni shakllantirish hamda ularning qobiliyatlarini o'stirishdir.

Ta'lim orqali yosh avlodga insoniyat tajribasi orqali to'plangan bilimlar beriladi, zaruriy ko'nikma va malakalar hamda e'tiqodlar shakllantiriladi. Ta'lim o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati bo'lib, u ikki tomonlama xarakterga ega, ya'ni unda ikki tomon o'qituvchi va o'quvchi faol ishtirok etadi. O'qituvchi aniq maqsadni ko'zlab, reja va dastur asosida bilim, ko'nikma va malakalarni singdiradi, o'quvchi esa uni faol o'zlashtirib oladi. Bildirish, bilish murakkab, qiyin, ziddiyatli jarayondir. Bu jarayonda inson psixikasiga tegishli sezgi, idrok tessavvur va tafakkur kabi jarayonlar faol ishtirok etadi va muhim rol o'ynaydi. Ta'lim berish, yoshlarga bilim berish, ularda ko'nikma va malakalarni hosil qilish, ya'ni haqiqatlarni ocha olishga qodir bo'lgan jiddiy mantiqiy tafakkurni tarbiyalashdir.

O'qituvchi, o'quvchi va talabalardagi fikrlash jarayonni to'g'ri yo'lga solish uchun amaliyot har qanday bilishning negizidir, degan qoidani hisobga olish zarur. Ta'limda o'qituvchi bilim berish bilan cheklanmaydi, u o'quvchilarning fikrlash faoliyatiga ham rahbarlik qiladi, o'quvchilarda ishdagi mustaqillik, ijodkorlik qobiliyatlarini o'stiradi va shu tariqa o'rganilayotgan narsaning ongli ravishda o'zlashtirib olishga erishiladi, materialni idrok qilishlari va tushunib olishlari bilan birga, uni puxta esda saqlab qolishlari to'g'risida ham

g'amxo'rlik qiladi.

O'qituvchi o'quvchi - talabaning bilish faoliyatlarini tashkil qilish maqsadida o'quv ishlarni olib borar ekan, avvalo ta'lim jarayoni orqali uch vazifani, ya'ni bilim berish orqali uch maqsadni hal qilish lozimligini unutmasligi kerak. Bu maqsadlar o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatini birlashtiradi.

**1.Ta'limi maqsad** - o'quv materialining mazmunini bilish, ya'ni ushbu fanga tegishli ilmiy bilimlarni o'zlashtirish va amaliyotga tadbiq qila olishdir.

**2.Tarbiyaviy maqsad** - fan asoslarini o'zlashtirish orqali uning mazmunida yotgan g'oyalar, dunyoqarashlar ta'sirida o'zining shaxsiy sifatlarini, imon - e'tiqodlarini shakllantirishdir.

**3.Rivojantiruvchi maqsad** - ta'lim jarayoni ta'sirida shaxsnинг aqliy kamolatini, bilish qobiliyatini, o'qishga, mehnatga bo'lgan munosa-batini rivojlantirishdan iborat.

Bu maqsadlarni amalga oshirish natijasida o'quvchi - talabada mustaqil ishlash iste'dodi paydo bo'ladi. Uni o'yashga o'rgatadi, ta'lim jarayonida tafakkur hukmronlik qiladi.

**Ta'lim jarayoni bilan bilish jarayoni o'rtasida qanday bog'liqliklar bor?**

Bubog'liqlikn, avvalo, ta'limni amalga oshish bosqichlarda ko'rishimiz mumkin. Bu bosqichlar quyidagilardan iborat:

**Birinchi bosqich:** o'quv materiallarini idrok qilishdan iborat. Bunda o'quvchi talaba ta'larning mazmuni bilan tanishib, o'zining bilish vazifalari nimalar iborat ekanligini tushunib oladi. Bunda sezgi, idrok, tasavvur kabi jarayonlar faol ishtirok etadi.

**Ikkinci bosqich:** ular o'quv materiallarini tushunib oladilar, uning mohiyatini anglaydilar va umumlashtiradilar. Natijada ularda yangi bilimlar paydo bo'ladi. Buning uchun ular analiz, sintez, taqqoslash, xulosa chiqarishdan foydalanadilar.

**Uchinchi bosqich:** yangibilimlar, mashqlar, mustaqilishlar o'qituvchining qo'shimcha izohlari orqali mustahkamlanadi.

**To'rtinchi bosqichda:** ular o'zlashtirib olgan bilimlarni

imkoniyatga qarab amaliyotga tadbiq qiladilar.

Bularni bilish orqali o'qituvchi ta'lif tarbiya jarayonini samarali boshqarishi mumkin. Shuning uchun o'quv jarayonining hamma bosqichlarida o'qituvchi yetakchilik va boshqaruvchilik rolini o'ynaydi. Yuqoridagi fikrlardan xulosa chiqaradigan bo'lsak, o'qitish jarayoni bilish faoliyatining muhim tarmog'i sifatida qator vazifalarni bajaradi.

Jumladan:

1.O'quvchi va talabalarda bilim ko'nikma va malakalarni hosil qiladi.

2.Ularda dunyoqarash, ishonch va e'tiqodlarini o'stiradi.

3.Yoshlarni muayyan darajada o'qimishli, muayyan tarbiyalik kishilar bo'lib yetishishlariga, qobiliyat va is'tedodlarini o'stirishga erishiladi.

Bu vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish uchun o'qituvchida o'z kasbiga layoqat bo'lishi lozim. Layoqatlilik pedagogik mehnatni muvaffaqiyatli bajarishga qodir bo'lishdir. Bu, avvalo, pedagogik kasbning ijtimoiy roli va zaruriyatini yaqqol tasavvur qila olishda ko'rindi. Bundan tashqari o'qituvchi o'quvchiga qiziqib qarashi, uning ehtiyoj va xususiyatlarini tushuna bilish lozim.

Bundan tashqari o'qituvchi ta'lif jarayonidahar bir o'quvchi talabanining bilimi va tarbiyalanganlik darajasini aniqlay olishi va hisobga olishi, o'quv materiallarini to'g'ri tanlay bilishi, tahlil qila olishi va umumlashtira bilishi pedagogik mahorat uchun zarur bo'lgan ta'lif usullari, vositalari va shakllarini mukammal bilish, o'quvchiga nisbatan talabchan bo'lish, pedagogik vaziyatga qarab ulardan o'rinni foydalana olish, ta'lif natijalarini dastlabki va keyingi ko'rsatkichlar bilan taqqoslash va tahlil qilib borishi lozim. Xullas o'qituvchi keng ko'lamdag'i didaktik bilimlarga pedagogic mahoratga ega bo'lishi lozim. Shundagina o'qituvchi kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablari darajasida ta'lif jarayonini tashkil qiladi va boshqaradi.

Uzluksiz ta'lif kadrlar tayyorlash tizimining asosi va

kadrlar tayyorlash milliy modelining tarkibiy qismlaridan biri, - deb ta'kidlanadi, Kadrlar tayyorlash milliy dasturida. Uzluksiz ta'lif tizimi o'quv - tarbiya jarayonining hamma bosqichlarini qamrab oladi hamda har tomonlama yetuk barkamol avlodni yeishtirish uchun shart - sharoitlar yaratadi. Dasturda uzluksiz ta'lifni tashkil etish va rivojlantirish prinsiplari ham o'z ifodasini to'liq topgan.

Bular: -ta'lifning ustuvorligi, ta'lifning demokratlashuvi, ta'lifning insonparvarlashuvi, - ta'lifning ijtimoiylashuvi, - ta'lifning milliy yo'naltirilganligi, - ta'lif va tarbiya uzviy bog'liqligi, - iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori darajada bilim olishlari uchun shart - sharoit yaratish kabilardir.

Pedagogikada ta'lifning ilmiy - nazariy, uslubiy asoslari alohida, ya'ni didaktika qismida o'rganiladi. Bu jarayonda ta'lif prinsiplariga alohida to'xtaladi. Xo'sh, **ta'lif prinsiplari kim uchun va nima uchun kerak? U o'quvchi faoliyatiga ham dahldormi?** Ta'lif jarayoni murakkab hamda ko'p qirralidir. Bu jarayonning muvaffaqiyatli va samarali natijasi ta'lif jarayonining qonun qoidalari, ya'ni ta'limga qo'yilgan didaktik talablarga qay darajada amal qilishlariga bog'liq.

Ta'lif prinsiplari o'quv tarbiya jarayoniga qo'yiladigan ijtimoiy talablar, ta'lifni tashkil etish va boshqarishda riosa qiladigan qoidalalar sifatida amal qiladi.

Ko'pchilik adabiyotlarda «o'qitish prinsiplari» iborasi ishlataladi. Lekin ta'lif prinsiplari ta'lif jarayonining ikkala sub'ektiga-o'quvuvi va o'quvchiga ham daxldor. Shuning uchun ularni ta'lif prinsiplari deb atagan ma'qul, deb ta'kidlaydi prof O.Roziqov.

**Ta'lifni tashkil etish, boshqarish va nazorat qilishda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga qo'yiladigan talablar, qoidalalar ta'lif prinsiplari deb ataladi.**

Prinsiplar umumdidaktik kategoriya bo'lib, ular ta'lifning barcha turlari, darajalari, sub'ektlari, o'quv-tarbiya jarayonining hamma komponentlariga dahldor umumiyl qoidalardir. O'qitish

bilish faoliyatining ajralmas qismi sifatida, insonning tevarak – atrofdagi dunyoni bilishining umumiy qonunlari asosida sodir bo'ladi. Shuning uchun o'qitish tamoyillari ta'lim jarayonining eng muhim masalalarini nazariy va amaliy jihatdan to'g'ri hal qilishning asosiy negizi hisoblanadi.

### **Ta'lim prinsiplarining uzviy bog'liqligi deganda nimani tushunasiz?**

Ta'lim tamoyillari o'quv yurtlari oldida turgan ulkan vazifalar asosida belgilanadi. Ular o'zaro bir – biri bilan mustahkam bog'liq holda bir sistemani tashkil etadi. Har bir darsda didaktik tamoyillarning bir nechta ishtirok etishi mumkin. Ular ta'lim oldida turgan asosiy maqsadlarni hal etishga o'z hissasini qo'shamdi. Ta'lim tizimi isloh qilinayotgan hozirgi jarayonda o'quvchi talabalarga mustahkam bilim berish, ularni erkin, mustaqil fikrlay oladigan insonlar qilib tarbiyalashda, ta'lim tamoyillarning mohiyatini chuqur anglash va hayotga tatbiq etish muhim muammolardan biridir.

O'quv yurtlarida beriladigan bilim ilmiy xarakterga ega bo'lishi, texnika va fanning so'nggi yutuq va kashfiyotlarini o'zida ifoda etishi lozim. Shunday ekan o'quvchi ilm fandagi yangiliklardan xabardor bo'lishi lozim.

### **Ta'lim prinsip (tamoyil)lari tizimi nimadan iborat?**

O'qitishning ilmiylik tamoyillari ta'lim jarayonida o'quvchi - talabalarni hozirgi zamon texnika fan taraqqiyoti darajasidagi ilmiy bilimlar bilan qurollantirish, ayniqsa talaba yoshlarni ilmiy tadqiqot usullari bilan tanishtirishga qaratilgan. Ilmiylik ta'limning mazmuniga va usullariga aloqadordir.

Shunday ekan bilim ilm – fan bilano o'quv predmeti o'rtasida hamkorlik, o'zaro bog'liqlik bo'lismiga erishish lozim. Ta'limning hamma bosqichlarida ilmiy izohlashlardan foydalanmoq lozim. Bilimlarni tizimli va izchil o'zlashtirish qoidasi ta'limning ilmiyligi va tushunarligi qoidalari bilan uzviy bog'liq. Tizimlilik (sistemalilik) didaktik kategoriya sifatida Ya.A.Komenskiyning asarlarida asoslab berilgan edi. U tabiatda bir narsa ikkinchi

narsa bilan bog'liq bo'lganidek, ta'limda har bir narsa ikkinchisi bilan aloqada bo'lmos'h, har bir mashg'ulotda o'rganilgan bilim keyingi o'rganiladigan bilimlarga yo'l ochishi lozim, deb hisoblaydi.

Professor O.Roziqov tizimlilikni ta'lim qoidasi sifatida quyidagi belgilarga ega ekanligini ta'kidlaydi: tartibga solingenlik, tashkiliylik, yaxlitlik, rejallilik, davomiylik, vorisiylik, istiqbolga yo'nalganlik[3]

Ta'limningtizimlibulishiuningizchilbo'lishibilanbogliqdir. Izchillikka asoslangan ta'limning xarakterli belgisi shundaki, u o'quvchilarning oldindan o'zlashtirgan bilim va malakalari zamirida yangi bilim, ko'nikma ya malakalar hosil qilish, ularning o'zaro bog'lanishlarini takomillashtirish va aksincha, yangi bilimlarni bayon qilish jarayonida oldindan o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni yanada chuqurlashtirish, kengaytirish va mustahkamlashni ta'minlashga qaratilgandir. Tizimlilik va izchillik o'quv fanlarining bir-biri bilan bog'liq bo'lishini ham nazarda tutadi.

Nazariy bilimlarning amaliyot bilan turmush tajribalari bilan bog'lab olib borish ta'limning yetakchi qoidalardan hisoblanadi. Ta'lim - tarbiya sohasidagi yutuqlar, eng avvalo nazariya bilan amaliyotning o'zaro bog'liqligiga asoslanadi. Shundagina o'quvchi - talaba o'rganayotgan o'quv materiallarining tub mohiyatini tushunib yetadi va amaliyotda ularidan foydalana oladi. Buning uchun o'qituvchi ta'lim jarayonida o'quvchilarning faol ishtirok etishlariga erishmog'i lozim. Faol ishtirok esa bilimlarni ongli tushunib o'zlashtirishga olib keladi.

Ta'limdagagi onglilik va faollik, o'quvchidagi ko'tarinki kayfiyat, ko'proq bilishga intilish, mustaqil fikrlash va xulosalar chiqarishga undaydi. Bilimlarni ongli va faol o'zlashtirish o'qitish jarayonining psixologik tomonlarida o'z ifodasini topadi. O'qitishda nazariy bilimlar qanchalik qat'iy bayon etilsa, o'kuyuchi talabaning fikr yuritishi shunchalik aniq va ravshan

bo'ladi va o'quv materiallarini ongli o'zlashtirish darajasi ham oshadi.

Ta'lim tizimi isloh qilinayotgan hozirgi jarayonda yoshlarning mustaqil fikr yuritishi, mustaqil suratda bilim olishga intilishi talab qilinadi. Buning natijasida bilimlarni o'zlashtirish jarayoni ijodiy tus oladi. Bunday jarayonda o'qituvchi o'kuvchining mashg'ulotlarga munosabati va bu jarayonda o'zini qanday tutishga e'tibor bermog'ilozim. Shunday ekan, ta'limning samaradorligi o'qituvchining o'quvchilarni o'qishga izchil va muntazam qiziqtirib borishga bog'liqidir. Buning uchun o'qituvchi ularni o'qishga ijodiy munosabatda bo'lishga, mustaqillikka, ishchanlikka odatlantirishi lozim.

Ta'lim jarayoni, uning mazmuni, unda ko'tarilgan hayotiy masalalar yoshlar tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli ta'lim shaxsni shakllantirishning asosiy manbaidir.

O'qitib tarbiya berish deganda ta'lim va tarbiyaning bir - biridan ajralmasligini tushunamiz. Xar bir o'quv fani hatto, ayrim mavzu ya mavzuchalari ham shubhasiz, tarbiyalovchilik xarakteriga ega.

Tabiiy fanlar- matematika, kimyo, biologiya, astronomiya va boshqalarni o'zlashtirish orqali o'quvchilarda ilmiy e'tiqod, dunyoqarash shakllana boradi. Ular dunyoni o'rganish mumkinligini ilmiy asosda anglab oladilar. Har bir narsa yuzasidan haqqoniy hukm chiqarishga o'rganadilar.

Gumanitar fanlarning tarbiyaviy ahamiyati yanada kengroq bo'lib, ular komil insонning axloqiy sifatlarini shakllantirishga har tomonlama yordam beradi.

O'quvchi-talaba ilmiy bilimlarni o'zlashtirar ekan, uning dunyoqarashi, iymon- e'tiqodi va qobiliyati o'sib rivojlanib boradi. Ta'limning tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanish o'qituvchining, avvalo, ta'limni uslubiy jihatdan to'g'ri tashkil etishiga, o'quv materiallarining mazmuni bilan bog'liq tarbiyaviy maqsadlarni aniq belgilashiga va o'quvchilarning bilim olishga qiziqtira olishiga bog'liqidir. Shu bilan birga

o'qituvchining o'quvchilar oldidagi obro' - e'tibori muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Ta'limning ko'rsatmalilik qoidasi - ta'lim jarayoni sifatini oshiradi, o'quvchilarning bilim olishlarini osonlashtiradi. Bu qoida o'qitish jarayonida ko'rish, eshitish, hid, ta'm, maza bilish, teri-muskul harakat kabi sezgi organlarining bir yo'la ob'ekt ustida safarbar qilinishini talab etadi. Ta'lim jarayonida ko'rsatma materiallar o'quv predmetlarining xarakteri va mazmuniga qarab turli - tuman bo'lishi mumkin.

Jumladan:

- a) buyum va narsalarni aslini tabiiy holda ko'rsatish;
- b) tasviriy ko'rsatmali materiallarni namoyish qilish;
- v) narsa va buyumlarni shartli belgilar orqali ko'rsatish;
- g) ovozli ko'rsatmali materiallarni ko'rsatish.

Ta'limda ko'rsatmalilikning samarali natijalar berishi uchun uning quyidagi tomonlariga ham e'tibor berish kerak.

Birinchidan, ishlatiladigan ko'rsatmali qurollar u yoki bu sinf o'quvchilarining yoshi va o'ziga xos xarakter xususiyatlari, umumiylaytirish, tayyorligi- saviyasiga mos keladigan bo'lishi lozim. Ikkinchidan, foydalaniladigan ko'rsatmali qurollar o'tilayotgan dars mavzusining mazmunini ochib berishga yordam beradigan materiallar bo'lishi lozim. Uchinchidan, dars jarayonida foydalanish uchun belgilangan ko'rsatmali materiallardan unumli foydalanmoq uchun zarur bo'lgan ta'lim usullari to'g'ri tanlangan bo'lishi lozim.

### **3-mavzu. Tarbiyani shakillantirishda ommaviy madaniyat va axborot xurujlaridan tasiri**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev «Ma'nnaviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida»gi qarorida yoshlarimiz ongiga salbiy ta'sir etuvchi, ularni g'oyaviy jihatdan qaram etishga yo'naltirilgan harakatlarga qarshi samarali kurash olib borish hamda irodali, fidoyi, vatanparvar va o'z mustaqil fikriga ega avlodni tarbiyalash bo'yicha amaliy chora-tadbirlar dasturlarini ishlab chiqish masalasini alohida e'tibor qaratib, «aholining Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanish madaniyatini oshirish, g'oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchaytirish»ni Ma'nnaviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilab berdi[1]. Darhaqiqat, XX asrning oxiri va asrimiz boshiga kelib hayotimizda «axborot asri», «axborotlashgan jamiyat», «axborot xuruji» kabi tushunchalar paydo bo'ldi. Bu esa bugungi kunda axborot tushunchasining ahamiyati oshganligidan, qamrovi kengayganligidan, maqsad-muddaosi o'zgarayotganligidan darak beradi. Axborot endi biror jarayon, voqelik yoki hodisa haqida xabar berish ma'nosidan chetga chiqib, insonlar ongi va ruhiga ta'siretishning, jamiyatda mavjud qonun-qoidalarni va butun dunyo e'tirof etgan umuminsoniy qadriyatlar va tushunchalarni ma'lum maqsad atrofida birlashgan ayrim guruh va jamoalarning manfaatlariga xizmat qiluvchi o'ziga xos yangi talqinlarini yuzaga chiqarishning; siyosiy, iqtisodiy, harbiy, diniy va boshqa bir qancha qarashlarning targ'ibotchisiga aylanib bormoqda. Buning natijasida, insoniyat taraqqiyotining ayni pallasida axborotning omma ongiga ta'siri va uning salbiy oqibatlari jamiyatning jiddiy muammolaridan biriga aylanib ulgurdi. Endi axborot atalmish quroq vositasida inson ongiga hujum qilish natijasida uning tafakkuri va intellektini egallash, o'z auditoriyasini

kengaytirish bilan qudratini oshirish orqali ularni qaysidir g'oya atrofida birlashgan kuchlarning maqsadlariga xizmat qildirish bilan bog'liq "urush"ning zamonaviy ko'rinishlari paydo bo'ldi. Taraqqiyotning hozirigi bosqichiga kelib, dunyo axborot makonida munosib o'rin egallahga erishish uchun moddiy ko'rinish va shaklga ega bo'lman, faqat aql bilan ko'rish va tafakkur bilan anglash mumkin bo'lgan jiddiy kurash avj olmoqda. Soha mutaxassislarining fikricha, axborot qurollari tushunchasi ostida biror xalq, millat mentaliteti, madaniyati, ma'nnaviyati, dini, davlatning informatsion va harbiy tizimiga salbiy ta'sir o'tkazadigan maxsus dezinformatsion texnologik vositalarning muayyan tizimi yotadi. Axborotga bo'lgan ehtiyojning qondirilishi ijobiy holat, ammo hech qanday asosga ega bo'lman, bir qarashda beozorgina bo'lib ko'ringan, lekin maqsadmuddaosi g'arazli bo'lgan axborotlarga yoshlarning aldanib qolayotganligi tashvishlanarlidir. Davlatlarning siyosiy qarashlarini noto'g'ri talqin qiluvchi, turli ekstremistik va terroristik g'oyalarni, insoniyatga qarshi quroq ko'tarishga undovchi, o'z-o'zini o'ldirishga chaqiruvchi, narkotik va odam savdosi bilan bog'liq maqsadlarni ko'zlovchi, «ommaviy madaniyat»ni targ'ib qiluvchi barcha axborotlar o'ziga xos ta'sir etish imkoniyatlariga egaki, bu «aldamchi jilvalanishlar»ga, ko'p hollarda, aqliy va ma'nnaviy jihatdan hali to'la shakllanib ulgurmagan yoshlar "maftun" bo'lib qolmoqda. Hatto bunday g'arazli maqsadlar o'z tabiatini bilan ezgulikka xizmat qilishi kerak bo'lgan san'at asarlari (kino, animatsion filmlar, musiqa, qo'shiq, raqs va b.) zamiriga ham singdirib yuborilmoqdaki, bu kabi "kadr ortidagi maqsad"ni anglash uchun insonlardan teran aql-zakovat va hozirda bir qaraganda ko'rish mumkin bo'lman, ammo real mavjud "axborot xurujlari"ga qarshi immunitet shakllangan bo'lishi lozim. Biz yashab turgan olamda o'ziga xos "aldamchi jilvalari" bilan o'ziga rom etuvchi; matn, tovush yoki tasvir ortida bir qarashda anglash mumkin bo'lman, ammo ayrim guruh va jamoalarning g'arazli

maqsadlarini targ'ib etuvchi pinhona xurujlar mavjud ekan, bizning jamiyatimizni bu kabi salbiy ta'sirlardan ihotalash uchun, xususan, bu illatning yoshlar ongi va dunyoqarashiga ta'sirini kamaytirish uchun qanday chora-tadbirlar ko'rilmoxda va bu choralarining samaradorligini oshirish uchun yana nimalar qilishimiz lozim bo'ladi? Bu borada amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorligini oshirish va takomillashtirish uchun yana quyidagi ishlarni taklif qilmoqchimiz:

1) Axborot xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan milliy qonunchilik bazasini takomillashtirish, xususan, alohida qonun hujjati qabul qilish masalasini ko'rib chiqish;

2) milliy axborot makonimizni aholining qiziqishini inobatga olgan holda jarayonlarni ob'ektiv va pozitiv yorituvchi mahalliy va xorijiy axborotlar bilan muntazam to'ldirib borish;

3) xalqimizning, xususan, yoshlarning internetdan foydalanish madaniyatini o'stirish, undagi har qanday axborotni tafakkur va tahlil qilib, so'ng xulosa chiqarishga o'rgatishimiz zarur;

4) mamlakatimiz to'g'risida noto'g'ri, bir taraflama axborot tarqatuvchi har qanday xorijiy axborot vositalari faoliyatiga qonun doirasida chek qo'yish, bu kabi axborotlari uchun ularning javobgaligini oshirish va tarqatilgan axborotlarning bir taraflama yoki noto'g'ri ekanligini mutaxassislar ishtirokida xalqimizga o'z vaqtida yetkazish;

5) o'rta maxsus va professional ta'lim, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida axborot xavfsizligini ta'minlash, xususan, axborot xurujlari, uning shakl va ko'rinishlari, maqsadi va salbiy oqibatlari borasida maxsus kurslar o'tilishini ta'minlash;

6) milliy g'oya, mafkura, ma'naviyat, vatanparvarlik kabi tushunchalar targ'iboti borasida amalga oshirilayotgan ishlarni izchillik bilan davom ettirish. Chunki, hozirgi dunyoning globallashuvi sharoitida axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan unumli foydalanish dolzarb masalaga aylandi. "Nega deganda, hozirgi paytda Yer yuzining qaysi chekkasida

bir voqeя yuz bermasin, odamzod bu haqda dunyoning boshqa chekkasida zudlik bilan xabar topishi hech kimga sir emas". Bunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanib borayotganligi asos bo'lmoqda.

1) Shunday ekan, dastlab yoshlarda axborot-kommunikatsion texnologiyalari yo'nalishdagi bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirish didaktik vositasida kompyuter va boshqa zamonaviy texnik vositalardan maqsadli foydalanish;

2) Internet va ommaviy axborot vositalarining o'zga manbalarida e'lon qilinayotgan ma'lumotlarni tasarruf etish;

3) yangi axborot, fakt va ma'lumotlarni yig'ish, saralash va qayta ishslash bilan o'quv jarayoniga tatbiq etish haqidagi bilimlarga va uni amaliyotda qo'llash mahoratiga ega bo'lish muhimdir. Chunki, ta'lim jarayonida mazkur texnologiyalar kundan-kunga chuqur o'rin egallab bormoqda. Buning natijasi sifatida ta'lim-tarbiyada avtomatlashtirilgan axborot texnologiyalaridan, kommunikativ texnologiyalardan va kompyuterli tizimlardan unumli foydalanishga alohida e'tibor berilmoqda.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, axborot tushunchasi bugungi kunda har doimgidan ham kengroq ma'no va mazmun kasb etib bormoqda. Bugun biz yashab turgan zamon va makonda bizga bog'liq bo'limgan holda gohida oshkora, aksariyat hollarda pinhona tarzda harakat qiluvchi "axborot xuruji" atalmish qurol yuzaga keldiki, bu qurol vositasida endi inson ongiga egalik qilish imkoniyati paydo bo'lmoqda. Bu salbiy illatdan xalqimizni, xususan, yosh avlodni himoya qilish, ularda "axborot xuruji" ga qarshi immunitetni shakllantirish har doimgidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

#### **4-Mavzu: Tarbiyani shakillanishida konfliktologik madaniyatni rivojlantirish**

##### **Reja:**

1. Pedagogik konfliktning maqsad va vazifalari.
2. Tarbiyani shakillanishida pedagogik konfliktning vazifalari.
3. Konfliktning ilmiy-tadqiqot metodlari.

Afsuslar bo'lsinki, bugungi kunda tiirli vaziyatlarda xotijamlikni saqlagan holda, bor imkoni bilan atrofdagi odamlarga yordamga shoshilish, ulami sabrga, vazminlikka chorlash, hatti-harakatlari bilan noqobil ishiami qilayotganlar ham uchrab turibdi. Turli asossiz yolg'on, mish-mishlar tarqatib, ahoii orasida noo'rin vahimalar paydo qilayotgan shaxsiar ham yo'q emas. Shunday ekan, hayot konfliktlarga to'la Insonning jamiyatdagi yashash tarzini turli ziddiyatlarsiz tasawur etib boimaydi. Turli nizo va ziddiyatlar bilan umr davomida, har qanday yoshda, har qanday joy da, har qanday vaziyatda to'qnash kelish mumkin. Konfliktlar uyda, maktabda, ko'chada, o'quvchilar orasida, ota-onalar va farzandlar, xodim va uning rahbariyati orasida, jamoa a'zolari o'rtasida sodir bollishi mumkin. Konfliktlar, odatda, ko'p vaqt odamlar birga bo'ladigan hollarda, ya'nı ular uzoq muddat bir-birlari bilan va ruhiy muloqotda bo'fladigan hollarda, ular ma'lum muddat o'zaro birga bo'lishga majbur bo'lgan paytalarida kocproq sodir boiadi. Hech bir inson o'zini konfliktlardan doimiy muhofaza qilinganman deb hisoblay olmaydi. Chunki konfliktlai' ba'zan qo'qqisdan, hech kutilmagan holda vujudga kelishi hamda inson hayot tarzini tubdan o'zgartirib yuborishi mumkin. Konflikt har bir inson hayotining ajralmas qismi boiib, hech bir inson konfliktlardan o'zini «kafolatlanganman» deb ishonch bilan aytu olmaydi. Har birimiz bolalik davrlarimizdan konfliktli vaziyatlarga tushamiz va bu holatlardanchiqib ketish yollarini,

usullarini qidiramiz. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, konfiikt ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Chunki u ko'pchilik insonlaming kundalik tumiush tarziga oid voqeа va hodisalami qamrab oladi hamda konfiikt rivojidan har bir inson, yaqin qarindoshlar, mehnat jamoasi o'rtasidagi tinch va totuvlikka asoslangan osuda hayot tarzi zarar ko'rishi mumkin. Ulg'ayganimiz sari konfliktli voqeа; 'Kodisalar o'z kuchi va ta'sirini ham kuchaytirib boradi. Ammobizkonfiuktnimaliginibilamizmi?! Hardoimham konfliktli vaziyatga tushib qolganda o'zimizni to'g'ri tutamizmi? Konfiikt bizning hayotimiz uchun tahdid ko'rsatadimi? Konfiuktning o'z ichki tabiatи qanday? Konfliktdan qanday qutilish, ya'ni undan qanday chiqib ketish kerak? Ziddiyat qanday qonuniyatlar asosida rivojlanadi? Nizoni rivojlantiruvchi omillami oldindan bartaraf etsa bo'ladimi? Inson ziddiyatlarsizyashashga oorganishi mumkinmi?! - singari savollar butun bir vujudimizni qurshab oladi. Konfliktlogiya yoki konfiuktlar yechimi sohasi yangi rivojlanib kelayotgan va taraqqiy etayotgan fan sohalaridan biridir. Shu bois, konfliktlogiya sohasining nazariy asoslari, uning milliy xususiyatlari, ijtimoiy o'ziga xosligi, konfliktlaming jamiyat hayoti bilan aloqadorligi, shaxslararo konfiuktlar, konfliktlaming huquqiy aspektlari, mehnat jamoasidagi konfiuktlar masalalari ko'pchilik tadqiqotchilami qiziqtiradi. Ko'rinish turibdiki, konfliktlogiyaning o'z ichki yo'nalishlari ko'p. Konfliktologik kayfiyat va xususiyatlami o'rganish jamiyatdagи inqirozlaming kelib chiqishi va ijtimoiy to'qnashuvlammg oldini olishga kolmak beradi. Ammo bu sohadagi tadqiqotlar unchalik ko'p bo'lmay, mazkur qo'llanmani tayyorlashda konfliktlogiya asoslari bo'yicha ingliz, rus va o'zbek tillaridagi ma'lum manbalarga tayanildi. AQShning bir necha universitetlari qoshida konfiukt yechimlarini oorganishga yo'naltirilgan ilmiy-amaliy tadqiqot markazlari faoliyat olib boradi. Mayamida tashkil etilgan «Tinchlik ta'limi tadqiqotlari markazi» ana shunday tashkilotlardan hisoblanadi. Rossiya Fanlar Akademiyasi Sotsiologiya instituti qoshida ham

«Konfliktologik tadqiqotlar markazi» ish olib boradi. Ushbu markazlar asosan konfliktli vaziyatlari oldini olish choratadbirlaiini ishlab chiqish bilan shug'ullanadi. Konflikt o'zi nima? «Konflikt» atamasi «Nizo» tushunchasining dastlabki ekvivalenti sanaladi. Bu fan o'rganuvchi obyektlar nimalardan iborat? Konfliktlaming kelib chiqishini, sabab va oqibatlarini o'rganuvchi fan «Konfliktologiya» boiib, u lotincha «conflictus» - to'qnashuv, «logiya» - ta'lilot demakdir. Demak, Konfliktologiya to'qnashuv haqida ta'lif berish, ya'ni to'qnashuv haqidagi fan hisoblanadi. Pedagogik konfliktologiya fanining predmeti - konfliktlaming yuzaga kelishi, rivojlanishi va tugallanishiga doir umumiy qonuniyatlardir. Konfliktning yechimini topish - konfliktli vaziyatni yo'qotish hamda u yuzaga keltirgan munosabatlami to'g'ri yolga solish bilim va ko'nikmalar majmuidan iborat. Konflikt tabiiy hodisa. Konflikt - oddiy hoi. Chunki konflikt har birimizning turmushimiz va tirikligimizga xos va hayotimizga tegishli bo'lgan narsa. Ammo ko'pchilik insonlar ongida an'anaviy mavjud boigan fikrga ko'ra, konflikt - bu oddiy hoi emas, u ziddiyatli hoi, undan o'zini muhofaza qilish kerak, undan o'zini tortish zarur, konfliktdan «qochish» kerak. Insonlararo, oilalar ichida bo'layotgan konfliktlardan o'zini tortishni bizga bolaligimizdan o'rgatib kelishadi. Konflikt oldida, konfliktdan qo'rqish hollari ko'pchilikni tashkil qiladi. Bizni bolaligimizdan konfliktli vaziyatlardan o'zimizni tortishga, «janjalkash» bo'lmashlikka, nizolarni keltirib chiqargan va unda qatnashgan odamlardan o'zimizni tortib yurishga o'rgatishadi. Konflikt - bizning milliy mentalitetimizda «yaxshi» bo'lmanan holat va vaziyatga tenglashtiriladi. Biz konflikt bo'lganidan ko'ra, konflikt bo'lmananini afzalroq ko'ramiz. Konflikt ni hayotimizdagi eng «yomon» davr sifatida baholaymiz. Undan uzoqroqda yashash ko'nikmalar bizning tafakkurimizga chuqur singdiriladi. Konflikt har kunlik hayot tarzimizga xos bo'lgan voqelik bo'lishiga qaramay, insonlar ko'pincha ulami noto'g'ri talqin etadi hamda «anglangan» holda qabul

qilishga o'rgatilmaydi. Biz qachonki konfliktli vaziyatga tushib qolganimizdagina konfliktli vaziyatni tahlil qilishga urinamiz. Ammo har doim ham bizdag'i bilim va ko'nikmalar konfliktli vaziyatdan chiqib ketish uchun yetarli bo'lmaydi. Chunki bu borada bizning hayotiy tajribamiz kamm va biz konfliktlar yechimi bo'yicha maxsus bilimlami egallamaganmiz. Tabiiyki, har bir inson konfliktlami tushunadi, ulaming mohiyatini to'g'ri anglaydi hamda ulami yenga oladi, deyish xato. Xorij mamlakatlarida yuqori va quyi bosqichdagi barcha rahbar xodimlar, biznes menejerlaming barchasi konfliktlar yechimi bo'yicha ta'lif oladilar.

Pedagogik konfliktologiya fanining vazifalari: gumanitar fanlar sohasi sifatida uning obyekti va predmetidagi izlanish hamda asosiy kategoriyalari haqida talabalarda nazariy tasawurlami shakllantirish; pedagogik faoliyatning insonparvarlikka yo'altirilganligin ochib berish; konfliktlami bartaraf etish, oldini olish, yechimini topishninasosiy shakl va usullarini egallah; pedagogik konfliktning qonuniyatları va faktorlari haqida toclitasawumi shakllantirish; pedagogik konfliktli vaziyatlami muvofiqlashtirish, tahlil qilisva tushunish, umumiy ilmiy yondashishni aniqlay bilishdan iborat. Fanning ta'lindagi o'mi - pedagogik jarayon keng qamrovli bo'lib, unda turli pedagogik konfliktlaming yuzaga kelishi tabiiy hodisadir. Pedagogik jarayonda yuz beradigan konfliktlar olziga xos xususiyatlar, rivojlanish darajasi va bosqichlari, chegarasiga ega. Bo'lajak pedagoglarda pedagogik konfliktlami oldini olish va bartaraf etish ko'nikma va malakalarini shakllantirishda mazkur fan alohida ahamiyatga ega. Pedagogik konfliktologiya a fani bo'yicha o'qituvchi kasbga oid nazariy va amaliy bilimlarni egallashi, pedagogik jarnoa bilan doimiy muloqotda bo'lish ijobjiy natijalar beradi. Binobarin, bunday muhitda o'zaro fikr almashish, shaxsiy mulohazalami boshqalar tomonidan bildirilayotgan qarashlar bilan taqqoslab, ulaming to'g'riiigi va haqqoniyligiga ishonch hosil qilish, mavjud bilimlarni yanada

boyitish, xato va kamchiliklami aniqlash hamda ulami bartaraf etish yo'llarini topish imkoniyati mavjud. Hozirgi zamon fan va texnikasi jadal sur'atda rivojlanayotgan, zamonaviy axborot texnologiyalarining salmog'i keskin oshayotgan bir davrda o'qituvchi pedagogik mahoratini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Agar, ilgari fanning biror sohasida ro'y berayotgan y ink kashfiyat qariyb o'n besh yillik samarali va kishi zo'rg'a ishonadigan voqeа hisoblangan bo'lsa, hozir heir yili, hatto, har oyda fan, texnika sohasida yangi kashfiyotlar yaratilmoqda, bilimlaming ilgari noma'lum bo'lgan yangi yo'nalishlari maydonga kelmoqda. Kishilarda bilimga bo'lgan intilish beqiyos darajada o'sib bormoqda. Pedagogik konfliktologiy a fani ixtisoslik fani hisoblanib, umng rivojlanishi qator pedagogik, xususan, pedagogika, pedagogika nazanyasi, oila pedagogikasi, ijtimoiy pedagogika, pedagogik texnologiya, pedagogik mahorat, umumiy psixologiya, yosh va pedagogik psixologiya, psixologik konfliktologiya, pedagogika tarixi, qiyosiy pedagogika, shuningdek anatomiya va fiziologiya, psixologiya, sotsiologiya, falsafa, tarix, huquq va boshqa ijtimoiy fanlar bilan yaqin aloqadorlikda o'rganiladi va shu fanlar bilan birgalikda hamkorlikda ish olib boradi.

Pedagogik konfliktologiya fanining ilmiy-tadqiqot metodlari Har qanday fan, fan sifatida o'zining ilmiy-tadqiqot usullariga ega. Bu usullar orqali o'z mazmunini boyitib, yangilab boradi. Fan mazmunini boyitish vayangilash maqsadida mavjud kasbiy, pedago gik-psixologik. hodisa va jarayonlarni, uning maqsadi va vazifalariga niuvofiq keladigan tadqiqot usullari bilan o'rganadi. Ilmiy pedagogik izlanish jarayonlarini amalga oshirishda quyitiagi ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalilanadi: kuzatish, o'z-o'zini tahlil qilish, og'zaki vayozma so'rov, anketalashtirish, test so'rovi, ishbilarmonlik o'yr1an va boshqalar. Pedagogik konfliktologiya bugungi kunda mnstaqil fan sifatida shakllanib bormoqda. Fan nuqtayi nazaridan ilk marotaba konfliktni ilmiy oorganish davlat hokimiyati, jamiyat

a'zolari hamda alohida ijtimoiy guruhlar orasidagi ziddiyatlami o'rganishdan boshlangan. Keyinchalik ilmiy qiziqishlami ortib borishi bilan ijtimoiy, siyosiy, milliy, guruhlararo va shaxslararo konfliktlar fan obyektiga aylana boshladи. Konfliktologiya XX asming ikkinchi yarmidan boshlab fan sifatida shakllana boshlagandan so'ng, jamiyatda konfliktning tutgan o'rnni o'rganish jamiyat hayotida juda muhimligi sababli, etnik va guruhlararo konfliktli munosabatlami o'rganish, sistematik asosda ulami tahlil qilish va o'zaro toғ'ri yechimga kelish zaruriy ehtiyojlardan biriga aylandi. Mustaqillikning dastlabki yillarida konfliktologiyaga oid bilimlar fanlararo paradigmasining konturlari belgilanib, ular asosi sifatida tizimli evolyutsion yondashuv olindi. So'nggi paytda konfliktologiya tarmoqlarini tashkil qilgan xususiy (alohida) konfliktologiya fanlarida bu fan muammosining ko'p sonli qiziqarli va muhim tadqiqotlari o'tkazilmoqda. Ta'lim sohasining ilmiy-nazariy va amaliy muammolarini tadqiq etish masalalari bo'yicha pedagog va psixolog olimlardan Y.I. Stepanov, S.V. Banikina, A.N. Samarin, V.N. Shalenko, V. Sheynov, A.Ya. Ansupov, I.A. Shipilov, N.I. Leonov, V.N. Kudiyavtsev, V.I. Juravlev, D.V. Ivchenko, N.V. Samsonova, V.N. Vasilev, B.I. Xasanov, V.V. Bazelyuk, Z.Z. Drinka, A. Ya. Clementeva, S. V. Baш kina, G.S. Berejnaya, A.A. Bodalev, N.U. Zaichenko, M.M. Ribakova, A.K. Markova, M. Mitina N.G. Moskvina va V.V. Drujinin o'zining tadqiqot ishlarida turli xil soha mutaxassislarining konfliktolo gik madaniyatini shakllantirish yoclari va usullari har tomonlama o'rganilgan. Umumta'lim muassasasi mutaxassislarining kompetentUglung konfliktologik (chuqur bilimga ega boclish) muammosi yaqinyaqindan maxsus psixologik-pedagogik izlanishlar mazinuniga aylandi1. Psixologiya fanlari doktori, professor Boris Iosifovich Xasan muammoli kompetentlikning mohiyatini ko'rib chiqqan; faylasuf B.I. Juravlyov, tibbiyot fanlari doktori D.V. Ivchenko hamda pedagogika fanlari doktori N. V. Samsonova turli xil soha mutaxassislarining konfliktologik madaniyatini

shakllantirish yo'llari va usullarini ishlab chiqgan; pedagog va psixolog olimlar M.L. Maksimovna va A.K. Markov o'qituvchi shaxsining imkoniyatlarini pedagogik jamoadagi muammolar xususiyatiga ta'sirini olganib chiqgan; A.A. Bordalyov va N.U. Zaychenko konstruktiv muloqotni muammoli vaziyatlami hal etish usuli sifatida o'rgangan; Z.Z.Drinka, V.V.Bazelyuk va A.Ya. Klementeva bo'lajak o'qituvchilaming konfliktologik tayyorgarligini konseptual (yangi) asosini aniqlagan; shuningdek S.V.Banikina, G.S.Berejnaya, N.G.Moskvina pedagogning konfliktologik kompetentligini shakllantirish usullarini ochib bergen. Umumta'lim mакtab o'qituvchilari konfliktologik muammolar bo'yicha ilmiy adabiyotlarda mavjud ishlanmalar sinf rahbarlarining konfliktologik chuqur bilimga egalik qonuniyatlarini yaratish uchun nazariy va amaliy qiziqishga ega boishlari lozim. Professional kompetentlik (chuqur bilimga egalik) borasida falsafa fanlari doktori, professor Viktor Maksimovich Shepel ishlari diqqatga sazovor. Muallif turli jamoalaming o'zaro munosabatlarini o'rganib, har qanday darajadagi jamoat rahbari o'zaro turli shaxslar orasidagi tortishuvlami bartaraf etishni bilishi, mojaroli vaziyatlami hal qila olish boyicha zaruriy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim, deya ta'kidlaydi. Mamlakat konfliktologiyasi rivojiga ruhshunoslardan A.Ya.Ansupov hamda I.A. Shipilov katta hissa qo'shishgan. Mualliflar konfliktologiyaning nazariy asoslari va ulaming amaliy qo'1amlichini ocrangan holda turli xil soha vakillarining o'zaro munosabatlari orasidagi mojarolar xususiyatlarini va paydo bo'lish sabablarini o'rganib, shaxslararo va turli xil shaxslar o'rtasidagi mojarolami hal etish hamda ulardan ogohlantirishning bir qator uslublarini belgilab benshdi. Pedagogik konfliktologiya rivojida ruhshunos M.M. Ribakova tadqiqotlari katta ahamiyat kasb etadi. Muallif pedagogik jamoa ichida turli xil munosabatlami o'rganib, ko'rinishidagi muammolarga katta ahamiyat qaratadi, mакtab hayotidan mojaroli vaziyatlami misol qilib ko'rsatadi hamda

ulaniiig asosiy sabablarini aniqlab beradi. M.M. Ribakova mazkur guruh munosabatlarini tahlil qilib, barcha mojarolaming asosiy sababchisi O'qituvchining o'zi ekanligini ta'kidlaydi. Shu munosabat bilan, o'quvchilar bilan normal munosabatni yo'nga qolyish uchun pedagog mojarolaming oldini olish va ulami bartaraf etish bo'yicha bilim va ko'nikmalaiga ega bo'lishi lozim. Pedagogik konfliktologiya rivojiga S.V.Banikina tadqiqotlarga sezilarli hissa qolshdi. Muallif mакtab jamoasidagi mojarolaming vujudga kelishidagi umumiyligi va o'ziga xos sabablarini ajratib berdi, pedagogik mojarolaming topologiyasini ishlab chiqdi hamda o'quv tarbiya jarayonida ishtirokchilar orasidagi turli xil mojarolami hal etish bo'yicha tavsiyalami taqdim etdi. S.V.Bakinova ocz ishlarida pedagog uchun konfliktologik bilim va ko'mkmalarga ega bo'lishning muhimligiga katta e'tibor qaratadi. Pedagogik konfliktologiya ilmiy-amaliy qiziqish pasaymaganligi bolyicha Rossiya ta'limining zamonaviy bosqichlari sohasida uning nihoyatda dolzarbligini ko'rsatmoqda. So'nggi vaqtarda pedagogik konfliktologiya sohasidagi dissertatsiya ishlari miqdori sezilarli ortdi. Tadqiqotchilar maktabgacha ta'lim muassasasi jamoasidagi mojarolami (I.V. Safranova); katta sinf o'quvchilari orasidagi bahs va tortishuvlami (G.Y. Grigoryeva, A.A. Kuzina); umumta'lim mакtablan pedagoglarining konfliktologik bilimlarini shakllantirish bo'icha muammolami olganishdi. Shu bilan birga, 1990-2000-yillardagi nashr etilgan psixologikpedagogik adabiyotlarning yuzdan ortiq birligi kontent-tahlili muammolarini hal etish masalalarining asosiy qismi umumiyligi konfliktologiya masalalarini hal etishga qaratilganini ko'rsatdi. Pedagogning konfliktologik qobiliyatiga bor-yo'g'i 8 foiz ish bag'ishlangan. Bunda sinf rahbarining konfliktologik chuqur bilimga ega bo'lishi ularning birontasida ham ko'rsatib berilmagan. O 'zbekiston Respublikasida yoshlami har tomonlama komil inson qilib tarbiyalash, konfliktologik kayfiyat va xususiyatlarni o'rganish bo'yicha o'qituvchinmg kasbiy,

axloqiy fazilatlarini shakllantirish, rivojlantirishning ilmiy-nazariy masalalari bo'yicha pedagog va psixolog olimlardan O. Musurmonova, S. Nishonova, H.Rashidov, G.To'ychiyeva, E. Asadova, G.Berdiyev, V.Karimova, E.G'oziyev, N.Egamberdiyeva, R.Z.Jumayev, X.Ibragimov, M.Otaqulov, B.Xodjayev, P.Ergashev, M.T.Axmedova, R.Musurmonov singari ko'plab olimlaming ilmiy kuzatishlari shular jumlasiga kiradi. Pedagogik konfliktlogiya fanini o'rganishda «konfiikt», «ijtimoiy konfiikt», «pedagogik konflikt» tushunchalari pedagogik konfliktlogiya fanini to'ldirib boradi va uning kelib chiqish mohiyatini ochib beradi. Pedagogik konfliktlogiya fanini o'rganishda «konflikt», «ijtimoiy konfiikt», «pedagogik konfiikt» tushunchalari fanning asosiy ildizlari bo'lib hizmat qiladi. Shu olrinda «konflikt», «ijtimoiy konflikt», «pedagogik konflikt» tushunchalariga alohida to'xtalib o'tamiz. «Konflikt nima?» yoki aniqroq aytadigan bo'Msa, konflikt qanday o'zini namoyon etadi? - degan savolga ko'pchilik, konflikt - bu odamlaming o'zaro urishishi, janjallahishi, kuch ishlatib bir-biri bilan to'qnashishi, so'z aytishish, birovlami ayplash, haqorat qilish, gtazablanish; jahl bilan gaplashish, kesatish, birovlami urit'turtish, do'q qilish, qo'rqtishga urinish, u qilaman yo.bu qilamaji deb tahdid qilish, kesatish, to'g'ri so'zlar mazmunini buzib talqin qilish, birovlaming orqasidan gapirish, qasd qilish, birovlarga jismoniy zo'ravonlik o'tkazish, zo'rlash, shantaj, birovlami oyog'idan chalish, kansitish, odamlar ustidan kulish, guruh-guruh bo'lib birovlarni yakkalab qo'yish, dilsiyohlik, xafagarchilik, nafrat va qasos, mensimaslik, kibrli munosabat bildirish, cTzini boshqalardan ustun qo'yish, keksaqlash, nafsoniyatga tegadigan amallar va so'zlar ishlatish, birovning har bir so'zi va amalidan yomonlik qidirish va boshqa shirnga ocxshash vaziyatlami ta'kidlab aytishadi. Mana shu insonlararo munosabatlarda uchrab turadigan barcha salbiy holatlar aslida konfliktlaming turli ko'rinishlari, odamlar o'rtasidagi ziddiyatlaming turli namoyon boiish holatlariga kiradi. Konfliktni tushunishga

bo'lgan ikki xil yondashuv mavjud. Ulardan birinchisi, konfliktni ancha keng - tiaflar, fikrlar, kuchlar to'qnashuvi deb ta'riflaydi. Bunday yondashuvga ko'ra konfliktlar jonsiz tabiatda ham yuz berishi mumkin. «Konflikt» va «ziddiyat» tushunchalari amalda hajmiga ko'ra qiyoslanuvchan bo'lib qoladilar. Ikkinci yondashuv, konfliktni opponentlar yoki o'zaro ta'sir subyektlarining bir-biriga zid (teskari) yo'llangan maqsadlari, manfaatlan, pozitsiyalari, fikrlari yoki qarashlarining to'qnashuvi deb tushuniladi. Konflikt tushunchasiga ikki prinsipial ta'rif: birinchisi - konfliktni keng ma'noda tushunisini toraytirib, konfliktlar faqat o'zaro sotsial harakat (ta'sir)da yuzaga keladi deya hisoblash; ikkinchi ta'rif - konflikt mohiyatiga tegishli. Konflikt moliiyati faqat ziddiyat yuzaga kelishida, manfaatlar to'qnashuvida emas, balki yuzaga kelgan ziddiyatni hal qilish usulida, o'zaro sotsial ta'sir (harakat) subyektlarining qarama-qarshiligidida. Konflikt mohiyati, umuman, konflikt subyektlari o'zaro qarama-qarshiligidida bo'ladi. Tushunchaning toliq ta'rifi: konflikt - o'zaro ta'sir (harakat) jarayonida paydo bo'ladigan jiddiy ziddiyatlami hal qilishning eng keskin usuli bo'lib, konflikt subyektlari qarama-qarshiligidan iborat, odatda, salbiy his-kechinmalar (emotsiyalar) bilan kechadi1. Ijtimoiy (sotsial) konflikt - bu: 1) ochiq qarama-qarshilik, ikki yo undan ortiq subyektlar - sotsial oczaro ta'sir ishtirokchilarining to'qnashuvi bo'lib, buning sa bablari sotsial konflikt ishtirokchilarining o'zaro zid manfaatlari va qadriyatlaridir; 2) sotsial ziddiyatlaming o'ta keskinlashgan holati, turli sotsial birliklar 'sinflar, millatlar, davlatlar, turli sotsial guruqlar, sotsial institut kabilar manfaatlarining ular manfaatlari, maqsadlari, taraqqiyot tendensiyalarining qarama-qarsluligi yoki jiddiy farq qilishi tufayli kelib chiqadi; 3) sotsial subyektlaming obyektiv ravishda farqlangan manfaatlari, maqsadlari, taraqqiyot tendensiyalarining oshkora yoki yashirin kurashi, to'qnash kelishi, sotsial kuchlaming mavjud ijtimoiy tartibga qarshilik ko'rsatish asnosida bevosita yoki bilvosita to'qnashuvi,

yangi sotsial birdamlikka tomon tarixiy intilishning alohida shalkli; й) konfliktli o'zaro ta'sir subyektlari o'zaro zid bo'lgan yoki bir-biririi istisno etadigan qandaydir o'z maqsadlarini ko'zlagan vaziyat. Ijtimoiy konfliktlar konfliktologiyaning markaziy obyekti, ya'ni yadrosi hisoblanib, u esa shaxslararo konfliktlar hisoblanadi. Ijtimoiy (sotsial) konflikt sabablari: 1) moddiy resurslar; 2) muhim hayotiy ko'rsatma (ustanovka)lar; 3) hokimiyat vakolatlari; 4) ijtimoiy (sotsial) tuzilmadagi maqom-vazifaga oid farqlar; 5) shaxsga doir (emotsional-psixologik) farqlar va hokazo. Konfliktga o'zaro sotsial ta'sir (harakat)ning turlari sifatida uning subyektlaii va ishtirokchilari bo'lib alohida indiyidlar, katta va kichik sotsial guruqlar va taslikilotlar keladilar. Konfliktli qarama-qarshilik - tomonlaming o'zaro kurashi, ya'ni bir-biriga qarshi qaratilgan harakatlaridir. Sotsial konflikt asosida faqat sabablari o'zaro tubdan zid bo'lgan manfaat, ehtiyoj va qadriyatlar bo'lgan ziddiyatlar yotadi. Bu kabi ziddiyatlar tomonlaming ochiqdan-ochiq kurashi real qarama-rqarshilikka o'tib ketadi. Koxiflikta to'qnashuvlamning kuch ishlatalidigan va kuch ishlatilmaydigan shakllari mavjud.

#### 5. Mavzu: Tarbiyani shakllanishida odob-axloq masalalari

##### Reja:

1. Odob-axloq normalari.
2. Talabalarning xulq madaniyatini shakllantirishda ijobjiy ta'sir etadigan vositalar.

1. Talaba-yoshlarni ma'naviy qadriyatlar ruhida tarbiyalash eng muhim vazifalardan bo'lib qoldi. Chunki davlatning asosini ma'naviyat tashkil etadi, ma'naviyatiga e'tibor bermagan davlatning kelajagi ham bo'lmaydi. Shuni aytish kerakki, insonning ma'naviyati uning axloqi, odobi, xulqi, madaniyatidan tashkil topadi. Axloq esa aqliy, huquqiy, diniy, iqtisodiy va siyosiy bilimlar zamirida shakllanadi. Mazkur bilimlar o'z navbatida inson axloqiy sifatlarining kamol topib, boyib borishiga olib keladi. Demak, axloq insonning ijobjiy sifatlari majmuidir. Odob va axloq bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Odob alohida bir shaxsning muayyan bir xislatini ifodalovchi axloqiy kategoriyadir. Odob – bu har bir insonning jamoa bilan bo'lgan muloqotida hamda yurishturishida o'zini tuta bilishini ko'rsatadi. Axloq – jamiyatda qabul qilingan jamoatchilik fikri bilan ma'qullangan xulq odob normalari. Madaniyat – jamiyatning unda yashovchi fuqarolarning faoliyati jarayonida to'plangan barcha ijobjiy, aqliy yutuqlar majmuasi. Ma'naviyat – inson ongini aks ettiruvchi barcha ijobjiy intellektual fazilatlar majmuasidir. Mustaqil fikrlash – bu fahmlash, anglash, fikr yuritishdan boshlanadi. Tafakkur – inson ongidagi mavjud ilmiy-hayotiy bilimlar majmularining keragini saralab olish va amaliyotga qo'llash. Ijodkor pedagog talaba-yoshlarning xulq madaniyatini shakllantirishda ma'naviy qadriyatlarning imkoniyatlaridan keng va samarali foydalanadi. Pedagog ijodkorligi natijasida talaba-yoshlar ajdodlar tarixi, adabiyoti, san'ati, an'analarini va urf-odatlari haqida chuqr bilim oladi. Talabalarning ma'naviy merosga bo'lgan qiziqishi oshadi.

Dars jarayonida samimiy, sog'lom ma'naviy muhit yaratiladi. Ma'naviy meros manbalaridan samarali foydalanish natijasida talabalarning xulq madaniyati kamol topadi. Talabavoshlarning xulq madaniyatni shakllantirish, birinchidan, dars jarayonining muvaffaqiyatli bo'lishiga, ikkinchidan ta'lim mazmuniga va pedagog-talaba hamkorlik faoliyatiga bog'liq. Hamkorlikdagi faoliyat ijodkorlikni, mas'uliyatni, faollikni talab qiladi. Bunda har bir darsdan pedagog maqsadni aniq ko'ra bilishi, amalga oshiriladigan vazifalarni to'g'ri belgilab olishi lozim. Dars jarayonidagi bilimlar mazmunining ilmiyligi, izchilligi va tarbiyaviy xarakteri, qiziqarliligi talabalarda ta'lim va tarbiyaviy tomondan o'rganiladigan bilinga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi. Ularning bilimini kengaytirish, yuksak xulqli bo'lish kabi ko'nikma va malakalarini shakllantiradi. Albatta, bunda dars shakllarini tanlashda mavzuning mohiyatiga alohida e'tibor beriladi. Masalan, kasb-hunar kollejlariada adabiyot darsi an'anaviy dars yoki munozara tarzida uyuştirilsa, mutaxassislikka oid darslar seminar, yoki munozara tarzida, chet tili darslari o'yin yoki savol-javoblar, suhbat darslari tarzida uyuştirilishi mumkin. Barcha shakldagi dars jarayonlarida talabalar xulq, madaniyatini shakllantirish samaradorligini oshirish uchun savol-javob qilish, munozarali vaziyat paydo qilish, mustaqil ishslash, turli o'yinlardan foydalanish kabi usullardan foydalanish muhimdir. Talabalarning ma'naviy sifatlarini shakllantirishda ularga o'tmish adabiyoti, tarix, milliy urf-odatlar, an'analar haqida bilim berish pedagogdan doimo faollik bilan munosabatda bo'lishni talab qiladi. Talabaning ma'naviy ehtiyojini qondirish, qiziqishini o'stirish mustaqil ishlar, har xil ijodiy ishlar (insho, referat va boshqa) orqali amalga oshiriladi. Mustaqil ishlar pedagog va talaba faoliyatining uzviy bog'langan tomonlaridir. Mustaqil va ijodiy ishlarda talaba o'z ustida mehnat qiladi, ijodiy izlanadi, o'z nuqtai nazari, qarashlarini shakllantirish bilan birga dunyoqarashi va manaviy saviyasini namoyon etadi.

Mustaqil ishslash ko'proq darslik ustida ishslash, manbalarning mazmunini tahlil etish, ma'ruza, referat, konsept tayyorlash, ijodiy insho yozish (chet tilida ham) kartochkalarga yozma javob berish, turli jadvallar, diagrammalar, sxemalar tuzishni taqozo etadi. Bularning barchasi talabadan izlanuvchanlikni tatab qiladi. Mustaqil ishlar, seminarlarni tashkil etishda 'xil manbalarga asoslanadi. a) Darslik materiallariga; b) Ma'naviy meros hisoblangan xalq og'zaki ijodi, diniy manbalar, mumtoz adabiyot va boshqalar; v) Ommaviy axborot vositalari materiallariga (jurnal, gazetalar, radio eshittirishlar, oynai jahon ko'rsatuvlari); g) Hayotiy misollarga (oilaviy-maishiy an'analar, urf-odatlar, rasm-rusumlar, ma'naviy qadriyatlar va h.k.). Og'zaki mustaqil ish turlari va o'rganilayotgan mavzuning mohiyatini talabalar amaliy faoliyatida mustahkamlashtirishga yo'naltirilgan ba'zi bir yozma shakldagi mustaqil ishlar (insho, savollargayozmajavobtopish,jadval,diagramma,kartochkalarni to'ldirish)dan aralash dars shaklida keng foydalanish yaxshi samara beradi. Dars jarayonida pedagog ma'naviy meros manbalaridan ustalik bilan foydalanishi, ularning ta'lim va tarbiyaviy ta'sirini hisobga olishi, darsni "qanday tarzda tashkil etilishidan qat'iy nazar (o'yin darsi, munozara darsi, sinov darsi va h.k.) uni uyuştirishda faol, ijodkor, qat'iy bo'lishi, ma'naviy merosni yaxshi bilishi va uni amaliyotga tatbiq qila olishi yaxshi. Talabalarning og'zaki mustaqil tayyorgarligi asosida noan'anaviy dars shakllarini uyuştirish ham xulq madaniyatini shakllantirishning samarali usullaridan hisoblanadi. Bunda turli mavzulardagi bahsmunozara darslarini o'tkazish mumkin. Bunday darslarga tayyorgarlik ko'rish jarayonida talaba keng hajmdagi ma'naviy manbalarga, badiiy asarlar, xalq og'zaki ijodi namunalariga, pandnomalar, diniy manbalar, sharq allomalari hayotiga bag'ishlangan ilmiy-ommabop, avtobiografik asarlar, matbuot va ommaviy axborot materiallariga murojaat qiladi. Natijada muammoli savollarga javob topadi, ajdodlar ma'naviy merosi bilan tanishishga tuyassar bo'ladi. Bunday darslar

yeterli tayyorgarlik, mahorat va keng ko'lamli bilim, tajriba, mustaqillikka asoslangan holda tashkil etilsa, talabaning xulq madaniyatini shakllantiruvchi quyidagi ijobiy natijalarni beradi:

- dars davomida talabaning erkinligi, mustaqilligi, faolligiga erishiladi;

- talabalar jamoa fikriga tayanishga, uni hurmat qilishga o'rganadilar, bu bilan ularda o'zaro hurmat, muloqot madaniyatni tarbiyalana boradi; U talabalar o'z fikrmulohazalarini, qarashlarini himoya qilish, ularni boshqalarga yetkazish mahoratini egallaydilar;

- talabalarda u yoki bu adibning qarashlarini, xalq pedagogikasi, hayot tajribasi asosida ko'tarib chiqilgan muammolar mohiyatini davr bilan bog'lash, atrof-muhit talabi, imkoniyati asoslarini haqqoniy baholash malakasi shakllanadi;

- talabalarning o'zbek xalqining ma'naviy turmush tarzi haqidagi bilim darajasi ortadi, axloqiy - ma'naviy sifatlari shakllanadi;

- har bir talabada o'z-o'ziga talabchanlik, o'z-o'zini nazorat qilish hissi ortadi, o'z ustida ishslashga, o'zini anglashga e'tibor kuchayadi.

Bunday muvaffaqiyatli natija sinov darslari, yakuniy darslarda namoyon bo'ladi. Talaba xulq madaniyatini asosiy mezonlari: insonparvarlik, mehnatsevarlik, milliy g'urur, vatanparvarlik, mehr-muhabbat, iyomon, ijodkorlik, faollik, tashabbuskorlik, o'z-o'zini nazorat qilish va o'z-o'zini baholashni talab etadi. Bu talab talabaning Vatan, ota-onas, do'stlari, jamoa oldidagi burchi, vazifalariga, ta'lim-tarbiya jarayonida namoyon bo'ladigan faollik, ijodkorlik xususiyatlariga munosabati orqali amalga oshiriladi. O'z bilim, hatti-harakati, atrof-muhitga munosabatini nazorat qilish, o'z-o'zini baholashni tashkil etish talabaning yozma ijodiy faoliyati orqali samarali namoyon bo'ladi. Ta'limning samarali shakllari, an'anaviy va noan'anaviy dars turlari, vositalari va usullaridan, jumladan, ta'lim jarayonida talabalarning turli ijodiy yozma ishlari: insho,

referat, konspekt, ma'ruza kabi turlaridan keng foydalanish zarur. Dars jarayonida talabalarning yozma ijodiy ishlaridan samarali foydalanish uchun qator pedagogik shartlarga amal qilish zarur. Bunda: - mustaqil ijodiy ishlarning turlari, mavzusi, xarakteri va unga qo'yiladigan talablar aniq belgilab berilishi; - chet tilli, adapiyot va boshqa darslarda mustaqil yozma ishlarni uyushtirish va ularni amalga oshirish uchun qisqa uslubiy tafsiliyalar tayyorlash; - pedagog ma'naviy sifatlarini, ma'naviy tarixi, qadriyatlar mazmuni va xarakteri haqida yetarlichcha bilimga ega bo'lishi, ularning tarbiyaviy imkoniyatlaridan samarali foydalanish yo'llarini bilishi; - pedagog ham, talaba ham darslik va qo'shimcha manbalar bilan mustaqil ishlashi; - pedagog ta'limni tashkil etishning an'anaviy va noan'anaviy shakllari, ularning tarbiyaviy imkoniyatlari, ish natijalari haqida to'liq pedagogik bilim bilan qurollangan bo'lishi; - pedagog har bir dars mavzusi, dars shakli, usul va vositalarini talaba xulq madaniyatining shakllariga ta'sirini oldindan ko'ra bilishi; - yozma ijodiy ishlar talabalarning ixtiyoriligi, qodkorligi, qiziqishi asosida amalga oshirilishi lozim. Dars jarayonida yaratilgan ma'naviy muhit talabalarda ijodkorlik, erkinlik, faollik, tasavvur boyligi va bilimga bo'lgan qiziqishni shakllantiradi. Dars jarayonida ma'naviy merosimiz: o'tmish allomalarining fikrqrashlari, odob-axloq, to'g'risidagi turli nukoyalari, xalq og'zaki ijodidan turli rivoyatlar, maqollardan foydalanish talabaga ma'naviyatimiz xazinasi haqida puxta bilim olish, egallangan bilimni namunali namoyon etish, dastur va darslik materiallarini hayotiy tajribadan olingan misollar bilan mazmunan to'ldirish, ruhiy holatlar, tasavvur, idrok, hissini bayon etish, hozirjavoblik, ta'sirchanligi bilan farqlanadi.

## **2.Talabalarining xulq madaniyatini shakllantirishda ijobiy ta'sir etadigan vositalar:**

a) inson hissiyoti bilan bog'liq, uning idroki, tafakkuri, tasavvuri mahsuli bo'lgan madaniy estetik manbalar (adabiyotlar, tasviriy san'at asarlari, musiqa, ilmfan, diniy manbalar va h.k); b) illyustratsiya materiallari, madaniy meros sifatida qadrlanadigan geografik xaritalar, (Al-Xorazmiy yaratgan xarita), matematik-astronomiya jadvallari (Beruniy, Ulug'bek), miniyaturlar (Behzod), xalq amaliy san'ati namunalari, milliy kiyimlar va h.k; v) tabiiy o'lkashunoslik materiallari: tarixiy me'morchilik obidalari, muqaddas qadamjolar, ma'rifiy maskanlar, uy-muzeylelar va h.k; g) obratzla-ta'sirchan ifoda vositalari (ma'naviy meros haqida diafilm, kinofilm, sahna asarlari, radio eshittirishlari, oynai-jahon ko'rsatuvlari, matbuot materiallari); d) o'quv-tarbiyaviy, ijodiy ko'rgazmali vositalar, talabalar yoki pedagog tomonidan tayyorlanadigan jadvallar, har xil ijodiy ishlar, referat, ma'ruza, konspekt, kichik-kichik poetik asarlar, manzaralar tasviri va h.k. Bu vositalardan dars jarayonida unumli foydalanish, noan'anaviy dars shakllarining amaliyatga keng joriy etish imkoniyatini yaratadi, talabalarning darsga qiziqishini oshiradi, o'rganiladigan mavzularning mohiyatini chuqur anglab yetish imkonini beradi, mustaqil fikrlash, og'zaki va nutqni boyitish kabilarni shakllantiradi. Mustaqil ishda talaba o'z ustida mehnat qiladi, ijodiy izlanadi, o'z nuqtai nazari, qarashlarini shakllantiradi, dunyoqarashi va ma'naviy saviyasini namoyon etadi. Dars jarayonida ma'naviy meros manbalaridan foydalanish natijasida talabalarda ma'naviy merosga muhabbat, sadoqat, milliy o'zligini anglash, milliy g'urur shakllanib boradi. Bu esa, o'z navbatida talabalarda xulq madaniyatini shakllantirishga zamin bo'lib xizmat qiladi. Shunday qilib, dars talabalarining xulq madaniyatini shakllantirishning muhim shakli bo'lib, ma'naviy merosdan foydalanishda ta'lim-tarbiya tizimining asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Ta'lim-tarbiya jarayonida ma'naviy

meros manbalaridan foydalanish darsni samarali va qiziqarli tashkil etish, turli ko'rgazmali qurollardan, darsda noan'anaviy vositalardan foydalanish talabalarnda xulq madaniyatini shakllantirishga ta'sir etuvchi muhim omillar bo'lib hisoblanadi. Albatta bunda pedagogning darsni tashkil etishi ham muhim ahamiyatga egadir. Talabalar jamoalarini tashkil qilish pedagogdan turli-tuman usul va vositalardan mahorat bilan foydalanishni talab qiladi: 1. Pedagog jamoa a'zolarini yangi sharoitga moslashtirish jarayonida ularga ishonch, hurmat, xushmuomalalik, talablarni to'g'ri qo'ya bilish, shu bilan birga o'quvchini tushunish va eshita bilish mahoratiga ega bo'lishi kerak. 2. Talabalar jamoasidagi etakchi kuch-tayanch o'zagini tanlash. 3. Jamoa a'zolarining har birining kuchiga, qobiliyatiga qarab topshiriqlar berish. 4. Jamoada yangi an'ana, qonun-qoidalarning dastlabki kurtagini yaratish va unga amal qilish. 5. jamoa istiqbolini davr talabi bilan moslashgan holda belgilash talab qilinadi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, o'qib-uqqan, chuqur odob-axloqli,adolat va adolatsizlikning farqini tushungan inson qaysi yo'ldan borayotganligiga tushunib yetadi. Yurtiga nisbatan mehr, g'urur paydo bo'ladi. Natijada u ham Vatanning ravnaqiga munosib farzand sifatida o'z hissasini qo'shadi. Ajdodlarimiz yashab o'tgan, meni o'z bag'riga olib ulg'aytirayotgan Vatan uchun men nima qila oldim, meni go'dakligimdan yedirib-ichirgan ota-onam, ona zamin, qonlari tomirimda jo'sh urayotgan ajdodlarimiz sha'niga munosib ishlar qilayapmanmi, degan savollarini o'z vijdoni oldiga ko'ndalang qo'yadi. Demak, har bir talaba qaysi mutaxassis egasi bo'lishidan qatiy nazar Vatanga muhabbatli, iymonli, adolatparvar bo'lishi muhimdir. Bunday fazilatlarni o'zida kasb etgan yoshlar qanday vaziyatda bo'limasin hamma vaqt o'ziga to'g'ri yo'l tanlay oladi. Mustaqil jamiyatimizning kamol topishida o'zlarining chuqur bilimlari va adolatli hatti-harakatlarini ko'nikmaga aylantirishi bunday nufuzli talaba yoshlarning asosiy vazifalaridir.

## 6-Mavzu: Estetik tarbiya

### Reja:

1. Estetik tarbiyaning tarkibiy qisimlari.
2. Kichik maktab o'quvchilarining estetik tarkiblari.
3. Estetik tarbiyaning natijalari.

1. Antropologlarning ta'kidlashicha, go'zallik va totuvlikka ehtiyoj odamlarga xosdir. Ushbu komponentsiz dunyoning yaxlit rasmini, shuningdek, shaxsnинг ijodiy faoliyatini shakllantirish mumkin emas. Qadim zamonlardan beri donishmandlar bolalarni mehr va go'zallik muhitida tarbiyalashni maslahat berishgan. Yigitlar uchun go'zallik va jismoniy rivojlanishni idrok etish ustuvor, yoshlar uchun - turli xil san'at turlarini o'rganish va ulardan zavqlanish sifatida qabul qilindi. Shunday qilib, shaxsnинг estetik madaniyatini shakllantirishning ahamiyati doimo tan olingan.

"Estetika" atamasi yunon tiliga qaytadi *aisteticos* (hislar orqali sezildi). Go'zallikning turli shakllari ushbu falsafiy ta'limotning asosiy tadqiqot mavzusiga aylandi. Aqlii, ma'naviy jihatdan rivojlangan inson tabiatdagi, san'atdagi va kundalik hayotdagiko'zallikni qanday ko'rishni biladi, atrofdagi haqiqatni jalb qilishga intiladi.

Biroq, zamonaviy jamiyatda iste'molchilik, moddiy qadriyatlarga egalik qilish tendentsiyasi sezilarli bo'lib bormoqda. Shaxsnинг intellektual tarbiyasiga katta ahamiyat beriladi. Ratsional-mantiqiy yondashuv hissiy, hissiy komponentni siqb chiqaradi. Bu nomoddiy madaniy merosning qadrsizlanishiga, insonning ichki dunyosining qashshoqlashishiga va uning ijodiy salohiyatining pasayishiga olib keladi.

Shu munosabat bilan yosh avlodni estetik tarbiyalash alohida ahamiyatga ega. Uning maqsadi shaxsiyat madaniyatini shakllantirishdir, unga quyidagilar kiradi:

- Estetik hislar. San'at va hayotda go'zallikni ko'rish

### qobiliyati.

• Estetik tuyg'ular. Bu tabiat hodisalari, san'at va hokazolarga baholovchi munosabatda bo'lishga asoslangan insonning hissly tajribalari.

• Estetik ideallar. Bu shaxsning mukammallik haqidagi g'oyalari.

• Estetik ehtiyojlar. Go'zallik bilan turli xil ko'rinishlarida muloqot qilishga intilish.

• Estetik did. Bu go'zal va chirkin narsalarni ajrata olish, ularni mavjud estetik bilim va shakllangan ideallarga muvofiq ravishda baholash qobiliyatidir.

Ta'lim ishida odatda quyidagi tarkibiy qismlar ajratiladi:

Estetik tarbiya. Jahon va milliy madaniyat bilan tanishishni, san'at tarixi bilimlarini o'zlashtirishni o'z ichiga oladi.

1. Badiiy va estetik tarbiya. U bolalarni ijodiy faoliyatga jalb qilishni, ularning didi va qadriyat yo'nalishlarini shakllantirishni ta'minlaydi.

2. Estetik o'z-o'zini tarbiyalash. Uning jarayonida inson o'zini takomillashtirish bilan shug'ullanadi, mavjud bilim va amaliy ko'nikmalarni chuqurlashtiradi.

3. Bolaning estetik ehtiyojlarini, shuningdek, uning ijodiy qobiliyatlarini tarbiyalash. Insonda go'zallarga bo'lgan ishtiyoq, o'z-o'zini namoyon qilish orqali dunyoga yangi narsalarni olib kirishni istash kerak.

Bolaning estetik madaniyati ikki yo'nalishda shakllanadi: umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishish va badiiy faoliyatga qo'shilish. Bunga muvofiq, o'qituvchilar oldida turgan ikkita vazifa guruhi mavjud.

Birinchisi, yosh avlodning estetik bilimlarini shakllantirish, ularni o'tmisht madaniyati bilan tanishtirish uchun mo'ljallangan. Bolalar hayotdagi, mehnatdagi, tabiatdagi go'zallikni ko'rishga, unga hissiy munosabatda bo'lishga o'rgatiladi. Estetik ideallar shakllanmoqda. Harakatlar, fikrlar, tashqi ko'rinishda mukammallikka intilish rag'batlanriladi.

O'qituvchi estetik didning hamma odamlar uchun har xil ekanligini unutmasligi kerak. Ba'zi bolalar klassik musiqani hayratda qoldiradilar, boshqalari hard rock bilan xursand bo'ladilar. Bolalarni boshqa odamlarning va davrlarning didini o'ziga xosligi bilan bog'lashga, ularga hurmat bilan munosabatda bo'lishga o'rgatish kerak.

Ikkinci guruh vazifalari bolalarning amaliy badiiy faoliyatida ishtirok etishni o'z ichiga oladi. Ularga rasm chizish, ertaklar tuzish, plastilindan haykaltaroshlik, raqsga tushish, cholg'u asboblarida o'ynash, qo'shiq aytish, she'r aytishni o'rgatadilar. O'qituvchilar tomonidan teatrlashtirilgan tomoshalar, konsertlar, adabiy kechalar, ko'rgazma va festivallar tashkil etiladi. Natijada, bola faol ijodiy faoliyatga qo'shiladi, go'zallikni o'z qo'li bilan yaratishni o'rganadi.

*Masala-1.* O'ziga to'k otaxonning uch kiz, bir o'gli bor edi. U kishi kariganlarida mexrn shu yagona o'gillaridan kutgan edi. Ammo kelini noboprok chikib, ular otaga karashmadı. Ikki katta kizi ham o'z oilalari bilan bo'lib, otadan xabar olmas edilar. Otaning kuniga kenja kizi yaradi. Ok yuvib, ok taradi, ko'nglini ko'tarishga harakat kildi. Otaxon olamdan o'tganlaridan keyin kenja kizdan tashkari hamma meros talashib, yettisi o'tmasdan janjallashishdi.

*Masala-2.* Besh oga-inining uchinchisi biznes kilaman deb katta qarzga botib koldi. Nixoyatda axvoli tang bo'lgan uka akalaridan qarz so'radi. O'ziga to'k akalari qarzni kaytarib bera oladimi, yo'kmi? deb unga qarz berishmadı. Uka nima kilishini bilmay, o'zini har tomonga urdi. Oxiri noiloj bir kaltis ishga ko'l urib, kamalib ketdi. Mahallada: "Ukamning bolalarini biz bokayapmiz, xech narsaga muxtojlik joyi yo'k"- deb ko'kragiga urib yurgan akalarni kanday baxolaysiz?

## ADABIYOTLAR

1. Tursunov I., Nishonaliyev U. Pedagogika kursi. T. 1996.
2. Munavvarov A.K. Pedagogika. "O'kituvchi". 1996.
3. O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi". T. 1997.
4. Pedagogika. O'kuv ko'llanma. T. 1996.  
[www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)

## **11-mavzu: Vijdonni tarbiyalash dinniy bag'rikenglik**

### **Reja:**

1. Vijdon eng oliy ma'naviy-insoniy sifat.
2. Vijdonga berilgan turlicha ta'riflar.
3. Inson vijdonini tarbiyalash va huquqiy tarbiya.

Insonning o'z-o'ziga, xalkiga, vataniga, tabiatiga vijdoniy munosabati. Dunyoviy va ruxiy-hissiy bilimlar rivoji olamni va insonni o'zini bilish, anglashni yangi-yangi kirralarini ochmokda. Inson fakat moddiy-biologik vujuddan emas, uning yana shu moddiy-biologik tanasi boshkarib, rivojlantirib turuvchi bioenergetik tanasi bor ekanligi dunyoviy fanlar ham to'la isbotlab bo'lishdi. Xuddi shu bioenergetik tana insonning ruxiy-hissiy sifatlaridan tarkib topgan bo'lib, ularning tarkibiy kismini vijdon tashkil etadi. Ruxiy-hissiy sifatlar majmuasi insonning ma'naviyatini tashkil kilganligi uchun demak, vijdon – eng asosiy, eng oliy ma'naviy-insoniy sifat ekan. Shuning uchun inson tarbiyasida vijdonni tarbiyalash ma'naviy-insoniy tarbiyaning asosini tashkil etadi. Vijdon tushunchasi, insonning vijdoniy sifati uning ongi, kalbi, akli va irodasiga boglikdir. Chunki insonning ichki ruxiy kechinmalarida yaxshilik va yomonlik doimo ichki kurashda bo'ladi. Agar inson biror ma'naviy vaziyatda o'z kalbiga kulok solib, irodasini ishga solib, garazgo'ylik, mansabparastlik, molparastlik va xokazo kabi gayri insoniy illatlardan ustun chikib okilona ish ko'rsa uning vijdoniy sifati yukoriligini ko'rsatadi. Bunday vaziyatlar inson xayotida juda ko'p bo'ladi.

Bu haqda Prezidentimiz "Fidokor" gazetasining muxbirli bilan bo'lgan "Donishmand xalkimizning mustaxkam irodasiga ishonaman" nomli mulokotlarida: "Aslida mening nazarimda, odamning kalbida ikkita kuch - bunyodkorlik va vayronkorlik hamisha kurashadi". Inson kalbida gayri insoniy illatlarning ustun bo'lishi aslida ma'naviy kasallikdir. Xuddi

ana shu kasallikni davolashni ham Prezidentimiz ko'rsatib o'tdilar. I.A.Karimov shu mavzuda o'z so'zlarini davom ettirib: "Ma'lumki, har kanday kasallikning oldini olish uchun avvalo kishi organizmida unga karshi immunitet hosil kilinadi. Biz ham farzandlarimiz yuragida ona Vatanga, boy tariximizga, ota-bobolarimizning mukaddas diniga soglon munosabatni karor toptirishimiz, ta'bir joiz bo'lsa, ularning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishimiz zarur".

Arastu haqim vijdonni talkin kilib shunday degan: "Ruximizning ma'naviy kuvvati bilan vijdonimiz, fikrimizga kuvvat beruvchi bir vositayu idrokiyatdir".

Insonni fakat tibbiy-biologik emas, balki uni ruxiy-hissiy slymo sifatida yaxshi o'rgangan vatandoshimiz Ibn Sino: "Vijdon rux va fikrimizni tuygun kilmokka birinchi vositadir", - degan edi.

"Vijdon deb ruximizga, fikrimizga ta'sir kiladurgon hissiyot, ya'nisezuv-tymokdan iborat ma'naviy kuvvatni aytilar. Biz har vakt af'ol va harakatimizni yaxshi va yomonligini, foyda va zararligini onjak vijdonimiz ila bilurmiz. Vijdon insonning akl va fikrini haqiqiy mezonidurki, bu tarozu ila o'z kamchiligini o'lchab bilmak ila barobar boshkalarning ham af'ol va harakatini sezur. Agar ishlagan ishi shariat, akl va xikmatga muvofik bo'lsa, muxabbat kilur. Kaboxat, yomon ishlarni kilsa, nafrat kilur. Biz janobi haqning amr va naxyini fikr va ruxiyatimizning ma'naviy kuvvati o'lan vijdonimiz ila ayira bilurmiz.

Ammo vijdonsiz kishilarning ishlarida, niyat va amallarida, do'st va oshnoliklarida yashirin bir garazlari o'ldigindan har vakt gasrat va nadomat chekub, vijdon azobiga giriftor bulurlar".

Darvoke xayotning asl moxiyati, ma'nosini topishda vijdonning roli yuksakdir, buning uchun eng avvalo, inson o'z-o'ziga to'gritalab ko'ya bilishi lozim. Turmushning har bir jabxasida vijdon adolat mezoni bo'lmogi lozim. Prezidentimiz I.A. Karimov "O'zbekiston XXI asr bo'sagasida" kitobida bu jixatiga aloxida urgu berib o'tadi. "Har bir kishi o'z mamlakatining fukarosi ekanligini

his kilishi, uning o'ziga berib ko'yilgan huquq va erkinliklarga ongli munosabatda bo'lishi va kadrlashi, mashakkatli mexnati bilan ko'lga kiritilgan demokratik kadriyatlarni asrab-avaylashi va ximoya kilishi goyat muxim".

Vijdon tarbiyasi juda yoshlikdan boshlanmogi lozim. Uning oddiy insoniy munosabatlarda namoyon bo'lishi, insonparvarlikda, iktisodda vijdoniy munosabatlarning ustivorligiga erishishi lozim.

Abdulla Avloniy vijdonni insonning oyinasi deb biladi."Al hosil vijdon har kimning af'ol va harakatini ko'rsatadurgan musaffo bir oyinadurki, bu ko'zguga chin nazar kilgan kishi o'z aybi va kamchiligini tuzatmak harakatida bo'lub, boshkalarning aybi va kusurini axtarmogga vakti bo'lmash. Arastu haqim: «Ruximizning ma'naviy kuvvati o'lan vijdonimiz, fikrimizga kuvvat berguvchi bir vositayi idrokiya deyilur. Ya'ni, hissiyotimizning ruximizga ta'sir ettiruvchi bir robitai ilktirikiyyasidur", demish.

Ibn Sino haqim kuyidagi misralarida vijdonni komillik mezoni deb atagan.

Sof vijdon kabi xech komili mezon o'lmas.

Kishi o'z aybini bilmak kabi urfon o'lmas.

Albatta yoshlar tarbiyasida vijdon tarbiyasining roli yuksak bo'lmosi lozim. Bunda kishining o'z vijdoni oldida hisob bermogini, zavklanish, xuzurlanish, xalovat, obro', kadrikimmating vijdon tarozusi ila karalmogini ukdirmok kerak.

Ta'lif-tarbiya jarayonidagi vijdoniy munosabatlar yoshlarni tarbiyalashda muxim jixat sanaladi. Baxolash jarayonidagi nohaqliklar har kanday yoshni o'ylantiradi, vijdon kiynogiga olib keladi.

Bugungi reyting tizimidagi baxolash tizimi bunday noxush ko'rinishlarning oldini olmokda.

Vijdon - iymon, kalb pokligi, ongli ilmu-amaliy faoliydan iboratdir. Shuning uchun diniy ilmlarni asoslashga iymonlilikning birinchi kismi ilmu-amaliy faoliy bo'lsa, ikkinchi

kismi shariat amallarini bajarishdir. Xuddi ana shu narsa insonning asl moxiyatidan iborat bo'lib, insonning haqiqiy xayot ma'nosini tashkil kilmogi kerak. Xayot ma'nosi, uning maksadi bilan aralashtirilmasligi kerak. Maksad foyda olish, pul topish, agarda ma'naviy javobgarsiz xayot ma'nosiga aylanib ketsa, kishida ma'naviy inkiroz boshlanadi.

Har bir kishi o'z-o'ziga, kasbiga, davlatiga, xalkiga, insoniyatga, olamga vijdoniy munosabatda bo'lishi kerak. Insoniyat tarixida juda yirik ma'naviy-madaniy manbaga aylangan Avesto, Manas, Alpomish, Maxabxorat, Maxbub ulkulub kabi asarlar juda uzok yillar davomida vijdoniylik, insonparvarlik, insoniylikda olamga sabok berib kelmokda. Bu o'rinda iloxiy asar Kur'oni karim ma'naviy xayotiy komus hisoblanadi.

Insoniyatga, olamga o'zlarining ta'lilotlari, ibratli xayotlari bilan insoniyat farzandlari Abduxolik Gijduvoniy, Baxovuddin Nakshbandiy, Buxoriy, Fargoniy, Najmiddin Kubro, Ibn Sino, Ulugbek, Eynshteyn, A.Saharovlar ibrat bo'lib kelmokdalar.

Ma'naviy mas'ullik insonlarni moddiy-ma'naviy bunyodkorlik, mahsuldarlik, yaratuvchilikka da'vat kiladi. Xuddi shu ma'naviy-insoniy sifat inson moxiyatining bosh omildir.

Ollox taolo insonni bilim, axlok va faoliyat bobida mas'ul kitib yaratgan. Bu haqda Kur'oni karim Al-Isro surasining 36-oyatida shunday deyilgan: "Ey inson, o'zing anik bilmagan narsaga ergashma! Chunki kulok, ko'z, dil - bularning barchasi te'grisida (har bir inson) mas'ul bo'lur".

Mas'ullik esa mustakillik, erkinlik, faollik va ma'naviy javobgarlikdir. Bu iloxiy haqikat dunyoviy - zamonaviy insonshunoslik fanlari pedagogika, psixologiya, genetika, fiziologiya, biologiya, mikrobiologiya va boshka fanlar nuktai nazaridan ham isbotlandi.

Insonning bu mas'ulligi va ma'naviy javobgarligi, moddiy olamni moddiy-ma'naviy taomilligi, go'zalligi hamda moddiy-

ma'naviy ta'minotida amalga oshiriladi.

Chunki iloxiy manbalarda tasdiklanishicha, inson Ollox Taolonning yerdagi xalifasi, o'rinosbosaridir. Bu insonlarga berilgan buyuk in'om, ishonch va vakolatdir. Bu insonning erkin, ozod, nodir, betakror ulug siymo kilib yaratilganligining iloxiy tasdigidir. Bu ulug vazifani bajarish uchun har bir insonga akl, ong, o'quv, kobiliyat va boshka ma'naviy-insoniylar sifatlar ato kilingan.

Demak, insonlarning asl bosh ma'naviy-insoniylar moxiyati ularni olamni har tomonlama takomillashtiruvchi moddiy-ma'naviy bunyodkorliklaridadir.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. I.A. Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sagasi. T."O'zbekiston", 1997.
2. A. Avloniy. "Turkiy guliston yoxud axlok". T. 1991.
3. Munavvarov A.K. Pedagogika. T."O'kituvchi". 1996.

[www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)

[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

#### **12-mavzu: Jismoniy tarbiyaning maqsadi, vazifasi.**

##### **Reja:**

1. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga jismoniy tarbiya berish vositalari.
2. Jismoniy mashqlarning tavsifnomasi.
3. Jismoniy mashqlarning turlari.

Texnika taraqqiyoti davrida jismoniy tarbiya va sportga katta ahamiyat qaratilmoqda. Chunki, texnik taraqqiyot davrida insoniyat jismoniy mehnatdan ozod bo'lib, eng havfli okam harakat qilish» kasalligiga uchramoqda, bu esa qon-tomir tizimining kasalligiga olib keladi.

Shuning uchun, oxirgi yillarda davlatimiz tomonidan chiqarilgan «Jismoniy tarbiya va sport» bo'yicha qonun va «Sog'lom avlod uchun» farmoni va dasturi bolalarning ma'naviy va jismoniy rivojlanishi, ularning sog'lom, mehnatsevar, baxtli bo'lishlari to'g'risidagi g'amxo'rlikdan dalolatdir. Shunday ekan, bolalarni jismoniy va har tomonlama rivojlanishi uchun jismoniy tarbiya vositalaridan foydalanmog'imiz muhimdir.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar jismoniy tarbiyasi vazifalarini hal etishda gigienik omillar, tabiatning tabiiy kuchlari, jismoniy mashqlar kabi vositalardan foydalaniлади. Har xil faoliyat turlariga kiruvchi (qo'l mehnati, musiqa asboblarini chalish, loy va plastilindan narsa yasash, qurish-yasash, rasm chizish, kiyinish, yuvinish...) xilma-xil harakatlar bolalarning jismoniy rivojlanishiga ta'sir etadi. To'laqonli jismoniy tarbiyaga barcha vositalardan mujassam holda foydalanilganda erishiladi, chunki ularning har biri kishi organizmiga turlicha ta'sir etadi.

##### **Jismoniy tarbiya vositalari.**

1. Gigienik omillar.
2. Tabiatning tabiiy kuchlari.  
(quyosh, havo, suv)

3. Jismoniy mashşlar.
4. Xilma-xil faoliyat turlari.

### 5. Massaj

Gigienik omillarga:

- a) mashg'ulotlar rejimi;
- b) dam olish;
- v) Ovqatlanish;
- g) uyqu;
- d) kiyim bosh, poyabzal;
- y) jismoniy jihozlar, xonalar, maydonchalar... kiradi.

Ular jismoniy mashqlarning shug'ullanuvchilar organizmiga ta'siri samaradorligini oshiradi.

Gigiena omillari barcha organ va tizimlarning yaxshi ishlashiga yordam beradi. Masalan, muntazam sifatlari ovqatlanish ovqat hazm qilish organining faoliyatiga ijobiy ta'sir qiladi va boshqa organlarga zaruriy oziq moddalarning o'z vaqtida yetib borishini ta'minlaydi, bolaning rivojlanishi va o'sishiga yordam beradi. To'laqonli uyqu nerv tizimiga dam beradi va uning ish qobiliyatini oshiradi. Xonalar, jismoniy jihozlar, atribut, o'yinchoqlar, bolalar kiyimlari va poyabzalining tozaligi kasalliklarning oldini oladi. Xonalarni to'g'ri yoritish ko'z kasalliklari (shabko'rlik va boshqalar) ning sodir bo'lismiga yo'l qo'yaydi. Kun tartibiga qat'iy rioya qilish uyushqoqlikka, intizomlilikka o'rgatadi.

Tabiatning tabiiy kuchlariga quyosh, havo, suv kiradi, ular jismoniy mashqlarning organizmiga ta'sirini kuchaytiradi va kishi ish qibiliyatini oshiradi.

Quyoshli, ochiq havoda yoki suvda (suzish) bajariladigan mashqlar jarayonida ijobiy emotsiyalar paydo bo'ladi (ko'proq kislorod yutiladi, modda almashuvi kuchayadi...)

Quyosh, havo, suv organizmni chiniqtirishga, uni yuqori va past temperaturaga moslashuv qobiliyatini oshirishga yordam beradi.

Bular natijasida issiqlikni idora qiluvchi apparat harakatga

keladi, ya'nı kishi organizmi turli xil meteorologik omillarning o'zgarishiga o'z vaqtida javob bera oladigan darajaga keladi.

Suv terini kirdan tozalaydi, o'rmon bog'lardagi shifobaxsh moddalar (fitontsildar) ga boy havo mikroblarni yo'qotishga yordam beradi, qonni kislorodga to'yintiradi. quyosh nuri teri ostida D vitaminining saqlanishiga xizmat qiladi, turli mikroblarni o'ldiradi va bolalarni kasalliklardan (raxit...) saqlaydi.

Jismoniy mashqlar jismoniy tarbiyaning kishiga har tomonlama ta'sir etuvchi asosiy o'ziga xos shaklidir. Ulardan jismoniy tarbiyaning sog'lomlashtirish, ta'limiy va tarbiyaviy vazifalarini hal etishda foydalilanadi: aqliy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasini amalgalashga oshirishga xizmat qiladi.

Raqs mashqlari – organizmning barcha tizimlariga ta'sir qiladi, jismoniy fazilatlarni rivojlantiradi, harakatlar nafis, erkin ifodali bo'la boradi, ijobiy xislar paydo qiladi, to'g'ri qad-qomatni shakllanishiga yordam beradi. Shuning uchun raqs va o'yin elementlari (galop, oyoşlarni yonma-yon qo'yish kabilalar) jismoniy tarbiya vositalari sifatida foydalilanadi.

Xilma-xil faoliyat turlariga kiruvchi harakatlar.

Xilma-xil faoliyat turlari (mehnat, rasm, chizish, narsa yasash...) ga kiruvchi harakatlar agar qomatni to'g'ri tutishga rioya qilinsa, shuningdek jismoniy yuklamalar bolalarning yosh va individual xususiyatlari, sog'lig'ining ahvoli, jismoniy rivojlanishi va tayyorlanganligini hisobga olgan holda berilsagina bola organizmiga ijobiy ta'sir etish mumkin.

Massaj (silash, surtish, uqalash, shapatilash, titratish) teriga ta'sir qilib, bolaning butun organizmiga ta'sir etadi.

Massaj qon tomiri tizimiga ham ta'sir qiladi. Terida nerv uchlari ta'sirlariga javob tarişasida tomir reflekslari yuzaga keladi, kapilyarlar kengayadi qon aylanishi kuchayadi, issiqlik chiqarish ortadi. Massaj organizmni issiq havodan qizib ketishidan saqlaydi. Massaj ta'sirida yog' va ter bezlarining sektor funktiyasi yaxshilanadi, mushaklarda oksidlanish-

şaytarilish jarayoni va ularning qisqarish qobiliyati ortadi.

Massaj limfa tizimiga ta'sir qilib, suyuqlik oqimini tezlashtiradi.

Turli yosh bosqichlarida ko'rsatib o'tilgan vazifalarni amalga oshirishning samaradorligi asosiy va qo'shimcha vositalarni to'g'ri o'shib olib borgan taqdirdagina oshadi. Chunonchi, bolaning dastlabki 3 oyligida gigiena omillari, tabiatning tabiiy kuchlari katta ahamiyatga ega bo'ladi. Yosh orta borgan sari gigienik omillar, tabiatning tabiiy kuchlarining roli kamaymaydi, biroq uyqu, ovqatlanish va boshqalarga kamroq vaqt sarflanadi va birmuncha murakkab jismoniy mashqlardan foydalanish uchun zamin yaratiladi.

Mashqlar jismoniy tarbiya vositasi bo'lib chiqishi qadim zamonalarga bog'liq. Qazilmalar natijasida topilgan har-xil uy-ro'zg'or buyumlari, turli yodgorliklar, qoyalardagi rasmlar va tasvirlar avloddan-avlodga o'tgan, avlodning madaniyati, jismoniy madaniyatni yuzaga keltirgan.

Jismoniy mashqlar mehnat orqali vujudga kelgan. Jismoniy mashqlarni rivojlanishiga san'at, harbiy ish, din va milliy qadriyatlar o'zining salmoqli ta'sirini ko'rsatadi. Lekin jismoniy mashqlarning rivojlanishida moddiy talabchanlik va hayot sharoiti hal qiluvchi omil bo'lib hisoblanadi.

Jismoniy mashqlar kelib chiqishdan boshlab, ijobiy bilim va malaka bilan bog'liq bo'lgan.

Jamiyatni va jismoniy tarbiyanı rivojlanishi, jismoniy mashqlarni mehnat va harbiy ish bilan o'zaro bog'liqligi yuqolib bordi. Bu murakkab harakat faoliyatidan ayrim mashqlar (turli masofalarga yugurish, uzoqqa uloqtirish, uzunlikka sakrash...) ni ajratib olish va ulardan jismoniy tarbiya maqsadlarida foydalanish imkonini berdi. Shunga o'xshash nishonga otadigan bo'ldilar...

Mashqlarni alohida bo'linib, ajralib chiqishi endi kishilarni mehnatga, jismoniy tarbiya va sportga hamda harbiy ishga tayyorlay boshladi va bu ularni jismoniy va ruhiy

rivojlanishlarini ta'minlaydi.

Jismoniy harakatlар bu erkin harakatlardir. Ularni bajarish, to'xtatish, o'zgartirish kishi ixtiyorli bilan amalga oshiriladi.

Jismoniy mashqlarni shakli va mazmuni.

Jismoniy mashqlar bir-biridan ham mazmun, ham shakl jihatidan farqlanadi.

Jismoniy mashqlar mazmuniga qator jarayonlar fiziologik, biologik, bioximik, psixolik bog'liqligi kiradi. Jismoniy mashqlarni bajarish (ixtiyorli harakatlari) harakat tasavvuri, diqqat, tafakkur, irodaviy zo'r berish, hissiyotlar kabi psixik jarayonlar bilan bog'liqdir. Turli jismoniy mashqlarni bajarishda organizmning yurak-tomir, nafas olish tizimida o'zgarishlar yuzaga keladi.

Jismoniy mashqlar mazmuniga pedagogik nuqtai nazardan qaraganda ularning ta'lim-tarbiyaviy vazifalarni hal etish (harakat, ko'nikma va malakalarining shakllanishi, jismoniy fazilatlarni rivojlanishish) Texnik detallari – bu mashqlarning ikkinchi darajali xususiyati bo'lib, ular texnika asosini buzmagan holda o'zgarib turishi mumkin. Bu kishining yadta o'ziga xos xususiyatiga bog'liq.

Jismoniy mashqlar vaqt jihatidan ketma-ket keluvchi fazalardan iborat bo'ladi.

Siklik harakatlarda (irg'itish, sakrash va boshqalar) uch fazani ajratish mumkin:

1. Tayyorlov fazasi – asosiy fazani bajarish uchun juda qulay sharoit yaratadi. Masalan, irg'itishda qo'lni va tanani orqaga tebratish.

2. Asosiy faza – muhim harakat vazifasini hal etishga yo'naltirilgandir. Masalan, uloqtirishda to'pni otishga xizmat qiladi. Asosiy faza mashqlarni bajarish usulining mohiyatini tashkil etadi.

3. Yakunlovchi fazanining vazifasi harakatni to'xtatish va muvozanatni saqlash, uzoqqa uloqtirgandan so'ng chiziqni kegib o'tmaslik, yugurib kelib uzunlikka sakragandan so'ng

yiqilmaslikdan iboratdir.

Uchchala fazas chamberchashas bog'liq býlib, bir-birini davom ettirib bir butunlikda bajariladi. Barcha jismoniy mashqlar fazoda bajariladi. Fazoviy tavsif o'z ichiga dastlabki holat, mashqlarni bajarish paytida gavda va uning qismlarini holatini, traektoriyasini oladi

Dastlabki holat (DH) – bu gavda qismlarining mashqlarni bajarish arafasida nisbatan harakatsiz holatidir, u harakatga tayyorgarlikni ifodalaydi.

Dastlabki holatni o'zgartirib, tana holati qismlarini ketma-ketligini o'zgartirib organizmga ta'sir etuvchi jismoniy yuklanishlarni to'g'ri boshqarib olib borishga ham imkoniyat yaratadi.

Harakat traektoriyasi – ya'ni tana holati harakatlanayotgan gavda qismining yo'nalishi traektoriya deyiladi. Traektoriyada shakl, yo'nalish va amplituda aniqlanadi.

Tana qismi yoki buyumni o'tish yo'lini traektoriya (yo'nalish) deb ataladi. Shakli jihatidan hamma harakatlar to'g'ri chiziqli va egri chiziqli yo'nalishda bo'ladi. Boksa va qilichbozlikda to'g'ri chiziqli harakatlarni uchratish mumkin. Qolgan hamma mashg'ulotlarda, sport turlarida faqat egri chiziqli harakatlarni ko'rish mumkin.

Harakat yo'nalishi. Jismoniy mashqlarning ayrim muskullar rivojlanishi va harakat vazifalarini muvaffaqiyatli bajarilishiga (nishonga tekkizish) harakatlanayotgan gavda, uning qismlari (yoki buyumga) beriladigan yo'nalishga bog'liq. Kishi gavdasining asosiy yunalishlarini quyidagicha atash qabul qilingan: yuqoriga-pastga, oldinga-orqaga, o'ngga-chapga.

Harakatlar amplitudasi – bu gavda qismlari o'zgarishi yo'lining kattaligidir. Ular burchak kattaliklari (graduslar) chiziqli o'lchovlar (qadam uzunligi), shartli belgililar (yarim cho'qqayishlar) yoki tashqi chamlalasi (polga tekkuncha engashishlarda) bilan belgilanishi mumkin.

Harakatlar amplitudasi suyak, bo'g'in, pay va

mushaklarning elastik tuzilishiga bog'liq.

### Adabiyotlar

1. Jismoniy tarbiya nazariyasи va metodikasi (ma'ruzalar matni) Mahkamjonov K.M, Tulenova X.B. T.,2002

2. D.J.Sharipova, L.M.Semenova... Kichkintoylarni gigienik tarbiyalash. T.,1997

3. A.V. Keneman, D.V.Xuxlaeva. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni jismoniy tarbiyalash nazariyasи va metodikasi. T.,1988

4. Bolalar bog'chasida jismoniy tarbiya. T.I.Osokina. T.,1978

## 13-mavzu: Iqtisod tarbiya

### Reja:

1. Iqtisodiy tarbiyaning mohiyati va vazifalari.
2. Iqtisodiy tarbiyaning mazmuni va shakllari.
3. Boshlang'ich sinflarda iqtisodiy tarbiyani amalga oshirish yo'llari.

Iqtisod, bozor iqtisodiyoti, iqtisodiy tarbiya. Iqtisodiy tafakkur, ishbilarmonlik, tejamkorlik, tashabbuskorlik, ekologiya, efologik tarbiya. ekologik madaniyat, mehnat, mehnat tarbiyasi, aqliy mehnat, jismoniy mehnat, kasbga yo'llash.

Iqtisodiy tarbiya barkamol inson tarbiyasining muhim muammolaridan biridir. "Iqtisodiy o'zgarishlarni ustivor deb hisoblayotganimiz, taqsimotning ma'muriy buyruqbozlik tizimidan butkulvozkechayotganimiz hamda bozori iqtisodiyotiga asoslangan ijtimoiy mnosabatlarni shakllantirayotganimiz jamiyatni isloh qilishga qat'iy yondoshishimizning ifodasidir", degan edi I.Karimov. ( I.Karimov.O'zbekiston XX1 asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.Toshkent, "O'zbekiston", 1997 y., 188-bet.) Jamiyatni isloh qilish, bozor iqtisodiyoti talablari esa unda yashayotgan kishilarda iqtisodiy tafakkurning shakllanishini talab etadi. SHuning uchun ham o'sib kelayotgan yosh avlodda iqtisodiy tafakkurni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy tarbiya o'quvchilarda tejamkorlik, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik, iqtisodiy hisob-kitob va ular haqida fikrlay olish kabi qobiliyatlarni shakllantiradi. 2. Iqtisodiy tarbiyaning mazmuniga Sharq mutafakkirlari katta e'tibor qaratib kelganlar. Muhammad Ibn Muso al-Xorazmiy mamavzutika fani inson hayotida asosiylar o'rinni tutishini alohida ta'kidlaydi. Uning fikricha kishi hisob ilmini bilishi va ishiga pishiq bo'lmosg'i lozim. SHunda u mehnatining natijasini o'chovlar orqali aniqlay oladi. Abu Nasr al-Forobiy inson

yashashi uchun juda ko'p narsalar kerakligini va bo'larni vujudga keltirish yo'lida boshqa shaxslarga murojaat qilish kerakligini e'tirof etadi. Bu o'rinda olim iqtisodiy aloqa zaruriyatini ko'rsatib o'tgan edi. Darhaqiqat iqtisodiy aloqa o'rnatish uchun odamlar, davlatlar, jamiyatlar integratsiya yo'lida harakat qiladilar. Hozirgi vaqtda bu fikr qanchalik to'g'ri ekanligini rivojlangan davlatlar hayoti misolida ko'rish mumkin. Iqtisodiy integratsiya davlatlarga faqat boylik keltiryapti. Al-Forobiy "Baxt saodatga erishuv haqida" asarida shunday yozadi: "Inson o'z mablag'ini to'g'ri sarflashni bilishi kerak. Pul sarflashda qizg'anchiqlik qilish xasislikka olib keladi. Pullarni rejasiz ishlatish esa insonni beboslikka yetaklaydi". Ko'rinish turibdiki, o'tmish mutafakkirlari maktab va oila sharoitlarida o'quvchi iqtisodiy tafakkko'rini kengaytirish, ularni tejamkorlikka, ishbilarmonlikka, iqtisodiy hisob- kitobga o'rgatishni hayotiy tajriba asosida amalga oshirish lozimligiga e'tibor qaratganlar. Bolaga iqtisodiy tarbiya berish oiladan boshlanadi. Bola muktabga borgach bu borada puxta bilimlar ola boshlaydi. Abu Ali Ibn Sino o'z asarlarida shu xususda alohida to'xtaladi. Oila a'zolari- deb yozadi u,- kunlik oziq-ovqatlar uchun yetarli mahsulotlarni oldindan tejamkorlik bilan sarf qiladi. Har bir kishi bug'doy, guruch, mevalarni saqlash yo'llarini bilishi kerak. Ehtiyojga yaroqli narsalarga tejamkorlik bilan munosabatda bo'lish lozim. Ota-onada uvol qilish gunohligini farzandiga yoshligidan nasihat yo'li bilan o'rgatadi.

Ibn Sino Bolalarni hayotga tayyorlash uchun ularga hunar o'rgatish kerak deb ko'rsatadi: Inson hunarni puxta o'rganishi shart. Chunki hunar unga kelajakdagagi ro'zg'or tebratishi uchun asqotadi.

Iqtisodiy tarbiya avvalo oilada amalga oshiriladi. Oilada iqtisodiy tarbiya zamirida Bolada mehnatsevarlikni shakllantirish yotadi. Bu shunday olib borilishi kerakki, Bola o'z mehnatining natijalarini ko'ra bilsin. Shundagina bola o'z imkoniyatidan to'g'ri yoki noto'g'ri foydalanayotganini anglaydi.

Hunar egallash yoshlarni mustaqillikka o'rgatadi. Bu jarayonda Bola hisob-kitob qilishni ham o'rganadi, ishbilarmonlik va tashabbuskorlik xususiyatlariiga ega bo'ladi. Ota-onalar hovli va xonadonlarni tartibga solish, ovqat pishirish, kir yuvish va kiyim-kechakni yamash, ro'zg'or asboblari va uydagi jihozlarni ta'mirlash sohasida Bolalar mehnatini tashkil etadilar. Bunda ota-onalardan yushmanlarni Bolalarga ularning jismoniy, aqliy, ruhiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda topshirishlari kerak. Ota-onalardan ishni topshirish bilan cheklanmay Bola uni qanday bajarayotganini nazorat qilishi, lozim bo'lsa, maslahat, ko'mak berishi, Bolani ruhlantirib turishi maqsadga muvofiqdir. Tarbiyaning samaradorligini oshirish ko'p jihatdan oila, muktab, jamoatchilik va mehnat jamoalarining bahamjihat kuchg'ayrat sarflashlariga va o'quvchilarga nisbatan qo'yiladigan talablari bir xil bo'lishiga bog'liq. Bugun muktab partalarida o'tirgan yoshlar shu asr oxiri va kelgusi asr boshlaridagi ulug'vor vazifalarni hal etadilar. Bas, shunday ekan, yoshlarda shaxsiy va ijtimoiy turmush masalalarini, shuningdek, Vatan mudofaasi, xalqaro munosabatlar va tabiat injiqqliklari bilan bog'liq ravishda tug'iladigan muammolarni to'g'ri hal etishga yaroqli bo'lgan qobiliyatni, jumladan, tejash va tejamli bo'lish qobiliyatini hozirdan boshlab astoydil shakllantirish va o'stirish g'oyat katta ahamiyatga egadir.

O'zbekiston davlatining moddiy va ma'naviy o'sish borasidagi iqtisodiy qonuniyati bilan o'quvchilar tabiiy fanlar mazmunida tanishadilar. Jamiatshunoslik darslarida bolalar xalq farovonligini yuqori darajaga ko'tarish uchun qanday iqtisodiy vazifalar bajarilishi lozimligini o'rganadilar. Kimyo, biologiya darslarida o'qituvchilar yoshlarga mineral o'g'itning iqtisodiy ahamiyatini yaqqol misollar bilan ko'rsatishadi. Yangi texnologiya nima va u sanoatga qanday joriy qilinadi? Fan kashfiyotlari qay darajada iqtisodiy foyda keltirishi mumkin? Shunday savollarga Bolalar o'qituvchilar ordamida dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda javob topadilar.

Iqtisodiy tarbiyaning qator vazifalari mehnat darslarida amalga oshiriladi. Bu darslar nechog'lik qiziqarli va foydali tashkil etilsa, o'quvchilar shunchalik iqtisodiy bilim va malaka oлададар. Avvalo, bu darslarning mazmuni to'g'ri belgilanib olinishi zarur. Yana bir muhim qoidani nazarda tutish kerak. Hozirda boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'qish, tabiatshunoslik, mamavzutika va mehnat darslari orqali iqtisodiyotga oid boshlang'ich tushunchalar o'rgatiladi.. Bunda o'quvchilar atrof olam, mehnat, insonlar va ularning hayoti, bozor, narxlar haqidagi dastlbki tushunchalarni o'rganadilar. Shuningdek mamavzutika darslarida boshlang'ich mamavzutik tushunchalarni o'rgatish orqali o'quvchilarda mamavzutik tafakkur shakllantiriladi, bu esa o'quvchilarni bozor munosabatlariga tayyorlashda muhim o'rinni tutadi. Mehnat darslari Bolalar uchun iqtisodiy bilimlar bilan tevarak-atrofdagi hayotni o'ziga xos tarzda bog'lovchi omil bo'lishi lozim. Masalan, o'quvchilar boshlang'ich sinf mehnat darslarida turli buyumlarni hisobli o'lchamlar yordamida qog'ozdan, kartondan, loy va plastilindan tayyorlaydilar. Bu buyumlar albatta insonlar hayotida nima uchun kerakligi o'quvchilarga tushuntiriladi. Shuningdek har qanday chiqindi materiallarning ham ahamiyati tushuntirilib, ular yordamida yordamida kerakli buyumlarni tayyorlaydilar buyumlar yasaydilar. Bu mashg'ulotlarda o'quvchilar tejamkorlikka, tadbirkorlik va ishbilarmonlikka o'rgatiladi. Yuqori sinqlarda o'quvchilar "Ishlab chiqarish texnologiyasini o'stirish", "Mahsulot tannarxi", "Tovarlarni chet ellar bilan turli yo'llar orqali ayriboshlash" kabi mavzulardagi mashg'ulotlar, yuqorida aytildanidek, hayotiy tusda o'tkazilgandagina o'quvchi ongida chuqur iz qoldiradi. O'quvchilarga iqtisodiy tarbiya berish maqsadida biz keng va to'g'ri yo'naltirilgan vazifalarni oldimizga qo'yishimiz zarur: Iqtisodiy geografiya darslarida iqtisodiy tarbiyaga oid mavzularni chuqurroq tushuntirish. Hozirgi kunda o'quvchilar nutqidan o'rinni olayotgan atamalarni kasblarga bog'lab o'rgatish. Ikkinchi yo'nalish o'quvchilarning

darslikdagi iqtisodiy tarbiyaga qaratilgan topshiriqlar va vazifalarni bajarishlaridir.Bunda darslikdagi har bir bobni mavzularga bo'lingandan so'ng tahlil qilish va iqtisodiy tarbiyani o'stirish uchun savol va topshiriqlar beriladi. Masalan: "O'zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalari" va "O'zbekiston iqtisodiy rayonlarining o'zaro iqtisodiy aloqalari" degan mavzularni ko'rib o'taylik. "O'zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalari" mavzuidan so'ng hozirgi iqtisodiy tushunchalar va muammolar bilan uyg'un bo'lgan quyidagi savol va topshiriqlar beriladi. Tashqi iqtisodiy aloqa nima? Eksport va import nima? Valyuta, jahon bozori nima? O'zbekiston qaysi davlatlar bilan xom ashyo orqali, qaysi davlat bilan tayyor mahsulotlaar orqali aloqa qiladi? O'quvchilarga O'zbekiston bilan iqtisodiy aloqa o'rnatgan davlatlar diagrammasini to'zish va ularni xaritada belgilash topshiriladi. Shu mavzudagi barcha iqtisodiy atamalarni lug'at daftarchaga ta'riflab yoziladi. Bundan tashqari, quyidagi atamalar har bir mavzuga bog'lab o'rganiladi: bozor iqtisodi, birja, biznes, broker, reklama, marketing, menejer va boshqalar. Darsdan tashqari mashg'ulotlarda iqtisodiy tarbiya berish bu sohada keng imkoniyatlarga ega. Geografiya fani to'garaklarida o'quvchilarga asosan iqtisodiy bilimlar beriladi. O'lka va o'lkaning taraqqiyoti, mehnatni ilmiy asosda tashkil etish, mahsulot sifati, tabiatni muhofaza qilishga oid iqtisodiy tushunchalar ular ongida shakllantiriladi. Bu tushuncha va bilimlar orqali respublika, viloyat va tuman xalq xo'jaligining rivojlanish xususiyatlari chuqurroq o'rganiladi. Bunday bilimlar o'quvchilar kelajakda qaysi sohada ishlash yoki qayerda o'qishi mumkinligini mo'ljallashiga ham imkon beradi. Iqtisodiy tarbiya uslublari xilma-xildir. Jumladan, suhbat, ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar, sanoat shoxobchalariga sayohat o'tkazish, solishtirish, xisob-kitob qilish g'oyatda ta'sirchan uslublar hisoblanadi. O'quvchilarda iqtisod borasida ijodiy fikr yuritishni shakllantirishda darslarda va darsdan tashqari mashg'ulotlardan unumli foydalanish lozim. O'quvchilarni qay

darajada iqtisodiy tarbiya topganliklari o'qituvchilar tomonidan kuzatib borilishi kerak.

### **Adabiyotlar ro'yxati.**

1. I. A. Karimov. Yuksak ma'naviyat engilmas kuch. T. Sharq 2008.
2. I. A. Karimov. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T. 1997.
3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi T. 1997.
4. Ochilov M. Oliy maktab pedagogikasi.T. 2008.
5. Ochilov. M. Muallim қalb me'mori. T. 2003.
6. Munavvarov. Pedagogika. T. O'qituvchi 1996.

## 14-mavzu: Jamoada shaxsni tarbiyalash

### Reja:

1. Sinf jamoasini tashkil etish va uni tarbiyalash.
2. O'quvchilar jamoasini shakllantirishga yordam beruvchi shart-sharoitlar.
- 3.3. O'qituvchilaming o'quvchilar jamoasi bilan ishlash usuli.

Jamoा so'zi lotincha «**kollektivus**» so'zining tarjimasi bo'lib, yig'ilma, omma, birgalikdagi majlis, birlashma, guruh ma'nolarini anglatadi. Aniqroq aytadigan bo'lsak, jamoa — bu kishilardan iborat guruh demakdir. Zamona viy talqinda «jamoа» tushunchasi ikki xil ma'noda ishlataladi. Jamoa deganda, birinchiclan, kishilarning istalgan tashkiliy guruhi (masalan, ishlab chiqarish jamoasi, korxona jamoasi, xo'jalik jamoasi va h.k.), ikkiiichidan, yuqori darajada uyushtirilgan guruh tushuniladi. Chunonchi, o'quvchi (tarbiyalanuvchi) larning birlaslimasi o'ziga xos muhim belgilarga egadir. Quyida jamoa va lining xususiyatlari (belgilari) borasida so'zyuritamiz.

Jamoа va jamoa orqali tarbiyalash — tarbiya tizimida muhim ahamiyatga ega bo'lgan tamoyillardan biridir. Shaxsni shakllantirishda jamoaning yetakchi rol o'ynashi to'g'risidagi fikriar pedagogika fanining ilk rivojlanish davridayoq bildirilgan. Jamoada lining a'zolari o'rtasidagi inunosabatning alohida shakli yuzaga keladi, bu esa shaxsning jamoa bilan birgalikda rivojlanishini ta'minlaydi. Lekin liar qanday guruhni ham jamoa deb hisoblab bo'lmaydi. Jamoa bir qator belgilarga egadirki, maz.kur belgililar jamoani kishilarning yetarii darajada uyushgan har qanday guruhidan ajratib turadi.

Jamoа ijtimoiy jamiyatning bir qismi hisoblanib, unda ijtimoiy hayot va kishilik munosabatlarining barcha me'yorlari o'z ifodasini topadi. Zero, jamoa jamiyatdagi mavjud munosabatlar tizimida namoyon bo'lar ekan, jamoa va ijtimoiy

jamiyat maqsadi, intilishda o'zaro birlik, uzviy maqsadga muvofiq tashkil etiladi. Shu bois jamoa hayotining bir (yagona) maqsadga qaratilganligi va ijtimoiy-g'oyaviy yo'nalganligi uningyetakchi belgisi sanaladi.

Mar bir jamoa boshqa jamoalar bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Uning har bir a'zosi jamiyat ijtimoiy faoliyatini tashkil etish jarayonida o'z jamoasi bilan birgalikda ishtirot etadi. Jamoani tushunish, uni his etish hamda shaxsni shakllantirishdagi o'rni va rolini to'g'ri baholay olish umumiylar xususiy (shaxsiy) maqsadning qiziqishi, ehtiyoj va faoliyatning birligini namoyon etib, bo'linishga yo'l qo'ymaydi.

Har bir jamoa o'zini o'zi boshqarish organiga ega va umummilliylar jamoaning uzviy qismi sanaladi. Shuningdek, u maqsadning birligi va tashkil qilish xususiyatlari orqali umummilliylar jamoa bilan bog'lanadi. Ijtimoiy jamiyatning ehtiyojini qondirishga yo'naltirilgan birgalikdagi faoliyat jamoaning navbatdagi muhim xususiyatlaridan biridir. Jamoa faoliyatining ijtimoiy-g'oyaviy yo'nalishi ham jamoaning faoliyati mazmunida o'z aksini topishi muhim ahamiyatga egadir.

Jamoа xususiyatini aniqlashda kishilar guruhning yagona ijtimoiy tizimini o'rnatma olishdagi usuli, ya'ni jamoani tashkil qilish usuli ham muhim hisoblanadi.

Pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tashkil etilgan jamoa faoliyati natijasida jamoa a'zolari o'rtasida ishchanlik, bir-biri uchun g'amxo'rlik, o'zaro yordam, jamoa manfaati uchun javobgarlik hissi qaror topadi.

Birgalikdagi faoliyat umumjamiat ishi uchun mas'uliyat hissini uyg'ota borib, jamoa a'zolari bir-biriga yaqinlashtiradi, jamoaga mansublik hissining paydo bo'lishiga ko'maklashadi, jamoa bilan munosabatda bo'lish ehtiyojini oshiradi. Jamoa a'zolari orasida o'zaro yaqinlik, hissiy birlik (bir-birini yoqtirish) yuzaga keladi. Ushbu munosabat ko'pincha o'z-o'zidan paydo bo'ladi hamda ular pedagogik ta'sir ko'rsatish uchun qo'l keladi.

Ruhiy va hissiy jamoa a'zolarining birgalikdagi faoliyatining mazmuniga, ular orasidagi hosil bo'lgan ishchanlik faoliyatining xarakteriga bevosita bog'liqdir.

Jamoaning rasmiy (ishchanlik) va norasmiy (hissiy) tuzilishini bir-biridan farqlash lozim. Jamoaning rasmiy tuzilishi deganda, jamoa faoliyatining turli ko'rinishlarini amalga oshirish uchun zarur bo'ladigan tashkiliy jihatlari ko'zda tutiladi. Mazkur tuzilma, bir tomonidan, jamoa a'zolari qo'shilgan ishchanlik munosabatlami ifoda etsa, ikkinchi tomonidan, rahbarlik vazifasini bajaruvchi tarbiyachilar hamda jamoa a'zolari o'rtasidagi mavjud boshqarish munosabatlari mazmunini ifoda etadi.

Norasmiy tuzilma jamoaning barcha a'zolari o'rtasidagi shaxslararo ma'nnaviy-psixologik niunosabatlarning umumiyligi va mikroguruhini tashkil qiluvchi ayrim a'zolar o'rtasidagi tanlash munosabatlari mazmunini ifodalaydi. Jamoaning har bir a'zosi mavjud munosabatlari tizimida u yoki bu o'rinni egallaydi.

Tarbiyalanuvchi shaxsning jamoadagi o'rni uning shakllanish jarayoniga ta'sir ko'rsatadi. Maklab yoki sinfdagi rasmiy va norasmiy tuzilmalar bir-biriga muvofiq bo'lganda, jamoaning rasmiy yetakchilari norasmiy munosabatlari tizimida ko'zga ko'ringan o'rnini egallagan holdagina u chinakam jamoa bo'la oladi. Shuningdek, norasmiy guruhlari (mikroguruhi) umumjamoia ijtimoiy manfaatlari uchun kurashuvchi guruhlari bo'lgandagina, jamoa o'zini o'zi chinakam jamoa tarzida namoyon etishi mumkin.

Yashash joylarida o'zaro birikkan bolalar guruhlari qanchalik ahil va inoq munosabat zaminidan tashkil topgan bo'lmasin, haqiqiy jamoa bo'la olmaydi. Chinakam jamoa ijtimoiy ahamiyatga moyillik faoliyatini tashkil eta olishi, jamoa a'zolari o'rtasida ijtimoiy ahamiyati faoliyat, maqsad, ishchanlik xarakteridagi aloqa va munosabatlami o'rnata olishi lozim. Jamoaning majburiylik belgisi unga pedagogik rahbarlikning bo'lishidir.

Shunday qilib, jamoa kishilarning shunday muayyan guruhi bo'lib, u ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan umumiy maqsad hamda mazkur maqsadni amalga oshirish uchun yo'naltirilgan faoliyatni tashkil etadi. Ushbu guruh a'zolari o'zaro birlik, a'zolaming munosabatlar jarayonidagi tengligi asosida unga rahbarlik qilish va bir-biriga bo'y sunish, shuningdek, jamoa oldidagi javobgarligi asosida muayyan faoliyatni olib boradilar.

Jamoia va uni shakllantirish — pedagogik faoliyatning maqsadi hisoblanadi. Ayni ko'rsatkich uni shakllantirish vositasi bo'lib, uning yordamida jamoaning barcha yoki har bir a'zosini tarbiyalash yaxshi samara beradi.

### O'quvchilar jamoasini shakllantirishga yordam beruvchi shart-sharoitlar

Jamoaning yetakchi tarbiyaviy vazifasi.

Shaxsni liar tomonlama tarbiyalash, unda ijobiy sifatlarni hosil qilib, mustahkam hayotiy pozitsiyani qaror toptirishdan iboratdir. Umumiy o'rta ta'limga hamda yangi turdagiga ta'limga muassasalarida jamoani shakllantirish mas'uliyatli vazifa sanaladi.

Maktab jamoasi tarkibida eng barqaror bo'g'in, bu — sinflar jamoalari sanaladi. Sinf jamoasida o'quvchilarning asosiy faoliyati o'qishdir. Aynan inf jamoasida o'quvchilar o'rtasida mustahkam shaxslararo aloqa va munosabatlari tarkib topadi. Shu bilan birga, inf jamoasi o'z negizida maktab jamoasining shakllanishi uchun o'ziga xos poydevor vazifasini bajaradi. Maktab jamoasi tarkibida o'quvchilar jamoasi asosiy qismni tashkil etadi. O'quvchilar jamoasi — bu ijtimoiy ahamiyatini tashkil etish, shuningdek, umumiy saylov organlari va umumiy javobgarlik, barcha a'zolarining huquq va burchlari tengligi asosidagi o'zaro birlikka ega o'quvchilar guruhidir.

O'quvchilar jamoasi pedagog tarbiyachilar hamda bolalardan iborat jamoaning murakkab birlashmasi, o'zini o'zi nazorat, o'zini o'zi boshqaruv jarayonini tashkil etuvchi mustaqil

tizim, shuningdek, o'zining psixologik muhitiga, an'analariga ega guruh hisoblanadi.

### Jamoaning o'ziga xos xususiyatlari.

Yuksak darajada uyuşhtirilgan jamoa o'zida bir necha xususiyat (belgi)larni namoyon etadi. Ularquyidagilar:

Jamoani shakllantirish muayyan qonuniyatlarga bo'y sunadigan uzoq muddatli, murakkab jarayondir. Jamoaning vujudga keishi uchun to'rt bosqich zarur. Jamoaning shakllanish bosqichlarida, pedagog dastlab butun guruhga talab qo'yadi, so'ngra jamoa faollari, jamoa a'zolariga talab qo'yadi, so'ngra butun jamoa alohida shaxs dan muayyan tarzda faoliyat olib borishini talab qiladi va nihoyat, shaxs o'ziga o'zi talabni quyidagicha bayon etishi mumkin:

Qo'yilayotgantalablar mazmunidagi farqjamoarivojlanishi bosqichini aniqlovchi yorqin tashkil ko'rsatkichi sanaladi. Jamoaning amaliy faoliyati mazmuni jamoa a'zolarining xulqatvori, axloqiy kamolot darajasini ko'rsatuvchi muhim belgilar sifatida namoyon bo'ladi. Jamoani shakllanlishda uning hayotini belgilovchi ichki jarayonning mohiyatini inobatga olish zarur.

Jamoaning shakllanish bosqichlarini belgilash shartli hisoblanadi, chunki jamoa chegara yoki oraliqqa ega emas. Shunga qaramay, pedagogik nuqtayi nazardan jamoaning shakllanish ini bosqichlarga ajratish juda muhimdir. Bolalar jamoasini rivojlanish bosqichlariga ajratish muhimdir. Bolalar jamoasi rivojlanishning har birta'sir ko'rsatish shakl va metodlarini tanlash imkonini beradi.

Jamoa rivojlanishining birinchi bosqichi. Mazkur bosqichda talab faqat pedagoglar tomonidan qo'yiladi. Bu jamoa rivojlanishining boshlang'ich nuqtasidir. Ushbu davrdagi jamoa hali tarbiyalovchi jamoa bo'lmay, balki «tashkil etuvchi birlik» (sinf guruhi) dir.

Tarbiyalanuvchilar talablar qo'yilishiga e'tiborsiz qarashadi. Jamoa a'zolarining uzluksiz ijodiy faoliyatni

tashkil qilish va ularni muayyan (yagona) maqsad atrofida birlashtirishga erishish orqaligina jamoa qaror topadi. Tarbiyalanuvchilarning jamoa faoliyatida ishlirok etishi tufayli, asta-sekin boyib boradigan tajriba, faoliyat natijasini birlgilikda muhokama qilish, qilinajak ishlarni rejalashtirish jamoa a'zolarida mas'uliyat, javobgarlik, faoliyat birligi, shuningdek, ishchanlik munosabatining paydo bo'lishiga, tarbiyalanuvchilarda jamoa faoliyatiga nisbatan qiziqish paydo bo'lishiga olib keladi. Bolalarning jamoa faoliyatini tashkil ctish borasidagi ma'lumotga ega emasliklari bois, mazkur bosqichda pedagogning asosiy maqsadi jamoa a'zolari oddiy tarzda uyuşhtirishdan iborat bo'ladi.

Ushbu bosqichda pedagogning talabchanligi, qat'iyligi, ischilligi, murosasizlik va jamoaning barcha a'zolariga talabni bir xil qo'ya olishi asosiy omil hisoblanadi. Bu vaziyatda o'qituvchilik, «hukmdorlik» davri uzoq davom etishi mumkin emasligini, aks holda bir qarashda intizomning vujudga kelganligi ma'lum bo'sada, guruh a'zolarining faoliyklarini rivojlantirish uchun sharoitning mavjud emasligini hisobga olish zarur.

Jamoani shakllantirish bosqichlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari. Jamoa hayotining birinchi bosqichida jamoa faoliyatining paydo bo'lishi ushbu davr uchun xarakterli hodisadir. Faollaming tarkib topishi demakdir. Jamoa faoli muayyan guruhning shunday a'zolariki, ular jamoa manfaatiga muvofiq tarzda harakat qilishib, pedagog faoliyati va talabiga nisbatan xayrxohlik bilan munosabatda bo'lishadi. Faol pedagogning yaqin yordamchilari sifatida ish olib boradilar.

Jamoa rivojlanishining ikkinchi bosqichi. Ushbu bosqich jamoa faolining pedagog talabini qollab-quvvatlashi hamda, o'z navbatida, uning o'zi bu talablami jamoa a'zolari zimmasiga qo'yishi bilan tavsiflanadi. Kndilikda pedagog jamoada paydo bo'lgan va u bilan bog'liq muammo, masalalarni yolg'iz o'zları hal qilmaydi.

Jamo faoli bilan maxsus tarbiyaviy ish olib borish orqali, bu ishga unijalbetadilar. Jamoa hayotini tashkil qilish usuli murakkablashib boradi, ya'ni jamoa o'zini o'zi boshqarishga o'tadi.

Tarbiyalanuvchilar amaliy faoliyatning doimiy ravishda murakkablashib borishi — mazkur davrning muhim xususiyati sanaladi. Ikkinci bosqichda jamoaning muhim ishlarining o'qiivcbilar tomonidan mustaqil rejalarhtirilishi, tadbirdarni o'tkazishga tayyorgarlik, uni o'tkazish hamda faoliyat natijalarini muhokama qilish jamoa faoliyatining ijodiy xususiyatini ko'rsatuvchi omillar sanaladi.

Jamoaning ijobiy rivojlanishi uning a'zolarida faoliyat motivlari (rag'batlari)ning paydo bo'lishi. ijodiy hamkorlik va o'zaro yordam munosabatlarining tez sur'atlar bilan rivojlanishiga olib kcladi.

Jamoada mustaqil faoliyatning yuzaga kelishida jamoa faollarining roli beqiyosdir. Ammo jamoa faolining jamoa a'zolari o'rtaida hurmat qozona olishi, namuna bo'lishi, o'z burchini aniq va puxta bajarishi hamda o'z mavqelarini suiiste'mol qilmasliklari juda muhimdir. Bu o'rinda A.S. Makarenko jamoa faolligi nisbatan «jamo vijdoni», deya bergen ta'rifini eslab o'tish joizdir.

Jamo faoli birmuncha imtiyozlar (huquqlar)ga ega bo'lsa-da, ayni paytda uning o'ziga ham oshirilgan talablarning qo'yilishi maqsadga muvofikdir.

Jamo rivojlanishning bu bosqichida to'xtab qolishi mumkin emas, chunki faoliyat ko'rsatayotgan kuch jamoaning bir qismigina, xolos. Bordi-yu, jamoaning rivojlanishi ushbu bosqichda to'xtatib qolinsa, jamoa faolini guruhning boshqa a'zolari bilan qarama-qarshi qo'yish xavll tug'ilishi mumkin. Bu bosqichda jamoaning barcha a'zolari faol faoliyatga o'tishi zarur sanaladi.

Jamo rivojlanishining uchinchi bosqichi jamoa faoliyatida anchagini sermahsul hisoblanadi. A.S. Makarenkoning

aniqlashicha, bu davrda butun jamoa «ayrim o'zini chetga olib qoluvchi, injiq shaxs» larga talab qo'ya boshlaydi.

Bunga endilikda faqat faollar emas, balki uning butun a'zolari qiziqadi. Jamoa hayotidagi uchinchi bosqich ijtimoiy fikr mavjudligi bilan ifodalanadi. Pedagog mazkur yo'nalishda maqsadga muvofiq va izchil ish olib borgan sharoitdagina ijtimoiy fikrni shakllantirishga erishishi mumkin.

Shu maqsadda u yoki bu tadbir rejasini, jamoaning birlgilidagi faoliyatini, uning a'zolari xatti-harakati jamoa bo'lib muhokama qilinadi. Turli mavzularda suhbatlar va ma'ruzalar uyush-tirilib, o'quvchilar o'rtaida samarali axborot vositalari yordamida ijtimoiy-g'oyaviy, axloqiy, estetik, ekologik, huquqiy-iqtisodiy va boshqa bilimlar targ'iboti tashkil etiladi. Pedagog jamoa a'zoiarining birlgilidagi faoliyatini tashkil etar ekan, jamoa a'zoiarining o'zaro munosabatlarini shakllantirishga ta'sir ko'rsatadigan shakl va metodlardan foydalilanildi.

Jamo o'zining har bir a'zosida ijtimoiy ahamiyatli faoliyatni maqsadga muvofiq ravishda shakllantirib borish, jamoa a'zolari orasida barqaror insoniy munosabatlarning tarkib topishiga yordam beradi. Jamoada barqaror insoniy munosabatlarning yuzaga kelishi sababi, uning a'zoiarining yuksak aqliy mazmunga ega bo'lgan ishlarni tashkil etishda faol ishtirok etishining samarasidir.

Jamo rivojlanishining uchinchi bosqichida ko'rsatib o'tilgan xususiyatlar shundan dalolat bcradiki, ushbu bosqichda jamoa faolligini emas, balki jamoaning har bir a'zosi bir-birlariga axloqiy mazmundagi talablami qo'ya boshlashadi.

Jamo rivojlanishining to'rtinchi bosqichi uning barcha a'zolari jamoa oldida turgan talablar asosida o'z-o'zlariga talablar qo'ya olishlari bilan tavsiflanadi. Shuni aytish mumkinki, har bir bosqich jamoa a'zoiarining o'z oldiga muayyan talab qo'yishi bilan tavsiflanadi, ammo qo'yilgan har bir talab o'ziga yes yo'nalishi (masalan, o'yindan umuminsoniyat baxti uchun kurashishga intilish o'rtaidiagi farq) bilan ajralib turadi.

Xuddi shu jihatdan to'rtinchi bosqich jamoa a'zoiarining o'ziga nisbatan yuksak axloqiy talablar qo'ya olishlari bilan ahamiyatlidir. Jamoaning hayoti va faoliyati mazmuni jamoa a'zoiarining har biri uchun shaxsiy ehtiyojga aylanadi. Jamoadagi tarbiya jarayoni o'z-o'zini tarbiyalash jarayoniga o'sib o'tadi.

Biroq, bu ayrim shaxsningsyanada rivojlanishida jamoaning tutgan o'rnini pasaytirmaydi. To'rtinchi bosqichda amalga oshiriladigan vazifalar ancha murakkab va mas'uliyatlidir. Mazkur bosqichda jamoa oldiga istiqbolli yuksak va murakkab talablar qo'yish uchun qulay sharoit yaratiladi.

#### **Adabiyotlar:**

1. "O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", "Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori"- Toshkent: Sharq, 1997-65b.
2. Karimov I.A "Yuksak m'naviyat yingilmas kuch ". Toshkent: O'zbekiston 2008. 202 b.
3. Tarbiyaviy ishlar konsepsiysi. 2005y.
4. A. Avloniy "Turkiy Guluston yohud ahloq" (nashirga tayyorlovchi Holiqov L)- Toshkent: O'qituvchi, 1992. 160b.
5. Sh. Shodmonov, M. Halimov, N. Fayzullayeva. Tarbiyaviy ishlar uslubiyati. T.2008y.

#### **15-mavzu: Tarbiya nazariyasida shaxsiy yondashuv**

##### **Reja:**

1. Tarbiya qonunlari to'grisida tushuncha.
2. Tarbiyaning umumiy usullari va uning tavsifi.
3. Pedagogik maxorat asoslari.
4. Pedagogik munosabat turlari.

Tarbiya nazariyasi-pedagogika fanining bir qismi bo'lib, tarbiyaviy jarayonning mazmuni, usuli va tashkil e'tish masalalarini o'rganadi. Tarbiya nazariyasi markaziy Osiyo faylasuflarining va xalq pedagoglarining tarbiya borasida boy tajribalariga tayanadi. U o'z qoidalarini asoslash uchun falsafa, sotsiologiya, e"tika,e'tsetika, fiziologiya, psixologiya, fanlaridan foydalanadi.

Tarbiya nazariyasi pedagogikaning tashqi bilimlari: pedagogikaning umumiy asoslari, ta'lim nazariyasi, muktabshunoslik bilan u'zviy bog'langandir. Tarbiya jarayonida kishining turli qobiliyatlari rivojlanadi, g'oyaviy, ahloqiy, irodaviy e'tsetik xislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlar tizimi tarkib topadi, jismoniy rivojlanadi. Bola o'sgan sari bu faoliyatlar takomillashadi, mutsaxkamlashadi.

##### **Tarbiya qoidalari.**

Tarbiya qoidalari pedagogik ta'lim va tarbiya jarayonini yaxshiroq tashkil e'tish maqsadida foydalanaladigan boshlang'ich holat, rahbarlik asosidir. Ta'lim qoidalari o'qituvchi, tarbiyachilarga yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi qoidalari hisoblanadi, yangi kishini shakllantirish vazifalari bilan belgilanadi. Tarbiya qoidalari sharq va markaziy Osiyo faylasuf donishmandlarining filmlari va milliy pedagogikada e'rishgan yutuqlarga asoslanadi. Tarbiyaning mazmuni, tashkil e'tishi, usullari va ularga qo'yiladigan talablar shu qoidalarda o'z ifodasini topadi.

##### **Tarbiya qoidalariiga quyidagilarni kiritish mumkin:**

-tarbiyaning ma'lum maqsadga qaratilganligi

- tarbiyaning insonparvarligi va demokratligi
- tarbiyaning hayot va mehnat bilan bog'liqligi
- tarbiyada milliy madaniy va umuminsoniy qadriyatlarining utsivorligi
- o'qituvchining yoshini va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish
- izchillik, tizimchilik, o'zluksizligi.

### **Tarbiyaning umumiy usullari.**

Bola o'qishni, tarbiya olishni, ulg'ayib jamiyatga hayotida faol ishtirok e'tishni xohlaydi. Pedagog uni qay tarzda, qanday munosabatlar sharoitida, qanday pedagogik jarayonida tarbiyalashi zarurligini bilishi kerak. O'qituvchi do'ts, murrabbiy yo'l boshlovchi bo'lgandagina o'quvchilar o'zlarining ichki adabiyotlarini ochib ko'rsatadilar. Avval ta'kidlaganimizdek, tarbiya-tarbiyachi va tarbiyalanuvchi faoliyatlarini o'z ichiga olgan ikki yoqlama jarayon. Tarbiyachilar bilimi va tarbiyaga e'ga bo'lgan qonunlar, tarbiyalanovchilar (faoliyatlarini o'z ichiga olgan) bilim va tajriba o'rganuvchi yoshlardir. Ammo tarbiyalanuvchilar muayyan darajada aktiv faoliyat ko'rsatishlari kerak.

Demak tarbiya usuli tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning xamkorligidagi faoliyat va o'zaro ta'sir ko'rsatish usullaridir.

"Metod"- so'zi grekcha bo'lib yo'l usul ma'nosini bildiradi. Tarbiya vositalari bu biron bir tarbiyaviy masalani maqsadga mufoviq yo'l bilan hal qilish ni tashkil e'tish uchun ishlataladi. Tarbiya vositalari tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish uchun o'qituvchi tarbiyachining tarbiya tizimiga kiritilishi lozim. Tarbiya natijalari tarbiyaviy jarayonining usullari, uslubi, vositalari va shakllaridan moxirona foydalanishga bog'liq. Tarbiya usullari bir bolaga, xar qaysi bolalar jamoasiga alohida munosabatda bo'lishni nazarda tutadi. SHunday qilib tarbiya jarayonida o'qituvchi yakka o'quvchiga yoki sinf manfaati yo'lida biron bir tarbiyaviy masalani hal qilish uchun o'quvchilarni yosh va individual xususiyatlarini. Tarbiyalanganlik darajasini,

pedagogik vaziyat xarakterini hisobga olgan xolda ta'sir e'tish shakllari majmuasiga tarbiya metodi deyiladi. Tarbiya g'oyatda murakkab jarayon bo'lib har davrning ijtimoiy siyosiy hayotini o'zida aks e'ttiradi. Uning usullar, shakllari, vositlari va omillari asrlar davomida shakllanib takomillashadi, an'anaga aylanadi. Shu sababli tarbiya milliy va tarixiy zamindan o'zilmasligi kerak.

### **Tarbiya usullarga tavsif.**

Xalq pedagogikasi o'zbekona axloq, odob va tarbiyaning barcha qirralarini o'zida mujasamlashtirgan. Xalq pedagogikasida qo'llanilgan juda xil tarbiya usullari mavjud.

- 1) Tushuntirish (o'rgatish, odatlantirish, mashq qildirish).
- 2) Namuna (maslahat berish, o'zr so'rash, o'rnak bo'lish, yaxshiliklar tug'risida gapirish).
- 3) Nasixat berish (undash, ko'ndirish, iltimos qilish , yolvorish, tilak itsak bildirish, ma'qullah, raxmat aytish ,duo qilish, oq yo'l tilash ).
- 4) Qoralash va jazo (ta'kidlash, ta'na, gina, tanbeh berish, majbur qilish , koyish, ont, qasam, urish, kaltaqlash va x.)

Xalq pedagogikasining nodir namunalari, tarbiya usullari va tarbiyaviy ta'sirlar muayyan vositalar orqali amalga oshirilgan. Mexmon kutish, mexmonga borish, turli mexnat jarayonlari, xasharlar, turli guringlar, musobaqalar, turli nishonlashlar, sayllar, turli marosimlar, bazmlar va b. O'ziga yos tarbiya vositasini vazifasini bajaradi. YOshlarni tarbiyalashda turli milliy an'nalar, umuminsoniy qadriyatlar asos qilib olinishi kerak. Inson qalbiga bugun e'qilgan yaxshilik o'rigi oradan 10 yil o'tgach unib chiqishini har bir pedagog ilmiy asoslab oldindan ko'ra bilish kerak. Tarbiya usullarini o'rganish, taxlil qilish , bu usullardan pedagog jarayonda foydalanish, ko'nikma va malakalarни e'gallashni osonlashtirish uchun ularni shartli ravishda bir necha guruxga bo'lib olamiz:

-Ijtimoiy ongni shakllantiruvchi usullar.

-O'z o'zini tarbiyalovchi usullar.

-Rag'batlantirish usullari.

-Jazolash usullari

#### **Ijtimoiy ongni shakllantiruvchi usullar.**

Bu guruxda o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash, e"tiqodni, ma'nnaviy va siyosiy g'oyalarni shakllantirish maqsadida ularni onggi, hislari va irodasiga ta'sir e'tish usullari kiradi.

-suhbat va hikoya

-hikoya

-namuna (qush uyasida ko'rganini qiladi)

#### **Mashq o'rgatish usullari.**

Mashq muayyan xatti harakatlarni ko'p marotaba takrorlashni o'zichiga oladi. Mashq va odatlanish o'quvchi uchun ongli, ijodiy jarayondir. Mashq natijasida ko'nikma odat, yangi bilimlar hosil qiladi. O'quvchining aqliy qobiliyati rivojlanadi. Axloqiy tajribasi kengayadi. O'rgatish ijtimoiy xulq atvorni odatiy shaklga aylantirish maqsadida tarbiyalanuvchilarning bajarilishlari uchun rejali va izchil tarzda tashkil qilinadigan turli harakatlar, amaliy ishlardir.

#### **O'rganish bir necha izchil harakatlar yig'indisidir**

Pedagogik talab tarbiyaning e'ng muhim usullaridan biridir. Talab-bu

-o'quvchining turli vazifalarini bajarishi

-ijtimoiy xulq atvor mezonlarini ifodalashi

-u yoki bu faoliyatda qatnashib bajarilishi zarur bo'lgan aniq bir vazifa sifatida namoyon bo'lishi.

#### **O'z- o'zini tarbiyalash usullari.**

O'z o'zini tarbiyalash sifatlari bola bunga tayyor bo'lganda, u o'zini shaxs deb anglay boshlagach, amaliy ishlarda mutsaqillik ko'rsata boshlagan vaqtidan boshlanadi.

O'z o'zini tarbiyalashda (axloqiy, jinsiy, intementual, xissiy-irodaviy) maslaxat va ko'nikma lar berilishi lozim.

-o'z o'zini tahlil qilish

-o'z o'zini baholash o'z o'ziga xolisona berish, qoniqish hosil qilish va x.

#### **Rag'batlantirish va jazolash usullari.**

O'quvchi bolalarning har biri o'sib, ulg'ayib, kamol topib borayotganidan xursand bo'lganini sezishi kerak. Shundagina bola o'zining olg'a siljib borayotganini ko'ra biladi, o'z kuchiga ishonadi.

#### **Rag'batlantirish quyidagi turlarga bo'linadi.**

##### **(muktublarda)**

1) O'quvchining kuchi etadigan, ma'suliyatli topshiriq berish orqali bolaga ishonch bildirish: bunda bola o'z qadr qimmati bilan faxrlanadi.

2) muktab (majlislarda)

3) e'tsalik sovg'alar berish.

4) maqtov yorlig'i berish

5) tsipendiya bilan ta'minlash.

6) hurmat taxtasiga rasmini osish

7) qo'llab quvvatlash

8) ma'suliyat va jamoaning minnatdorchiligi

9) sindfa birinchi o'rinda turish

10) musobaqlarda bayroq ko'tarish gazeta, radioda, televizorda e"lon va x.

Jazolash bu tarbiyalanuvchining xarkat va faoliyatiga salbiy baxo berish, bu oxirgi tarbiya usuli, (urish, kaltaqlash, jismoniy jazo mumkin e'mas)

Turlari.

-tanbeh berish

-xayfsand e"lon qilish

-uyaltirish.

Jazo yaxshi o'ylab qo'llanishi lozim, qizik utsida tinimsiz jazolash mumkin e'mas. Jazo yakka tartibda bo'lishi kerak ya'ni

bitta jazo aybiga mos.

### Pedagogik mahorat asoslari.

Pedagogik mahorat ta'lif va tarbiya berish sa'natini deyiladi.

Pedagogik maxoratga quydagilar kiradi:

1.Nutq madaniyati

2.O'qituvchining muomila va munosabati

3. Kommunikativ munosabat (aloqa o'rnatish) insonning qalbiga kirish qobiliyati.

'Pedagogik odob (o'qituvchi ichki va tashqi olami)

5.Pedagogik texnika:

-mimika (yuz ko'z ifodasi)

-jets (gavda va qo'l harakati)

-pantomimika (so'zsiz harakatlari)

6.Nutq texnikasi.

-nafas

-ovoz

-intonatsiya (tovushni o'zgartirish qobiliyati)

-diktsiya

-pao'za

-ritm

-tamp (sur'at)

Pedagogikada e'ng asosiy talab bu uning nutqiga bo'ladigan talab hisoblanadi.

-Nutq madaniyati deganda fikrni aniq, ravshan, tushunarli, mazmunli, ta'sirchan, chiroqli ifodalash tushuniladi. Nutq madaniyati deganda mantiqiy fikrlashning ahamiyati katta, yana so'zning qaymog'ini aytish kerak.

Birovlar gapni yog'lab gapiradi. Birovlar gapga tikanak bog'lab gapiradi.

Abdulla Qaxxor.

O'qituvchilarning nutqiga quydagi talablar qo'yiladi:

1.Ona tilini mukammal darajada bilish.

2.Sof ona tilida so'zlash madaniyatiga rioya qilish .

-tiliga kelganini aytish nodonning ishi

-oldiga qo'yganni eyish hayvonning ishi

-yaxshi gap jon ozig'i

-yomon gap bosh qozig'i

3.Adabiy tilda so'zlashish madaniyati

4. Nutq xalq maqollaridan, iboralaridan nutqlaridan foydalanish.

-Tig' yoradigan til yarasi yomon, tig' yarasi bitadi, ammo til yarasi bitmaydi.

-Bitta insonni xafa qilish ka'batulloxni vayron qilish bilan teng.

5.Nutqda hazil mutoibalardan foydalanish dunyoda e'ng yomon gunoh g'iybat qilish .

6.Nutqda qo'pol, dag'al, xunik so'zlarni ishlatmaslik kerak.

### Pedagogik munosabat va uning turlari.

Pedagogikada muomila masalasi juda nozik masala. Bir so'z bilan insonni yashnatish yoki qaxshatish mumkin.

Ibn Sino davolashda 3 xil usuldan foydalanishni taqlif qilgan.

-bemorlarni ruhiy so'z bilan ta'sir e'tish.

-dori darmonlar, giyohlar.

-jarrohlik bilan davolash.

### Munosabatning 3 turi bor.

1.Avtoritar munosabat

2.Demokratik munosabat.

3.Liberal (loqaydlik) munosabat (xamileon-buqalamun) bo'limaslik kerak so'zi avtaritet so'zlariga ma'nodosh obro saqlamoq degan ma'noni bildiradi.

-majbur e'tish

-qo'rqtish

-do'q-po'pisa

-buyruq berish

-ta'qiqlash

-o'rtal darajada jazolash

2.Demokratik talablar mexribon bo'lish.

"Siz o'z shogirdingizga shunday muomilada va munosabatda bo'lingkim, kelajakda undan buyuk inson chiqishiga ishonch ko'zi bilan qarang. (N.A.Dobralyubov)

-Mo'rabbiylik to'g'risida gapirish kerak.

Nutqda raxmat, barakalla, minnatdorman, ofarin, yaxshi uylabsiz, maql gap, tasanno va boshqa so'zlari ishlatilsa o'quvchi bilan o'qituvchilar o'rtasidagi mexr muhabbatni oshiradi, iplarni bog'laydi.

3.Liberal munosabat sovuqqonlik,ishga panja orqasidan qarash.

A.Qaxxon "M Sinchalak" asarida qoziqning uchi ham orasi ham bo'lma, sababi uchi bo'lsang erga kirasan,orqasi bo'lsang to'qmoq eysan, yaxshisi o'rtasi bo'l e'kan.

#### **Adabiyotlar:**

1. Munavvarov A.K Pedagogika, Toshkent, "O'qituvchi", 1996, 119-136
2. Tursunov I. Nishonaliev U.Pedagogika kursi:Darslik, Toshkent "O'qituvchi" 1997,172-176
3. G'aybo'llaev N.va boshqalar Pedagogika, Toshkent, 2000,38-'6 boshqalar
4. Baranov S.P.va boshqalar Pedagogika, Toshkent, "O'qituvchi" 1990.165-2'2 boshqalar
5. Savin N.V.Pedagogika,Toshkent, "O'qituvchi",1975, 171-198 boshqalar
6. Babanskiy YU.K va boshqalar.Pedagogika, Moskva 1998, 91-121-boshqalar.
7. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

#### **16-mavzu: Tarbiya jarayonida insonparvarlik**

##### **Reja:**

1. Ta'lim-tarbiya jarayonining komponentlari.
2. O'qituvchiga qo'yiladigan talablar va uning umumlashgan modeli.
3. O'z-o'zini nazorati – ta'lim-tarbiya jarayonining tarkibiy qismi.

#### **O'quv-tarbiya jarayonining komponentlari**

*Ilmiy-pedagogik va pedagogik kadrlar, ta'lim oluvchilar va uni ta'minlash uchun zarur resurslar o'quv-tarbiya jarayonining asosiy komponentlari hisoblanadi.*

**Ilmiy-pedagogik kadrlar** (7.01-rasm) yangi g'oya va bilimlarni jonlantiradilar, yuqori malakali mutaxassis tayyorlaydi. **Pedagogik kadrlar** yangi bilimlarni beradilar va shaxsnii tarbiyalaydilar. Ilmiy pedagoglar va pedagog xodimlar mexnati ijtimoiy jarayon talablari va bosqichlariga muvofiq keladigan va zarur bo'lgan aqliy salohiyatni shakllantirishni ta'minlaydi.

**Ta'lim oluvchilar**, ta'lim xizmatini talab etuvchilar sifatida oliy ta'lim (bakalavriat, magistratura)ning barcha bosqichida ma'naviy-axloqiy va kasbiy jixatdan shaxs sifatida shakllantiruvchilardir. Davlat ta'lim standartlari va resurslari vositasida ularning sifatli ta'lim olishi va kasbiy tayyorlanishi kafolatlanadi.



**1-rasm. O'quv-tarbiya jarayoni komponentlari**

Ta'lim oluvchilarning vazifasi har tomonlama rivojlangan shaxs bo'lib yetishishlari uchun oliy ta'lim tizimidagi keng imkoniyatlardan foydalanishdan iboratdir.

**OTM resurslari** quydagilardan iborat:

-*moliyalar* (byudjet va byudjetdan tashqari manbalardan olinadigan);

-*moddiy texnika bazasi*, labaratoriya va amaliy mashg'ulotlar o'tkazish uchun zarur bo'lgan;

-*kompyuter texnologiyalarining texnikaviy, matematik va programma ta'minoti*;

-*informatsiya bazasi* (darsliklar va o'quv qo'llanmalar, ko'rgazma materiallar va jihozlar va h.k.)

O'quv-tarbiya jarayonining sanab o'tilgan komponentlari kadrlar tayyorlash uchun zamin yaratadi. Ularning sifati va raqobatbardoshligi ayrim olingan xar bir komponentning va umumiy zaminning rivojlanganlik darajasiga bog'liqdir. Shunga ko'ra quyidagi savol yuzaga keladi: **o'quv-tarbiya jarayoni komponentlariga qanday talablar qo'yilishi kerak?**

Bu savolga javobni Kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dasturidan topish mumkin.

## 2. O'qituvchilarga qo'yiladigan talablar va uning umumlashgan modeli

O'qituvchi-ta'lim miqiyosida rahbar, u fanlarni o'rganishda yo'nalishlarni ko'rsatadi va ta'lim oluvchilarni tarbiyalaydi.

Kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dastur maqsad va vazifalarni xal etish birinchi galda quyidagi talablarni qo'yadi:

-*oliy ta'lim tizimidagi o'qituvchilar, ilmiy kadrlar, xodimlar, kasbiy-malakaviy, madaniy-ta'limiy, iqtisodiy va huquqiy darajasini oshirish*;

-*davlat va ijtimoiy muxofazasini takomillashtirish, shuningdek tarbiyachi, O'qituvchi va ilmiy xodim kasbi obro'sini ko'tarish*.

Uzluksiz ta'lim tizimini islox qilish muammolari hakida so'zlab, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A. Karimov

shunday degan edi: «O'qituvchilar va tarbiyachilarning turmush ehtiyojlarini ta'minlashimiz, kasblari obro'sini ko'tarish uchun ular mehnatini rag'batlanadirishimiz lozim». Yana davom etib: «... uni (mazkur muammoni) xal etmay kelajak avlod tarbiyasi haqida gapirish xech qanday ma'no kasb etmaydi».

O'qituvchi mehnatining ustivorligi uch «nuqtaga tayanadi»:

**-birinchisi** - o'qituvchining malakasi, madaniy va ma'naviy darajasi;

**-ikkinchisi** - ta'lim oluvchilar savodliligi va kasbiy malakasi uchun o'qituvchilarning ma'naviy javobgarligi;

**-uchinchisi** - moddiy va ijtimoiy ta'minot, kelgusi avlodni garmonik rivojlanishga tayyorlashda o'qituvchi mehnatining ahamiyati, malakali kadrlar tayyorlash orqali iqtisodiyotni ko'tarishdagi o'rni.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida mujassam talablar qo'yiladi, bular **zamonaviy o'qituvchi modelini** umumiy tarzda tashkil etadi (7.02-rasm). quyidagilar asosiy talablar hisoblanadi:

-*o'qituvchi uddasidan chiqish (kod 1.00)*<sup>1</sup>

-*tarbiyalashning uddasidan chiqish (kod 2.00)*;

-*shaxsiy sifatlar (kod 3.00)*;

-*ta'lim oluvchilar bilimini obyektiv baholash va nazorat qillishning uddasidan chiqish (kod :00)*

**O'qituvchining uddalay olishiga** o'z navbatida ko'pgina muhim omillar ta'sir etadi:

-*o'quv jarayonini qo'llab-quvvatlash va uning muhiti (1.01)*;

-*o'qituvchilarning ruhiy-pedagogik tayyorgarligi (1.02)*;

-*kasbiy ma'lumot manbai sifatida chet tillarini bilish (1.03)*;

-*fanni chuqur bilish, kasbiy vakolatlilik va iqtidor (1.0')*;

-*yangi pedagogik texnologiyalardan xabardorlik (1.05)*;

-*ilmiy-metodik (1.06) va ilmiy-tadqiqot ishlari (1.07) yangi*

<sup>1</sup> Talablar majmuini kodlashdan o'qituvchi kadrlarini o'z-o'zini attestatsiyadan o'tkazishi bo'yicha so'rovnomalar ishlash chiqishda, shuningdek anketlashtirish natijalarini tahlil qilishda foydalanildi

*metodik va bilimlar manbai sifatida;*  
-o'z ishini takomillashtirishga muntazam intilish (1.08);  
-uzluksiz ta'limgizni meyoriy hujjatlarini yaxshi bilish  
.09);  
-kompyuter texnologiyasini egallagan bo'lish (1.10);  
-informatsiya bazasi (1.11) va resurslar (1.12).

**Tarbiyalashning uddasidan chiqish o'qituvchining madaniyati va ma'naviyati (2.01), uning shaxsiy xulq-atvori va obro'siga (2.02), vatanparvarlik va burchni xis etishiga (2.03) yuqori darajasiga tayanadi.** Ta'limgiz oluvchilarda yaxlit olam qiyofasini, yuqori madaniyat, ma'naviyat va jaxon miqiyosida fikrlashni shakllantirish uchun o'qituvchi keng *gumanitar* va *insonparvarona tayyorgarlikka* (2.0'), shuningdek o'quv tarbiya ishini tashkil qilish malakasiga (2.05) ega bo'lishi lozim.

**Shaxsiy sifatlar** bo'lib, o'qituvchidagi *talabchanlik* (3.01) va *adolatlilik* (3.06) va *xayrioxlik* (3.05), *mulozamatlilik* (3.07) va *mutoyibani xis etish* (3.03) hisoblanadi. Bu sifatlar ta'limgiz oluvchilar uchun o'qituvchining *referentligi* (qadrililigi)ni (3.0') belgilaydi.

**Obektiv baholashning uddasidan chiqish** ta'limgiz oluvchilarning biliimi ruhiy – pedagogik ma'noda o'qita bilishlik va tarbiyalay olishlik bilan chambarchas bog'liqdir.

Obyektiv baholash vositalariga nimaiki taalluqli bo'lsa, o'qituvchi ularni bilishi shart va a'lo darajada foydalanishi lozim.

Bu reyting nazorat ('.01), standartlashtirilgan testlarni ishlab chiqish va qo'llashni uddalay olish ('.02) va b.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablaridan kelib chiqadigan o'qituvchining umumlashma modeli shundan iborat. Mazkur model olyi ta'limgiz o'qituvchilariga mos kelishi kerak.

Ana shu muvofiqlikka erishish uchun, avvalo, «**O'qituvchi kim bo'lishi kerak?**» degan savolga javob berishi zarur. Shundan keyin malaka oshirish yoki o'qituvchilarini, ya'ni mazkur muvofiqlikni ta'minlovchi qayta tayyorlashning zarur

xajmi va mazmuni belgilanadi.

### **Resurslarga qo'yiladigan talablar**

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta'limgiz jarayonining resurslarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilgan. Bular ta'limgiz talab etiladigan darajasi va sifatini, yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash tizimini faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishi lozim.

Byudjetdan va byudjetdan tashqari **manbalardan moliyalashning ko'p variantliligi** ko'zda tutiladi. Bu o'qituvchilik faoliyatining obro'si va ijtimoiy mavqeini oshirishni ta'minlaydi.

Katta e'tibor xaq to'lash asosidagi ta'limgiz xizmati, tadbirdorlik, konsultatsiya, ekspert, noshirlik, ilmiy va ishlab chiqarish faoliyatlariga qaratilmoqda, bular oliy ta'limgiz muassasasi oldiga qo'yilgan vazifalariga muvofiq amalga oshiriladi. Oliy ta'limgiz va kadrlar tayyorlash tizimini moliyaviy va moddiy qo'llab-quvvatlovchi xomiylar va donorlarning ahamiyati oshmoqda.

Ta'limgiz oluvchilar uchun keyinchalik qaytarishning qulay yo'llari va tizimlarini ishlab chiqqan xolda **ta'limgiz kreditlari** berish vositalarini bunyod etish ko'zda tutilmoqda. Bu kreditlar yoshlarning keng qatlami uchun kasbiy ta'limgizning barcha turlarini egallashlariga keng imkoniyat beradi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta'limgiz barcha turlari uchun moddiy-teknikaviy, kompyuter va informatsiya bazasini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu masalani xal etishning muhim vositalaridan biri bo'lib, malakali kadrlar tayyorlashda **ta'limgiz, fan va ishlab chiqarishni samarali uyg'unlashuvini** ta'minlash hisoblanadi. Shu ma'noda fan va ishlab chiqarish kadrlar buyurtmachisi sifatida namoyon bo'lmay, balki ularni fan, texnika, texnologiya, iqtisod va madaniyat eng yangi yutuqlari asosida tayyorlashda ham teng huquqli qatnashchi bo'lishi kerak.

Ta'lim va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning talab etilayotgan sifatini ta'minlash uchun zarur resurslarni belgilashda birinchi galda quyidagi savolga javob topish lozim: Ta'lim muassasalari qanday resurslarga ega?

### **O'z-o'zini nazorat-o'quv-tarbiya jarayonining tarkibiy qismi**

#### ***o'qituvchi kadrlarni baholash tamoyillari***

O'qituvchi kadrlar faoliyatini baholash ta'lim jarayonini takomillashtirishda muhim vosita hisoblanadi. O'z bahosini bilish o'qituvchi shaxsini shakllantirishga ijobjiy ta'sir etadi, o'z fanini yanada chuqurroq bilishga qiziqish uyg'otadi va pedagogik mahoratini oshirishga ishtyoqni rivojlantiradi. Shu bilan birga, agar baholash muntazam va obyektiv o'tkazilsa, bunda u nazorat, ma'suliyatni tarbiyalash va individual salohiyatni rivojlantirishning ta'sirchan vositasiga aylanadi. Ta'biyki, mehnatga xaq to'lash tizimi bilan bog'liq bo'lgan baholashning motivli jihatni bo'lishi lozim.

O'qituvchi faoliyatini baholash ancha murakkab masaladir. Garchi, bozor munosabatlari sharoitida o'qituvchi faoliyatining samarasini u tayyorlagan mutaxassislarga bo'lgan **talab va qiymat** belgilashi mumkin masala bo'lsa-da. Biroq, bu juda ham shunday emas. Birinchidan, mutaxassis (oliy ta'lim muassasasining bitiruvchisi)ni bitta o'qituvchi emas, balki jamoa tayyorlaydi. Ikkinchidan, ko'pincha mutaxassis tayyorlash bo'yicha muayyan pedagogik faoliyati bilan uning yakuniy natijasi o'rtasidagi vaqt oralig'i katta miqdorni tashkil etadi, ya'ni qayta aloqa ancha kechikib harakatga keladi.

Extimol, o'qituvchi faoliyatini baholash aniq vaqt miqiyosida amalgalash oshirilishi kerakdir va «**«o'qituvchi (pedagogik faoliyat subyekti)-kasbiy pedagogik faoliyat-ta'lim oluvchi (pedagogik faoliyat obyekti)»** tiziminining *integral ko'rsatkichi* bo'lishi lozimdir.

Yuqorida keltirilgan tamoyilga ko'ra o'qituvchi faoliyatini baholashning biri bo'lib **attestatsiya** hisoblanadi (7.03-rasm).

Bu ta'lim muassasasi ma'muriyati va (yoki) ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat idorasi tomonidan o'tkaziladi.

O'qituvchi faoliyatini yana bir muhim baholash turi bo'lib uni o'z-o'zini baholashi - o'z-o'zini attestatsiyalashi hisoblanadi. Bu ta'lim va tarbiya jarayonidagi uning faoliyati barcha yo'nalişlarini (7.03-rasm), shuningdek shaxsiy sifatlari va ta'lim oluvchilar bilimini obyektiv baholashning uddalay olishini o'z ichiga oladi.

*Ta'lim oluvchilarning va ular ota-onalarining fikrini o'qituvchi faoliyatini baholashda istisno etish mumkin emas (asosan umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasbiy ta'lim tizimida).*

O'qituvchi faoliyatini baholashning sanab o'tilgan turlari *integral ko'rsatkichi* belgilash asosida yotadi. So'nggisi o'qituvchi kim bo'lishi kerak? degan savolga muayyan darajada aniq javob beradi.

#### ***O'qituvchi kadrlarning o'z-o'zini nazorat qilish vositasи***

TASIS loyixasi doirasida o'qituvchilar o'rtasida *so'rov o'tkazish* yo'li bilan ularni o'z-o'zini attestatsiyalash vositasini ishlab chiqilgan. Mazkur so'rovning asosiy tamoyili-uning *xusfiyaligi*. Bu o'qituvchilar anketadagi barcha savollarga obyektiv javob berishlarining garovidir.

Tavsiya etilayotgan anketa majmui (1-ilova) iquituvchi iquv-tarbiya faoliyatiga taaluqli barcha masalalar kilamini qamrab oladi. Savollarning mazmuni iquituvchi umumlashgan modeli talablariga asoslanib belgilangan (7.02-rasmga qarang). Anketa savollarining kipchilik qismi Yopiq xisoblanadi va muayyan javoblar tiplamiga ega, shulardan bittasini iz xoxishi bo'yicha tanlash lozimdir.

**Birinchi anketa** iquituvchi xaqidagi umumiy ma'lumotlar bo'yicha savollarning iz ichiga oladi:

- *pedagogik faoliyat staji;*
- *fan (fanlar)ni iqidish bilan bo'Yoliq ish staji;*
- *iqitilaYotgan fanga (Yoki fanlarga) tayanch ma'lumotining muvofiqligi;*

*-ruxiy-pedagogik ma'lumotning xajmi va darjasи va b.*

**Ikkinci anketa** iqtuvchining o'quv tarbiya jarayonini amalga oshirishdagi axvolini, xususan, tayyorlanganlik, o'ziga *ishonganlik, qanoatlanganlik, kayfiyat* va b. xolatlarini aks ettiradi. «**Men dars o'tayotganda ko'pincha shuni xis etamanki...**» anketaning asosiy mazmuni tashkil etadi. Keyingi bayon to'rt bosqichda taklif etiladi: **rozman** (reyting 5 ball), **deyarli roziman** (' ball), **deyarli noroziman** (3 ball) va **rozi emasman** (2 ball).

**Uchinchi anketa** ta'lim va tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish uchun o'qituvchi nimalar qilishi kerakligi bilan bog'liq savollar bo'ladi. Bunda asosiy e'tibor pedagogning o'qitishni uddalashi, tarbiyani uddalashi va obyektiv baxolashni uddalashiga qaratiladi. Anketaning asosiy moxiyatini «**Ta'lim va tarbiya samaradorligini oshirish uchun siz nima qilasiz?**» savolni tashkil etadi. Mazkur anketa savoliga javob to'rt darajada taklif etiladi: **ko'pincha** (5 ball), **deyarli ko'pincha** (' ball), **kamdan-kam** (3 ball) va **xech qachon** (2 ball).

**To'rtinchi anket** anketaning asosiy moxiyatini «**O'qituvchi o'zi xaqida tashkil etadi**». Buning tarkibiga bir qator savollar (yoki ta'kidlar), kiradi, bular o'qitishni uddalash, tarbiyani uddalash, shaxsiy sifatlar va obyektiv uddalash xamda o'qituvchilar bilimi ustidan nazoratni tavsiflaydi. Anketa A shkalasi va V shkalasiga ega.

**A shkala** bo'yicha o'qituvchi bir qancha o'ziga taalluqli u yoki bu ta'kidlarga javob beradi. Bu shkala bo'yicha javoblar to'rt darajada taklif etiladi: **to'la taalluqli** (5 ball), **qisman taalluqli emas** (3 ball) va **taalluqli emas** (2 ball).

**V shkala** taxmin qilinayotgan eng yaxshi o'qituvchiga taalluqli va: **Unga u yoki bu ta'kidlar qanchalik muhim?** Tamoyili asosida tuziladi. Mazkur shkalaga ham javoblar to'rt darajada beriladi **muhim** (5 ball), **muhimroq** (' ball), **deyarli muhim emas** (3 ball) va **muhim emas** (2 ball).

**Beshinchi anketa** A va V shkalalaridan iborat bo'lib,

o'qituvchi o'z-o'zini attestatsiyalashiga bilvosita taalluqlidir. Unga (V shkalaga) ko'ra o'qituvchi uddalay olishining talab etiladigan darajasiga erishishga imkon beruvchi malakasini oshirishlik shakllari va yo'nalishlari haqidagi o'zfikri aniqlanadi. Bunda savollar javoblar to'rt darajada taklif etiladi: muo'im emas (2 ball), deyarli muhim emas (3 ball), deyarli muhim (' ball) va muhim (5 ball). A shkalasi bo'yicha o'qituvchi biror shakl (yo'nalish) bo'yicha malaka oshirishdan o'tgan yilini belgilaydi.

Beshinchi anketada yopiq savollar bilan bir qatorda uchta ochiq savol ham mavjud. Unga muvofiq o'qituvchi malaka oshirishning uchta eng kuchli va uchta zaif tomonlarini, shuningdek uni takomillashtirish bo'yicha o'z istaklarini bildirishi lozim.

#### **Ta'lim oluvchilar va ular ota-onalari so'rovnomasi**

Yuqorida ta'kidlanganidek o'qituvchi faoliyatini baholashning muhim unsuri bo'lib, ta'lim oluvchilar va ularning ota-onalaridan so'rov o'tkazish hisoblanadi. Bunday so'rovning asosiy tamoyillaridan biri bo'lib xufiyalik hisoblanadi.

Ta'lim oluvchilar uchun uchta anketa ko'zda tutilgan (2-ilova) bularning savollari o'qituvchi umumlashgan modeli va o'quv-tarbiya jarayonini amalga oshirish bilan bog'liq.

**Birinchi anketa** o'z ichiga ta'lim oluvchilar to'g'risidagi umumiyl ma'lumot bo'yicha savollarni o'z ichiga oladi, ya'ni:

- o'smir va qiz;
- ta'lim muassasasining turi;
- sinf (maktabda) yoki kurs (OTM da);
- o'zlashtirish darjasи va b.

**Ikkinci anketadagi** savollar ta'lim muassasasi resurslarini va o'quv tarbiya jarayonini amalga oshirish sharoitlari (qo'llab-quvvatlash va muhit)ni tavsiflaydi. Anketaning mazmunini: «**Ta'lim muassasasi ta'lim oluvchilar nazarida**» tashkil etadi. Anketadagi bu savolga javob uch darajada taklif etiladi: **mening ta'lim muassasamga o'xshaydi**

(5 ball), **kam o'xshaydi** (3,5 ball), **mutlaqo o'xshamaydi** (2 ball).

**Ikkinchি anketa** bo'yicha yopiq savollar bilan bir qatorda ikkita ochiq savol ham bor unga ko'ra ta'lism oluvchilar ta'lism muassasasida *o'zlariga nima ko'proq va nima yoqishligini belgilashlari lozim*. Har bir savol bo'yicha uchtadan javob kerak.

**Uchinchi anketaning mohiyatini «o'qituvchilar ta'lism oluvchilar nazarida»** tashkil etadi. Bunga bir qator savollar kiradi va ular *o'qitishni uddalash, tarbiyani uddalash, shaxsiy sifatlar va obyektiv baholashni uddalash xamda ta'lism oluvchilar bilimini nazorat qilish tavsiflanadi*. Bunda savollarning ko'pchiligi **«o'qituvchi o'zi haqida»** anketadagi savollarga ayni bir muammo bo'yicha fikrlarini taqqoslashga imkon beradi. Mazkur anketada savollarga javoblar to'rt darajada taklif etiladi: **barchasi** (5 ball), **deyarli barchasi** (' ball), **oz** (3 ball) va **hech kim** (2 ball).

Ota-onalar uchun (asosan umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasbiy ta'lism tizimida) anketa (3-ilova) nazarda tutilgan bo'lib, undagi savollar *o'qitishni uddalash, tarbiyalashni uddalash va o'qituvchi shaxsiy sifatlari* bilan bog'liq, shuningdek bolaning o'qish sharoitlariga taalluqli. Qo'yilgan savollarga javob to'rt bosqichda taklif etiladi: **xa** (5 ball), **deyarli xa** (' ball), **deyarli yo'q** (3 ball) va **yo'q** (2 ball).

Anketada ota-analar uchun bitta ochiq savol bor bo'lib, u ta'lism muassasasining ishini yaxshilash bo'yicha takliflar bilan bog'liq.

### **Resurslar bo'yicha o'z-o'zini baholash**

O'quv tarbiya jarayoning **resurslari bo'yicha o'z-o'zini baholash** uning bevosita ishtirokchilari - *o'qituvchilar va ta'lism oluvchilar* tomonidan amalga oshiriladi.

Bunda ota-onalarning fikri, ayniqsa o'rta maxsus, kasbiy ta'lism tizimida, muhimdir. Bunday o'z-o'zini baholashni o'tkazish uchun o'qituvchilar, ta'lism oluvchilar va ularning ota-onalari uchun anketalarga o'quv-tarbiya jarayoni resurslari

bilan bog'liq savollar kiritilgan.

**O'qituvchilar** moddiy texnika va informatsiya bazasini (darsliklar, o'quv-qo'llanmalari va b.), mehnat sharoiti va uni moddiy rag'batlantirish va x. larni baholaydilar (1-ilova).

**Ta'lism oluvchilar** o'quv-tarbiya jarayoni resurslari butun majmui baxolaydilar (2-ilova):

- umuman o'quv muassasasining ahvoli va undagi xavfsizlik;
- auditoriya (sinflarning ahvoli va ularning zarur jihozlar bilan ta'minlanganligi;
- laboratoriya va amaliy ishlarni o'tkazish uchun moddiy texnika bazasi;
- ma'lumotlar jamlanmasi;
- umumiy ovqatlanish va tabbiy xizmat;
- sport bazasi va b.

Ta'lism oluvchilarning **ota-onalari** asosan o'quv-tarbiya jarayoni amalga oshiriladigan sharoit: *o'quv muassasasidagi tozalik va tartibga rioya qilish, xavsizlik, umumiy ovqatlanish, tibbiy xizmat va b.*ni baholaydilar (3-ilova).

### **5. O'z-o'zini nazorat qilish ta'lism muassasasini takomillashtirishning asosi sifatida**

Anketalar majmui bo'yicha javoblarning tahlil natijalari<sup>1</sup> ta'lism muassasasini **rivojlantirish** rejasini ishlab chiqish taysiyalari uchun, shuningdek o'quv-tarbiya jarayoni sifatini oshirish bilan bog'liq yo'nalishlariga asos hisoblanadi:

- o'qituvchi kadrlar malakasini oshirish va (yoki) ularni qayta tayyorlash;*
- o'quv-tarbiya jarayonini amalga oshirish sharoitlarini takomillashtirish;*
- laboratoriya va amaliy ishlarni moddiy-texnika bazasini takomillashtirish;*
- ma'lumotlar bazasini rivojlantirish (darsliklar, o'quv va ko'rgazma qurollari va b.);*
- o'qituvchilar va ta'lism oluvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda manaviy-ruhiy muhitni yaxshilash;*

-ta'lim oluvchilar bilimi, uquvi va malakasini obyektiv nazorat qilish va baholash tizimini rivojlantirish;  
-tarbiyaviy ishlarni takomillashtirish.

Tavsiyalar o'qituvchi umumlashgan modeli tuzilishi (omillar bo'yicha) muvofiq tarzda beriladi. Bunda tavsiyalar bilan birgalikda ularni amalga oshirish vositalari va yo'nalishlari ham kiritiladi.

Ta'lim muassasasini takomillashtirish borasidagi keyingi qadam bo'lib, ajraluvchi chulg'amlar bo'yicha rivojlantirish **rejasini amalga oshirish, keyingi o'z-o'zini attestatsiyalash, rivojlanishning yangi rejasini** va boshqalar hisoblanadi. '05-rasm. Mazkur turkum o'quv-tarbiya jarayonining sifatini oshirishda asos bo'lib hisoblanadi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash lozimki, oliy ta'lim muassasasini boshqarishning muhim vositasi bo'lib, o'quv-tarbiya jarayonini ta'lim xizmatini amalga oshiruvchilar (ilmiy-pedagog va pedagog kadrlar) va iste'molchilar (ta'lim oluvchilar, ularning ota-onalari, kadrlar buyurtmachilari) tomonidan o'z-o'zini nazorat qilish hisoblanadi. Uning asosida o'quv-tarbiya jarayonining barcha jihatlarini qamrab oluvchi savollar majmui bo'yicha anonim tarzda anketalashtirish yotadi. O'z-o'zini nazorat natijasini hisobga olgan xolda rahbar jamoa tashkilotlarining vakillari bilan hamkorlikda OTMni rivojlantirish rejasini ishlab chiqadi va uni bajarishni tashkil qiladi.

## 17-mavzu Tarbiya jarayonida bunyodkorlik g'oyalari

### Reja:

1. Bunyodkor g'oyalari va mafkuralarning jamiyat hayotidagi ijobiy ta'siri.
2. Bunyodkorlik g'oyalarning tasnifi.

G'oya va mafkuraning tarixiy shakllarini, mazmumohiyatini azal-azaldan ezgulik va yovuzlik, bunyodkorlik va vayronkorlik o'rtasidagi kurash dialektikasi belgilab keladi, ya'ni bosqinchilik, boshqalar hisobidan boyish, tajovuzkorlik, aqidaparastlik mafkuralariga qarama-qarshi o'laroq, ozodlik, mustaqillik va adolat g'oyalari uzluksiz maydonga chiqib, xalqlarning muzaffar bayrog'iga aylangan. Bunyodkorlik g'oyalari insonni ulug'laydi, uning ruhiga qanot bag'ishlaydi.

**Bunyodkor g'oya deb, insonni ulug'laydigan, uning kuch-g'ayrati va salohiyatini oshirib, xalqi, Vatani, butun insoniyat uchun foydali ishlarni qilishga safarbar etadigan, o'zida mehnat, taraqqiyot, do'stlik, tinchlik, adolat, halollik kabi ezgu maqsadlarni mujassam etadigan g'oyaga aytildi.**

Bunyodkorlik g'oyalari yurtni obod, xalq hayotini farovon qilishdek oljanob maqsadlar bilan ajralib turadi. Ular insoniyat sivilizatsiyaga erishgan davrlardan buyon jamiyat hayotining eng ezgu g'oyalari sifatida yashab kelmoqda. Prezident Islom Karimovning «O'zbek tom ma'noda bunyodkordir» degan so'zlarida ham ana shu boqiy g'oyalarning ma'no-mazmuni o'z ifodasini topgan. Bunday bunyodkorlik xalqimizga otabobolaridan merosdir.

Insoniyat tarixida odamlar ongi va shuuriga adolat, haqiqat, ezgulik, mehnatsevarlik kabi yuksak g'oyalalar urug'ini sepgan zot, payg'ambar Zardo'sht yaratgan «Avesto» kitobida quyidagi satrlar mavjud: «Ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu ishlarni bilan ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu ishni alqayman. O'zimni bori engu fikrga, ezgu so'zlar (aytish)ga, ezgu ishlarni amaliga baxshida

qilaman, barcha yomon fikrlardan, yomon so'zu yomon ishlardan yuz o'giraman». Bu yuksak g'oyalar bundan 2700 yil muqqaddam yashab o'tgan vatandoshimiz Zardushtning o'lmas mafkurasi edi.

Insoniyat doimo yaxshilikni yoqlab, yomonlikka qarshi kurashadi, yaratuvchanlik va bunyodkorlik unga xos bo'lgan buyuk fazilatlardir. Sharq xalqlarining buyuk ijodkorligi, bunyodkorligi va qadriyatlari turli davrlar ta'sirida g'arbga, xususan, antik Yunon-Rim madaniyatiga ham kuchli ta'sir ko'rsatdi. Ana shunday ta'sir ostida Yunon-Rim madaniyati, ilm-fani, falsafiy tafakkur dunyosi shu qadar yuksaldiki, o'sha davrda yaratilgan shoh asarlar va ularning mualliflari merosi hanuz bashariyatning ezgu ishlariga xizmat qilib kelmoqda. Shu ma'noda, komil ishonch bilan aytish mumkinki, insoniyatning haqiqiy umumbashariy madaniyati g'arb sivilizatsiyasi va Sharq ma'naviyatining qo'shilishi asosida yaratilgan.

Hayotning, borliqning mohiyatini anglash to'g'risidagi **buddizm** dini-ning asoschisi Siddhartxa Gautama qarashlari muhim o'rinn tutadi. Har qan-day insoniy tuyg'u, hissiyot, ehtiros va istak azob-uqubatlarni chuqurlashti-radi. Hayot mazmunan tug'ilish, sevish, o'lim, azobdan iborat. «Borliq girdobi»dan chiqib olish uchun g'aflatdan uyg'onish, dunyo mohiyatini anglash, hayotga chanqoqlikdan, ko'ngilxushliklarga, lazzatlarga, hokimiyatga, boylikka intilishlardan voz kechish lozim. Faqat shundagina «najot topish yo'li»ga kirish mumkin. Inson beshta axloqiy talabga amal qilishi lozim: har bir kishi yomonlik qilishdan, yolg'on gapirishdan, o'g'irlilik qilishdan, xis-tuyg'ularga ortiqcha berilishdan, ichkilikdan o'zini tiyishi kerak. S.Gautama quyidagi 8 ta ongli xarakatni ilgari suradi:

- 1.E'tiqod to'g'ri shakllangan bo'lishi.
- 2.Maqsad sari qat'iy xarakat qilishi.
- 3.To'g'ri tafakkur va nutq bo'lishi.
- 4.To'g'ri fe'l-atvor bo'lishi.
- 5.To'g'ri turmush tarzi bo'lishi.

- 6.Kuch-g'ayratning to'g'ri maqsadga qaratilgan bo'lishi.
- 7.Fikr, maqsadning to'g'ri yo'naltirilgan bo'lishi.
- 8.Diqqat-e'tiborni to'g'ri orzu-niyat qilishga qaratish kerakligi ta'kidlanadi.

**Suqrot** (Sokrat, mil. av. '70-399 yy.) esa bahs orqali, ya'ni muayyan masalalarni o'rtaqa qo'yish va ularga javob topish yo'li bilan haqiqatni aniqlash mumkin, deb bilgan. U ezgulik - bilim va donishmandlikdir, yaxshilik mohiyatini to'g'ri anglagan insongina yaxshilik qiladi, deb tushuntiradi. Suqrot adolatga xilof bo'lgan davlat boshqaruvining hamma shakllarini tanqid qiladi, faqatgina adolatli, demokratik davlat boshqaruvini yoqlab chiqadi.

Masalan, A.Makedonskiyning ustozi, o'zining bu jahongir shogirdi Osiyoni mahv etgach, unga yuborilgan «Avesto» kitobini chuqur o'rgangan Yunon faylasufi va qomusiy olimi

**Arastu** (Aristotel, mil. av. 38'-322 yy.) o'z g'oyaviy qarashlarida ustozi Aflatun (Platon, mil. av. '27-3'8 yy.) g'oyalarini boyitdi va unga muhim o'zgartishlar kiritdi. U jamiyatda bo'lib o'tayotgan barcha vogeliklar tabiatga xos deb biladi. Bu bilan jamiyatni tubdan o'zgartirish g'oyalariga qarshi chiqadi va jamiyat rivoji tabiiy jarayonlar tarzida kechishi kerak, deb hisoblaydi.

Suqrotning shogirdi Aflatun esa g'oyalar umumiyligi tushunchalar sifatida odam aqliga bog'liq emas, balki u ilohiy tushunchalar deb izohlagan edi. Uning asosiy g'oyasi - ezgulik yoki yagonalik edi. Bunda oliy g'oya ko'pincha xudoga tenglashtiriladi.

Xitoy va hind mutafakkirlarining jamiyat rivoji haqidagi qarashlari va bunyodkorlik g'oyalari ham Osiyoning «*sharqona*» ma'naviyatida o'ziga xos o'rinn tutadi. Jumladan, buyuk Xitoy mutafakkiri **Konfutsiy** (mil. av. 551-'79) g'oyalari hanuzgacha Xitoy xalqi mafkurasida etakchilik qilib kelmoqda. Bu g'oyaning asosi jamiyatni har qanday ijtimoiy larzalardan asrab qolish va insonlar manfaatini yuqori qo'yishga qaratilgan. Allomaning maqsadi xalqni mavjud tartib-qoidalarni hurmat qilish ruhida

tarbiyalash bo'lgan. Bu g'oyaga ko'ra, insonlar jamiyatning tabiiy taraqqiyotiga qarshi chiqmasligi, ya'ni inqilobiy yo'lni tanlamasligi kerak. Konfutsiy insoniyat haqida fikr yuritar ekan, odamlar ijtimoiy kelib chiqishi yoki jamiyatdagi mavqeい orqali emas, balki odamiylik, adolatparvarlik, haqgo'ylik, samimiyat, farzandlik izzat-hurmati kabi yuksak ma'naviy fazilatlarga erishish tufayli kamolatga etishuvi mumkin deb, hisoblaydi. Bunday «sharqona demokratiya»ning tamoyillarini o'zida aks ettirgan g'oyalalar butun-butun davlatlarning uzoq yillar davomida barqaror yashab qolishiga sabab bo'lgani, Sharq xalqlarining tarixiy, ijtimoiy, siyosiy taraqqiyotiga o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatgani shubhasiz.

Sharqda, ya'ni Turon zaminda esa jamiyat rivoji va buniyodkorlik g'oyalari xususida Abu Nasr Forobi, Ibn Sino, Alisher Navoiy qarashlari o'ziga xos o'rinn tutadi. «Al-muallim as-Soni» («Ikkinchi muallim»), Sharq Aristoteli deb nom olgan **Abu Nasr Forobi** (873-990 yy.) o'zining «Fozil odamlar shahri», «Fuqarolik siyosati», «Baxt saodatga erishuv haqida» kabi asarlarida olijanob jamiyat, adolatli tuzum haqidagi o'z fikr-mulohazalarini bayon qilib, o'z davri uchun izchil ta'llimot yaratdi. U har tomonlama etuk, barcha aholini baxt-saodatga, ilm-ma'rifatga olib boruvchi ideal jamoa haqidagi g'oyalarni olg'a surdi.

O'sha davrning buyuk mutafakkirlari Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali ibn Sinoning bu boradagi qarashlari ham o'ziga xosdir. Ular har bir narsani kuzatish va tajriba asosida o'rganishga, keyin xulosa chiqarishga intilganlar, barcha buniyodkorlik insonning mehnatiga bog'liqligini ta'kidlaganlar. Buyuk o'zbek shoiri, mutafakkiri va davlat arbobi Alisher Navoiy esa o'z asarlari bilan jamiyat taraqqiyotining zamonasiga xos fazilatlarini yoritishga harakat qilgan. U she'rlari va dostonlarida razolatga, beqarorlikka, urushu janjallarga, ma'rifsizlikka qarshi kurash g'oyalarni ulug'laydi. Insonlarni mehnatga, yaratuvchanlikka, adolatga chaqiradi. Ma'rifatga asoslangan jamiyat yaratishni

orzu qiladi. Uning bu orzulari «Farxod va Shirin», «Saddi Iskandariy» kabi dostonlarida o'z ifodasini topgan. Shoirning bevosita o'zi ham qator buniyodkorlik ishlariga bosh-qosh bo'lgan.

Ko'hnha Turon o'z boshidan buyuk tarixiy voqealar ichida Amir Temurning buniyodkorlik g'oyalari va amaliy faoliyati katta ahamiyatga ega. U garchi fotihlar qatoridan o'rinn olib, behisob jangu-jadallarni boshidan kechirgan bo'lsa-da, asosiy maqsadi buniyodkorlik va yaratuvchilik bo'lgan. Jumladan, u «Temur tuzuklari»da: «Agar fuqarodan birining uy-imorati buzilib, tuzatishga qurbi etmasa, kerakli uskunalarni etkazib berib, unga yordam berilsin», deb ko'rsatma beradi. Shu o'rinda, yurtboshimizning Amir Temur o'z davlatini aql-zakovat va huquqiy asos bilan idora etgan, desak, adolatdan bo'ladi, degan fikrlari nihoyatda o'rinnlidir. Zero Sohibqironning Mavarounnahr, Xuroson va boshqa joylarda buniyod etgan inshootlari, uning o'zi va temuriylar sulolasi davridagi madaniyat, fan, adabiyot sohasidagi yutuqlar bunga misol bo'la oladi.

Hind xalqining buyuk farzandi **Mahatma Gandhi** (1869-19'8) o'z ma'naviyati, g'oyalari va ilg'or qarashlari bilan XX asrning buyuk shaxslaridan biriga aylangan. U mustamlakachilarga qarshi kurashning timsoli edi. U hindlar bilan musulmonlarning o'zaro do'stligini mustahkamlashga intildi. Gandhi din bilan siyosatni bir-biriga bog'lashga harakat qildi. Unga xalq «Mahatma» - «Buyuk qalb» deb nom bergani ham shundan bo'lsa, ajab emas. R.Tagor fikriga ko'ra: «Gandi muvaffaqiyatining siri uning jo'shqin ma'naviy kuchida va behad darajada o'z manfaatlardan voz kechishidadir. U o'zining oli himmatliligi bilan noyobdir. Gandhi hayotining o'zi fidoyilik timsolidir».

Milliy davlatchilik g'oyasi va uning xalqlar taraqqiyotiga ijobiy ta'sirini mustaqil O'zbekiston misolida ham yaqqol ko'rish mumkin. O'zbekistonning xalqaro hamkorlik, mintaqaviy tinchlik, millatlararo totuvlik borasida olib borayotgan siyosati

barqarorlik hukm surishiga asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Bunday jarayon bugungi dunyoda amaliyot falsafasi deb tan olingen **pragmatizm** (*yunon. sub'ektiv-idealistik falsafiy ta'limot, voqelikni tajriba «ong oqimi» deb talqin etadi*), hayot falsafasi bo'lgan **ekzistentsializm** (*lat. mayjudlik falsafasi, erkinlikka erishish ma'nosida*) kabi dunyoviy va diniy g'oyalardan oziqlangan ta'limotlar misolida ham ko'zga tashlanmoqda.

Ilmiy kashfiyotlar mafkura rivojiga katta ta'sir o'tkazadi. Zamonaviy fan yutuqlari, jumladan, kosmonavtika, kibernetika sohasidagi olamshumul yangiliklar, klonlashtirish (*yunon. irsiy jihatdan bir xil organizm*), insonning gen-nasl xaritasini aniqlash kabi buyuk kashfiyotlar odamlar tasavvurini keskin o'zgartirmoqda.

Ayni vaqtda yuksak ilmiy-texnikaviy taraqqiyot, globallashuv jarayonlari, bir tomondan, inson aql-idrokining imkoniyatlariga, kelajakka ishonchni orttirayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, Xirosima,

Nagasaki, Chernobil fojialari, ommaviy qirg'in qurollari, ekologik halokatlar, ma'naviy tanazzul kabi umumbashariy muammolarni ham keltirib chiqarmoqda.

Shunday ekan, ilm-fan va madaniyat borasidagi yutuqlardan oqilona foydalanish uchun ham jamiyatga sog'lom g'oya, sog'lom mafkura kerak.

G'oya va mafkura gumanizm va taraqqiyot tamoyillarini, xalq taqdiridagi yuksalish zaruratini o'zida aks ettirmasa, aksincha, bu intilishlarni rad etsa, mohiyatiga ko'ra ularga zid bo'lsa, u jamiyat tanazzuliga sabab bo'ladi.

Ana shunday mafkuralardan biri - hokimiyatni quroq kuchi bilan egallab olgan sobiq **kommunistik tuzum mafkurasidir**. Dunyoning 6 dan 1 qismini egallagan ulkan sultanat va sotsialistik lager hududida hukm surgan bu mafkura o'zining g'ayriinsoniy va g'ayrimilliy mohiyati, mustabid tabiat tufayli tanazzulga yuz tutdi.

Jahon tajribasi shundan dalolat beradiki, ba'zi buzg'unchi

mafcura o'zining soxta jozibasi, aldov va makr bilan omma ongini zaharlab, jamiyatda hukmron mavqeini egallab olishi ham mumkin. Masalan, XX asr 30-yillarda Italiya va Germaniyada fashizmning g'alaba qozonishi nafaqat italyan va nemis xalqining, balki dunyodagi millionlab insonlarning boshiga cheksiz kulfat solgani tarixning achchiq saboqlaridan biridir. Bugungi kunda butun dunyodagi taraqqiyat parvar va gumanistik kuchlar bunday fojiali va noxush holatlar takrorlanmasligi uchun hamjihatlik bilan kurash olib bormoqda.

Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek, insoniyatning azal-azaldan g'oyaga qarshi g'oya, fikrga qarshi fikr, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashib kelishi - tarixning o'zgarmas qonuniyatidir.

## **18-mavzu Maktab o'qituvchilari jamoasi tarbiya muxitida tarbiyaning vazifalari.**

### **Reja:**

- 1.Oila ma'naviyatini yuksaltitishda maktabning o'rni.
- 2.Oila, mahalla, maktav hamkorligin samaradorligini oshirish.
3. Oila ma'naviyati va mafkura.
4. Barkamol shaxs tarbiyasini ta'lif jarayoniga tadbiq etish.

Inson atalmish zotning tug'ilib kamolga etishi uchun ozmuncha vaqt yetmaganidek, uning shaxs sifatida kamol topishida, shu yurt, qolaversa oilasiga sodiq farzand bo'lib voyaga etishiga ko'pchilikning mehnati "sinadi". Jumladan, inson ma'lum bir oilada tug'ilib tarbiyalana boshlaydi. Uning kamol topishida keyingi muhim vazifa maktabning zimmasiga tushadi. Shular bilan bir qatorda jamoatchilik ham bu vazifadan chetta qolmaydi.

Uzoq va boy tarixga ega bo'lgan xalqimiz o'zining ta'lif-tarbiyaga oid ulkan merosiga ega. Bu meros bugungi avlodni insonparvarlik, mehr-muhabbat, oqibat, mehnatsevarlik, yuksak axloq ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Har bir inson dunyoga kelar ekan, uning insoniyligi, axloq-odobi, xulq-atvori dastlab o'z oilasida shakllanadi.

"Oila haqida gapirar ekanmiz, avvalambor, oila hayotning abadiyligini, avlodlar davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf -odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga kelajak nasllar qanday inson bo'lib yetishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'i ekanligini tan olmog'imiz darkor"-deb ta'kidlagan edilar Prezidentimiz I.A. Karimov 1997-yil "Oila faravonligi – millat faravonligi" nomli ma'ruzalarida.

Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, yosh avlod qalbida vatanparvarlik, o'z oilasiga mehr- muhabbat tuyg'usini

shakllantirish har bir ota-onaning, tarbiyachi murabbiylarning, jamoatchilikning Vatan oldidagi burchidir.

Barkamol shaxsni voyaga yetkazish uchun eng avvalo oila, mahalla, maktab, jamiyat va davlat hamkorligini yuqori pogonada ko'rish lozim. Oila jamiyatning asosi, mahalla- milliy qadriyatlar beshigi; "Ahil xonodonda, ma'rifatli mahallada, insonparvar jamiyatda, - deb ta'kidlagan edi I.Karimov - zukko yigitlar, oqila qizlar, umr bo'yi elim deb, yurtim deb yonib yashaydigan komil farzandlar ulg'ayadi".

1.Oila muhiti farzand tarbiyasida eng muhim va dastlabki bo'g'in hisoblansada, u shaxsni to'liq tarkib toptira olmaydi. Anashunda maktab va jamoatchikka ehtiyoj seziladi. Bola maktabga kelgunga qadar ham, maktabda o'qish davrida ham, asosan oilada tarbiyalanadi. Oila davlatning asosiy kurtagi, sifatida bolalarning dunyoqarashi, xulqi, didiga ta'sir ko'rsatadi. Oila a'zolarining ma'naviy birligi yoshlarni har tomonlama kamol toptirishning dastlabki va asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Oilada kundan kun kamolga etib borayotgan farzand atalmish ne'mat eng avvalo shu oilaning azaliy qadriyatlariga, urf-odat va an'analariga to'la amal qilmog'i, qolaversa ota-onaning o'zi farzandiga ibrat bo'la olishi lozim.

Bolalarni barkamol inson qilib tarbiyalashda maktabni oila bilan mustahkam bog'lamay turib tarbiya sohasidagi butun ishlarni muvaffaqiyatli amalgam oshirib bo'lmaydi. Estetik, axloqiy va tarbiyaviy sifatlar kundalik hayot ehtiyojiga aylanib, ular oilaviy ijtomoiy tarbiya orqali tarkib toptiriladi va kamol topadi. Oilaviy tarbiyaning mazmunini tashkil etilishiga dastlabki ta'sirni maktab belgilaydi. Maktabning oilaviy tarbiya samaradorligini oshirish yuzasidan rahbarlik qiladi. Bu vazifani muvaffaqiyatli bajarishda, ijobiy hal etishda ota-onalar o'rtasida olib boriladigan tarbiyaga oid targ'ibotlarning roli benihoyadir. Chunki ota-onalar zamonaviy, ruhiy, ta'lif-tarbiyaviy bilimlar bilan qurollantirilmay turib, oilaviy tarbiyani yo'lga qo'yib bo'lmaydi. Oilaviy-tarbiyaviy targ'ibotda eng yaxshi oilalar

na'munasida ta'sir ko'rsatish eng maqbul yo'ldir.

Maktab mukammal tashkilot sifatida barcha tarbiyaviy ishlarni maqsadga muvofiq tashkil etishi lozim. O'z o'quvchilar jamoasini uyuştira olgan, jamoatchilikni bolalar tarbiyasiga yo'naltira olgan, ularning ota-onalarini yaxshi bilgan maktab ma'muriyatigina tarbiyaviy yutuqlarni qo'lga krita oladi.

O'qituvchi ota-onalarini faol yordamisiz bolalarning barkamolligini ta'minlay olmaydi. Bu o'rinda tarbiyachining o'zini-o'zi tarbiyalashi lozimligini ham sedan chiqarmaslik kerak. O'ziga nisbatan talabchan muallim ota-onalar bilan hamkorlikda o'quvchilarda mustaqil fikrlash, yangilikni sezish, tashabbuskorlik hamda ijodkorlik qobiliyatini shakllantirish maqsadida ularga qat'iy talablar qo'yish uchun ma'naviy huquqqa ega bo'ladi.

Maktabni oila bilan bog'lovchi vosita bu o'qituvchidir. O'quvchilar bilan ishlash, ularni ilmiy dunyoqarashini shakllantirish, ijtimoiy faoliyotlarni ta'minlash orqali ota-onalarga ta'sir ko'rsatish usullarini ishlab chiqish maqsadga muvoviqdir. Bu borada maktab va oila aloqasining ta'minlovchi Ota-onalar majlislari, bolalartarbiyasiga aloqadormuammolarni jamoa bo'lib hal etish kabilarning rolini inkor etib bo'lmaydi. Jumladan, "Bolangizni qanday o'qishini bilasizmi?", "Bolangizni odobi haqida suhbatlashaylik.", "Mustaqil hayot bo'sag'asida" kabi mavzularda olib boriladigan suhbatlar ota-onalarini o'z bolalari haqida, ularning kelajagi haqida qayg'urishlariga sabab bo'ladi.

Maktabda o'qitiladigan darslar, ularning mazmuni va eng asosiysi, shu ma'lumotni o'quvchiga etkazib beruvchi o'qituvchi xulq-atvori, kiyinishi, hattoki har bir xatti-harakati ham bola dunyoqarashi shakllanishiga ta'sit etuvchi omildir.

Bola insoniy xislatlarni, ezgulikni, odamiylikni, yaxshilikni ham yomonlikni ham eng avvalo oiladagi kattalarning, ustozlarining xatti-harakatidan o'rganadi. Ota-onalar bilan bir qatorda tarbiyachi-o'qituvchilar o'z xulq-atvori bilan bolalar

hurmatiga sazovor bo'lishlari, ularning hayot yo'lida o'rnak ko'rsatishlari kerak. Shunday muhitda tarbiyalangan bolagina ota-onani, qolaversa o'z ustozlarini hurmat qiladigan, mahalla-kuya o'zidan kichikni izzatlash, kattalarni hurmatlashni o'z o'rniga qo'yadigan, xulqparvar bo'lib voyaga etishadi.

Har bir tarbiyachi tarbiya san'atkori bo'lmog'i lozim. Bu bolalarni sevish san'atidir. Tarbiyasi og'ir, qarosiz qolgan bolalarning ota-onalari bilan ishslash, ularni jamoatchilik kengashlariga olib chiqish, foydali mehnatga jalg qilish, to'garaklarga qatnashtirish, hunarmandchilikka o'rgatishni ta'minlash, har bir tarbiyasi og'ir bolaga jamoatchilik faollarini biriktirish, vaqtiga vaqtiga bilan ularni hisobotlarini tinglash lozim.

Maktabda o'qitiladigan har bir dars, ayniqsa "Milliy g'oya va ma'navayat asoslari" fani mavzularini yoritishda, ma'naviyat soatlarida o'quvchilarga oila ma'naviyatiga oid berayotgan har qanday ma'lumotimiz puxta o'ylangan va chuqur mulohazali bo'lmog'i darkor, zero, bolalar ayni shu yoshda har qanday bilimning dastlabki poydevorini qo'yadilar.

2.Xalq ta'limi vazirligining 200'-yil 26-fevraldagagi 26-sonli hay'at majlisi qarori billan "Oila, mahalla, maktab" Konsepsiysi qabul qilindi. Bu konsepsiya belgilab bergen vazifalarni hal qilish uchun: Vazirlikning tashabbusi bilan Respublikamizdagagi har bir davlat va nodavlat tashkilotlari bilan hamkorlikda "Jamoatchilik maslahat kengashi" tuzilib, joylarda tarbiyasi og'ir, xulqi buzuqlikka moyil hamda daydib yurgan bolalar bilan ishslash, ularning ta'lim-tarbiyasiga va "Oila, mahalla, maktab" Konsepsiyasini amalda joriy etishga e'tibor qaratildi.

Kengash o'z oldiga :

- ◆ mahallalarda bolalarning dam olishlari, qiziqarli ish bilan shug'ullanishlarigaimkoniyat yaratish,
- ◆ mahallalarda tarbiyaning ta'sirchanligini oshirish;
- ◆ homiy tashkilotlar yordamida mahallalarda sport sog'lomlashtirish maydonchalarini tashkil etish,
- ◆ mahallalarda qizlar hayosi, turmushga tayyorlash

haqida baxs-munozaralar o'tkazish;

◆ yoshlarda milliy urf-odatlar, azaliy udumlar, tarixiy an'analarni o'rganish;

◆ muktab, jamoatchilik, mahalla ahli hamkorligida tadbir o'tkazishni;

◆ Joylardagi hokimitatlar, "Mahalla", "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda yordam berishni maqsad qilib qo'ygan.

Oilada bolani to'g'ri tarbiyalashning asosiy shartlaridan biri-tarbiyatadagi birlikdir. Bunday ulkan ma'suliyatni, sharaflı ishni oila, muktab, mahalla, keng jamoatchilik bilan hamkorlikda olib borish muhim o'rinni egallaydi.

Umumta'lim maktablarida o'quvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil qilishda quydagilarga e'tibor qaratish lozim:

◆ O'quvchilar o'rtasida kitobxonlik darajasini ko'tarish;

◆ Kino, teatr, konsert va ko'rgazmalarga borish;

◆ Sayohatlar, sayillar, sport musoboqlari tashkil etish;

◆ Tanlovlardan, tarbiyaviy tadbirlardan, bayramlarda ishtirok etish yaxshi samara beradi.

◆ Milliy xalq hunarmanchiligi to'garaklarini tarmoqlarini kengaytirish, xalq ustalarini to'garak ishiga jalg qilish, ushbu to'garaklarni ko'proq muktablar, mahallalar hamda ijodi ustaxonalar qoshida tashkil etish ishlari alohida e'tibor berish;

◆ Novvoyxonlik, kashtachilik, naqqoshlik, duradgorlik va boshqa hunarlarga bolalarni qiziqitirish, mahallalarda imkon bo'lsa, hunar o'rgatiladigan markazlar tashkil qilish;

◆ O'quvchilarning qiziqishlarini o'rganib, ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishga mo'ljallangan turli to'garaklar, klub yoki seksiyalar tashkil etish;

◆ Yoshlar o'rtasidajismoniy tarbiya, sportni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish;

◆ Ta'limga muassasalaridagi kutubxonalarini badiiy adabiyotlar bilan boyitish;

◆ O'quvchilarning qiziqishlariga qarab, to'garaklar soni, yozgi dam olish oromgohlariga ko'proq o'quvchilarni jalg etishni yo'lga qo'yish;

◆ Barcha o'quv fanlari asosida to'garaklar tashkil etish va unga tarbiyasi og'ir bolalarni jalg qilish orqali ma'lum samaraga erishish;

◆ O'quvchilar iqtidorini yanada takomillashtirish maqsadida turli ommaviy tadbirlar, musobaqalar va ko'rik tanlovlardan o'rakish yo'li bilan boy madaniy merosimizga hurmat, ona Vatanga, uning ramzlariga sadoqat ruhida tarbiyalash muhim rol o'ynaydi.

Bunda sinf rahbarlari, ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy ishlari bo'yicha director o'rindbosarlar, muktab direktorlari, bolalar etakchilari o'z faoliyatini bu yo'nalishga e'tibor bilan qarashlari lozim bo'ladi. Chunki ular muktab mikrorayonida ijtimoiy-pedagogik, tarbiyaviy ishlarni olib borishda o'tkaziladigan tadbirlarning tashkilotchilaridirlar.

Ota-onalar bilan hamkorlikda amalgam oshiriladigan ishlarni tahlil qilib, ular bilan bog'liq bo'lgan shakl va usul asosida rejali va izchil ishlarni olib boorish maqsadga muvofiqdir. Ana shunda bog'cha xodimlari, muktab jamoasi a'zolari, ota-onalar va mahalla-kuy hamkorligi ishlaring keng tarqalgan shakli va usullari mavjud. Bular:

1.Ota-onalar, oilalar bilan yakkama-yakka ishlash. Tarbiya jarayonida bu tur katta ahamiyat kasb etib, yaxshi natijani qo'lga kiritish imkonini beradi. Bunda tarbiyachi oila va bolalarning shaxsiy xususiyatlarini o'rganib, tarbiyaviy jarayonda inobatga oladi. Buning natijasida tarbiyachi va ota-onalar o'rtasida o'zoro ishonch, hurmat va do'stlik munosabatlari o'rganiladi.

2. Ota-onalar bilan jamoa tarzida tashkil qilinadigan ishlari, bularga ota-onalarning guruhli va umumiyligi majlisini, anjumanlar, tadbirlar kiradi.

3.Tarbiya ishlarida atrof-muhit va mahalla bilan hamkorlikda ish olib boorish. Bunda tarbiyalanuvchi bolaga

yetti mahalla ota-onas deganidek, mahallalar bilan hamkorlikda olib boriladigan ishlar yaxshi samara beradi.

Bolalar tarbiyasida jamoaning o'rni ham beqiyosdir. Jamoa haqida gap ketganda biz turli jamoalarni ko'rishimiz mumkin. Masalan: maktab jamoasi, odamlar jamoasi, mehnat brigadasi jamoasi, Sayohatchilar, tashkilotchilar jamoasidan iborat. Bola bir vaqtning o'zida har bir jamoaning a'zosi bo'lishi mumkin. U jamoalarning har qaysisida muayyan vazifani bajaradi, ulardan o'ziga xos tarbiya oladi, hayot tajribasi boyib boradi.

Hozirgi kunda jamiyatimizda maktab jamoasining asosiy vazifasi "ongli va uyushgan ijtimoiy tuyg'ularga, puxta o'ylangan dunyoqarashga ega bo'lgan, har tomonlama rivojlangan bolalarni tarbiyalashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan".

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, tarbiya masalasi bo'yicha ota-onalar, mahallalar va jamoalarning birgalikdagi hamkorlikdagi harakatlari yaxshi samaraga olib keladi. Oiladagi axloq-odob tarbiysi o'z-o'zidan amalgam oshmaydi albatta, uning uchun o'ziga xos murakkab ijtimoiy -iqtisodiy, psixologik muommolar bor.

Biz oila ma'naviyati fikr yuritar ekanmiz, uni ehtiyoj, manfaat va mafkuraviy jarayonlar bilan bog'liq yana bir jihatini, ya'ni tarbiya jarayonida yoshlar va o'smirlarning ruhiy ehtiyojlarini inobatga olishni ham unutmaslik kerak. Ayni mana shu ehtiyojlarning shakllanishiga mahalla muhiti bevosita ta'sir qilsa, jamoatchilik bu ehtiyojlarni tartibga soladi.

Mahalla-kuy, qo'ni-qo'shnilar hamkorligi, hamdardligini ko'rsatuvchi mahallalarimizdagi to'y, katta yig'inlar, a'za marosimlari—xalqimizning jamoatchilik fikri ta'sirida shakllangan qadriyatları namoyon bo'ladi. Aynan shu qadriyatlar ta'sirida yoshlarimiz o'zi yashab turgan mahalladaga insanlarga nisbatan mehr-muhabbatli, oilasiga sadoqatli bo'lib tarbiyalanadi.

Uzluksiz ta'lim tizimi jarayonida Barkamol shaxsni shakllantirish ta'limtizimida quyidagacha qo'llashni Tosh DPU

doktaranti M. Hamdamova quyidagicha tavsiya etadi:

♦ Maktabgacha ta'lim muassasalarida; Bunda tarbiyachilardan bolalarga onalarcha mehr berishlari, ularga muntazam ravishda muhabbat ko'rsatishni asosiy maqsad qilib qo'yishlari shart. Tarbiyachilar kundalik va yillik rejalarida barkomol shaxsni shakllantiruvchi maqsad va vazifalarni alohida ta'kidlab, bajariladigan ishlarni bayon etib borishlari shart.

Odatda tarbiyachilar o'z rejalari asosida o'zbek xalq ertaklaridan keng foydalanib kelishadi. Ertaklaridagi yaxshilik va yomonlik, mehribonlik, rahmdillik toshbag'irlik, ezgulik va yovuzlikning o'zoro farqlari mazmun mohiyatini kichkintiyлага etkazib berishga harakat qiladilar. Shuningdek ertak qahramonlarini chizish, yasash, musiqiy ohanglarni eshitish, raqs va bolalar qo'shiqlarini o'rgatish ham shu bosqichling tarbiyaviy qismi sanaladi.

♦ Umumiy o'rta ta'lim mакtablarining bashlang'ich sinflarida: Bu 7-11 yoshli bolalar bo'lib, odatda ular juda qiziquvchan/ o'yinqaroq, quvnoq va diqqatsizroqdir. Bu bolalar mакtab ostonasiga qadam qo'ygan kundanboshlab savodxonlik darajasida faqatgina ustozining so'zini so'z deb tan oladi. Ularning fikrini ota-onalar ham o'zgartirishlari mushkul. Shu sababli barcha o'qituvchilarimiz quyidagi savodxonlik turlarini bilishlari va bu haqda etarli malakaga ega bo'lishlari lozim:

- Savodiy savodxonlik;
- Nutqiy savodxonlik;
- Ijodiy savodxonlik;
- Mantiqiy savodxonlik;
- Ilmiy savodxonlik;
- Kasbiy savodxonlik;

♦ Umumiy o'rta ta'lim mакtablarida: bu yoshdagি o'smirlarni yildan yilga atrof muhitga, voqealarga qiziqishi ortib boradi. Ular ko'proq o'zlari qiziqqan ishni kattalardan yashirinchha bajarishga harakat qilishadi. Yolg'on so'zlash,

qilgan aybini yashirin va kattalar oldida o'zini aqli raso qilib ko'rsatishga urinishadi. Bu yoshdag'i bolalarning barkamollik darajasini oshirib boorish uchun barcha o'qituvchi-murabbiylar, ota-onalar, mahalla-kuy, nazorat inspeksiyasi hamkorligida tarbiyaviy ishlarni yo'lga qo'yib borilmog'i lozim. Chunki bu yoshdag'i bolalarning uyda va ko'chadagi bo'sh vaqtlarini qanday o'tkazayotganligi doimo kattalar nazoratida bo'lmos'i shart.

Bolalarni teatr, muzeylarga olib borish asosan maktabning zimmasida qolgan. Ammo shunga yarasha ota-onalar" Bugun teatrga boribsan, nima ko'rding, nimani tushunding" deb, besh daqiqa vaqt sarflash ota-onalarning vazifasidir.

◆ O'rta maxsus kasb-hunarta'lumi muassasalarida:buta'lum dargohiga o'qish uchun kelgan talabalar asta-sekin mактабдан, oiladan va ko'cha-kuydan o'rgangan tarbiyasini namoyish eta boshlaydi. Agar o'qituvchi-marabbiylarimiz bu maskanda o'ta kuzatuvchanlik bilan muntazam shug'ullanmasalar, bu yoshdag'i o'smirlarning barkamollik darajasini rivojlantirib boorish ancha mushkul kechadi. Chunki ta'limning bu bosqichida o'qituvchi-murabbiylar ilmiy savodxonlikni kuchaytirish, kasbiy savodxonlikka erishish uchun talabalar bilan tinimsiz muloqot qiladilar. Sergak tarbiyachi o'smirlarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqib unga to'g'ri ta'sir eta bilishi lozim.

Umuman ta'limning qaysi bosqichida bo'lmasin Tarbiyachi-o'qituvchi yuksak pedagogik, psixologik va metodik tayyorgarlik darajaga ega bo'lgan holda, ularning yosh xuxsusiyatlarini inobatga olib ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil etishlari lozim.

Ertangi kun, porloq kelajakka ishontirish, yomon illatlardan holi bo'lishga o'rganib borish barcha jamoa, oila, mahalla ahlining vazifasidir. Tobora rivojlanib borayotga jamiyatimizga sog'lom fikrlovchi avlodni tarbiyalab berishimiz uchun ota-onalar va o'qituvchilar hamkorligi muhimdir. Yuqorida ta'kidlaganimizdek har qanday ezgu maqsadimizni

yoshlar orqali amalgam oshiramiz. Ularni etuk inson bo'lib voyaga etishlarida esa oila, mahalla-kuy, keng jamoatchilik va davlatning o'zoro hamkorlikdagi faoliyati juda muhimdir.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI.**

1. "Barkamol avlod orzusi" Toshkent -1999
2. I.A.Karimov "Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida" T.1998 6-tom.
3. O.Safarov, M.Mahmudov "Oila ma'naviyati" Sharq "Ma'naviyat"-2009
4. O.Hasanboyeva vaboshqa. "Oila pedagogikasi" "Aloqachi" -2007
5. A.Q.Munavvarov "Oila pedagogikasi" O'qituvchi-199'
6. "Mahalla muhiti, oila ma'naviyatida ehtiyoj, manfaat va mafkura uyg'unligi" Azamat Muxtorov /Sog'lom avlod uchun 2005 5-son/.
7. "Oila ma'naviyati va mafkura" A.Muxtorov /Sog'lom avlod uchun 2005 8-son/.
8. "Oila, mahalla, maktab hamkorligi samaradorligini oshirish" bo'yicha tavsiya. Respublika ta'lim markazi "Ma'naviy-mrifiy ishlar bo'limi". /Tarbiya 2008 '-son/
9. "Oila, mahalla va jamoatchilikning birgalikdagi tarbiyaviy ishlari" N.B.Nuraliyeva /Maktab va hayot 2006 №'
- 10."Barkamol shaxs tarbiyasini ta'lim jarayoniga tadbiq etish" M.Hamdamova /"Tarbiya" 2007 6-son.

## **19-mavzu Abdulla Avloniyning tarbiya xaqidagi g'oyalari.**

### **Reja:**

1. Avloniy asarlarida ta'limiyl-axloqiy va tarbiyaviy qarashlar.

O'zbek adabiyoti bunday asarlar biz yosh avlod uchun barkamol,komil inson sifatida tarbiyalashga muhim ahamiyat kasb etadi.Shunday adiblarimizdan biri Abdulla Avloniydir. Uning mакtab uchun yaratgan to'rt qismdan iborat "Adabiyot yoxud milliy she'rlar,hamda "Birinchi muallim","Turkiy guliston yoxud axloq","Ikkinchi muallim","Maktab gulistoni" kabi darslik va o'qish kitoblari ham xarakterli bo'lib,yaxlit bir tadqiqot uchun manba bo'la oladi.Ayniqlsa uning ilk savod chiqarishda bilim va tushunchalarni bolalar ongiga sodda va tushunarli yetkazishi alohida e'tiborni tortadi..Shuni inobatga olib,bu asarlarni jiddiy o'qib chiqish va unda ilk darslikka xos tuzilmani,g'oyaviy to'liqlikni,kitoblardagi o'ziga xos xususiyatlarini o'rganib chiqishimiz zarur. Avloniyning "Ikkinchi muallim" kitobi "Birinchi muallim"kitobining davomi hisoblanadi.Maktab-xazinayı adab-u ilm(u)izzating Maktab-bog'I jannati firdavs,ne'mating,,Maktab kishini jahlu(daniydan qilur xalos,Maktab-kaliti ka'bayı qalb(u) zakovatingBu she'rda Avloniy maktabni insonning najot yo'li,hayotning gulshani,kishilarni kamolot sari safarbar qiluvchi kuch,deb maqtaydi.Abdulla Avloniyning pedagogikaga oid asarlarini ichida "Turkiy guliston yoxud axloq"asari XX asr boshlaridagi pedagogik fikrlar taraqqiyotini o'rganish sohasida katta ahamiyatga molikdir.Ushbu asar axloqiy va ta'limiyl tarbiyaviy asar hisoblanadi.

Asarda insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi,yomonliklardan qaytaruvchi axloq sifatida yaratildi degan fikrlar aytib o'tilgan. O'zbek pedagogikasi tarixida Abdulla Avloniy birinchi marta pedagogikaga "Pedagogika"inson tarbiyasining fanidir deya ta'rif berilgan.Avloniy bola tarbiyasini nisbiy ravishda quyidagi

to'rt bo'limga ajratadi:

1. "Tarbiyaning zamoni",

2. "Badan tarbiyasi,

3. "Fikr tarbiyasi"

4. "Axloq tarbiyasi" "Al-hosil tarbiya bizlar uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidur" deb uqtiradi, Avloniy.

Tarbiya xususiy ish emas, milliy, ijtimoiy ishdir. Har bir xalqning taraqqiy qilishi, davlatlarning qudratli bo'lishi avlodlar tarbiyasiga ko'p jihatdan bog'liq, deb hisoblaydi adib. Tarbiya surriyat dunyoga kelgandan boshlanib, umrning oxiriga qadar davom etadi. U bir qanchabosqichdan -uy, bog'cha, maktab va jamoatchilik tarbiyasidan tashkil topgan. Avloniy tarbiyaning doirasini keng ma'noda tushunadi. Uni birgina axloq bilan chegaralab qo'ymaydi. U birinchi navbatda bolaning sog'ligi haqida g'amxo'rlik qilishi lozimligini uqtiradi. Avloniyning fikricha, sog'lom fikr, yaxshi axloq, ilm-ma'rifatga ega bo'lish uchun badanni tarbiya qilish zarur. "Badanning salomat va quvvatli bo'lmog'i insonga eng kerakli narsadur. Chunki o'qumoq, o'qutmoq, o'rganmoq va o'rgatmoq uchun insongakuchli, kasalsiz jasad lozimdir". Abdulla Avloniy badan tarbiyasi masalasida bolani sog'lom qilib o'stirishda otanonalarga murojat qilsa, bolani fikr tomonidan tarbiyalashda o'qituvchilarining faoliyatlariga alohida e'tibor beradi. "Turkiy guliston yoxud axloq" kitobi ma'rifatparvarlik g'oyalarini targ'ib qiladi. Abdulla Avloniy kitobda ilm to'g'risida bunday deydi: "Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidur. Ilm inson uchun g'oyat olyi, muqaddat bir fazilatdurd. Zeroki, ilm bizga o'z ahvolimizni, harakatimizni oyina kabi ko'rsatur. Zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o'tkur qilmoq, ... Ilmsiz inson mevasiz daraxt kabitidur...". Avloniy ilmni umuman emas, balki uning amaliy va hayotiy foydalarini aytib, "Bizlarni jaholat, qorong'ulikdan qutqarur. Madaniyat insoniyatni ma'rifat dunyosiga chiqarur, yomon fe'llardan, buzug' ishlardan qaytarur, yaxshi xulq va odob sohibi qilur. Alhosil butun hayotimiz, salomatimiz, saodatimiz,

sarvatimiz, maishatimiz, himmatimiz, g'ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilma bog'lidur". Adibning obrazli ifodasiga ko'ra, ilm bamisolli bodomning ichidagi mag'iz. Uni qo'lga kiritish uchun mehnat qilish, ya'ni chaqib uni po'chog'idan ajratib olish kerak. U ilmning jamiyat taraqqiyotidagi rolini yaxshi tushunadi. Shuning uchun ham u, yoshlarni ilm sirlarini bilishga, hodisalar mohiyatini yechishga, kitob mutolaa qilishga chaqiradi. Uning fikricha, ilm agar jamiyat manfaatiga xizmat qilmasa, xalq farovonligi yo'lida qo'llanmasa, u o'likdir. Abdulla Avloniy o'z ilmini amalda qo'llay oladigan kishilarga yuksak baho beradi, ularni dono insonlar, deb ataydi. Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" asarining "yomon xulqlar" qismi 18 bobdan iborat. Muallif insonning bunday xulqlarini "saodati adabiyadan mahrum, hayoti jovidonimiz uchun masnum bo'lgan axloqi zamimalar..." deb ataydi. A. Avloni kishilarining ham ijobjiy xuldarini, ham salbiy xuldarini bayon qilib, kitobxonlar mulohazasiga havola qiladi. U "Bu sanalgan yomon xulqlarning fanoliqlarini, yuqorida sanagan yaxshi xulqlarning o'zalligini insof muvozanasi ila o'lchab, vijdon muhokamasi ila tahqiqlab, yaxshilarini tinglab amal qilmak yomonlarini onglab, hozir qilmak lozimdir", deydi. Abdulla Avloniy g'azabning ikki xil xususiyatini bayon qiladi. Biri dushmandan o'zini, millatini mudofaa qilishda insonning g'azabi muhim ahamiyatga ega bo'lsa, ikkinchisi birovni jabr-zulm yo'li bilan ishlatish, odamlarga sovuq muomilasi bilan dahsat solishdan iborat bo'lgan salbiy xususiyatdir. Hilm-yumshoq tabiatlilik bilangina g'azabning oldini olish mumkin. Abdulla Avloniy bu haqda Imam Shofe'i havzratlarining so'zlarini keltiradi: "Qilich va nayza ila hosil bo'lмаган ко'п ishlar yumshoqlik va muloyimlik ila hosil bo'lur, g'azabning zarari egasiga qaytur", -demishlar. Abdulla Avloniy asarning "Yomon xulqlar" qismida yana bir nihoyatda muhim masalaga e'tiborni qaratadi. Bu "Jaholat" va "Aqsomi jaholat" boblarida Abdulla Avloniy o'z bilimini amalda qo'llaydigan kishilarga yuksak baho beradi, ularni dono insonlar deya ta'riflaydi. Avloniying vijdon haqidagi mulohazalari

ham diqqatga sazovor. "Vijdon deb ruhimizga, fikrimizga ta'sir qiladurgan hissiyot, ya'ni sezuv tuymakdan iborat ma'naviy quvvatni aytilar. Biz har vaqt afolu va harakatimizning yaxshi va yomonligini, foyda va zararligini onjak vijdonimiz ila bilurmiz. Vijdon insonning aql va fikrini haqiqiy mezonidurki, bu tarazu illo o'z kamchiliklarini o'lchab, bilmaq barobar boshqalarning ham faol harakatini sezur. Agar ishlagan ishi sharoit, aql va hikmatga muvofiq bo'lsa, muhabbat qilur. Qabohat va yomon ishlarni qilsa, nafrat qilur... Vijdon yaxshi ishlarning manbai o'ldig'indin vijdon sohiblari har bir ishni beg'araz, xolis niyat ila ishlar. Shul sababli har kim nazarida maqbul va suyukli bo'lur... Al-hosil, vijdon har kimning afol va harakatini ko'rsatadugon musaffo bir oyinadurki, bu ko'zguga chin nazar qilg'on kishi o'z aybu kamchiliklarini tuzatmak harakatida bo'lub, boshqalarning ayb va qusurlarini ohtarmoqg'a vaqt bo'lmas.." Avloniy tarbiyaning aslini ko'rsatadigan mezon -bu vijdon deydi. Vatan tuyg'usi eng insoniy, eng mo'tabar tuyg'ulardan biri. Vatan dardi bilan yashamoq, uning baxtidan quvonmoq, u bilan faxrlanmoq kerak. Vatan Onadek muqaddas. Uni qadrlash, e'zozlash, uning shodlik va quvonchiga sherik bo\_lish, g'am-hasratini baham ko'rish farzandning burchi. Avloniy vatan va uning oldilagi burchini shunday tushunadi. U deydiki: "Har bir kishining tug'ilib o'sgan shahri va mamlakati shul kishining vatani deyilur. Har kim tug'ilgan, o'skon yerini jonidan ortiq suyar. Hatto bu vatan his-tuyg'usi hayvonlarda ham bor. Agar bir hayvon o'z vatanidin -uyuridan ayrilsa, o'z yeridagi kabi rohat farog'atda yashamas. Maishati talx bo'lub, har vaqt dilining bir go'shasida o'z vatanining muhabbati turar. O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotining hozirgi bosqichida yoshlaming ma'naviy qiyofasini shakllantirishda, ulami ilmma'rifatli, diyonatli, yuksak axloqli bo'lishlari bilan birga, yamonaviy texnika va texnologiyalami puxta o'zlashtirib olishlariga katta axamiyat berilmoqda. O'zbekiston Davlati fuqarosining ma'naviy qiyofasini belgilovchi fazilatlar-vatanparvarlik, insonparvarlik, milliy g'urur, mehnatsevarlik,

baynalminalchilik kabilar məktəb və o'qituvchining faol ishtirokida, tarbiyaviy ta'siri ostida shakllanadi. Bugungi kunda yoshlarimizning nafaqat ilmli balki yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lishi va bu fazilatlarni, ilmiy salohiyatini namoyon qilib Vatanimiz ravnaqiga hissa qo'shamoqda. Yurtboshimiz Oliy Majlisga murojaatnomasida ham yoshlarning ta'limgaribiyasiga to'xtalib o'tganlar. O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasida: —Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lomturmush tarzini qaror toptirish, ilmfan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim. Ushbu maqsad yo'lida yoshlarimiz o'z oldiga katta marralarni qo'yib, ularga erishishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish va har tomonlama ko'mak berish -barchamiz uchun eng ustuvor vazifa bo'lishi zarur. Shundagina farzandlarimiz xalqimizning asriy orzu-umidlarini ro'yobga chiqaradigan buyuk va qudratli kuchga aylanadi. Shu maqsadda "Yangi O'zbekiston -məktəb ostonasidan, ta'limgaribiyatidan boshlanadi", degan g'oya asosida keng ko'lamlı islohotlarni amalga oshiramiz.

#### **ADABIYOTLAR:**

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 2020-yil. 5-bet
2. Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" asari ikki jild. Ma'naviyat 1988yil 93-bet.
3. Avloniyning "Ikkinchı müallim" va "Birinchi müallim" kitoblari 303-bet.

#### **20-mavzu Shaxs va jamoda tarbiyaning o'mi.**

##### **Reja:**

- 1.Sinf jamoasini tashkil etish va uni tarbiyalash.
- 2.O'quvchilar jamoasini shakllantirishga yordam beruvchi shart-sharoitlar.
3. O'qituvchilaming o'quvchilar jamoasi bilan ishslash usuli.

Jamoas so'zi lotincha «**kollektivus**» so'zining tarjimasi bo'lib, yig'ilma, omma, birgalikdagi majlis, birlashma, guruh ma'nolarini anglatadi. Aniqroq aytadigan bo'lsak, jamoa — bu kishilardan iborat guruh demakdir. Zamonaviy talqinda «jamoas» tushunchasi ikki xil ma'noda ishlataladi. Jamoa deganda, birinchilgan kishilarning istalgan tashkiliy guruhi (masalan, ishlab chiqarish jamoasi, korxona jamoasi, xo'jalik jamoasi va h.k.), ikkiiichidan, yuqori darajada uyuştilrilgan guruh tushuniladi. Chunonchi, o'quvchi (tarbiyaluvchi) larning birlaslimasi o'ziga xos muhim belgilarga egadir. Quyida jamoa va lining xususiyatlari (belgilari) borasida so'zyuritamiz.

Jamoas va jamoa orqali tarbiyalash — tarbiya tizimida muhim ahamiyatga ega bo'lgan tamoyillardan biridir. Shaxsni shakllantirishda jamoaning yetakchi rol o'ynashi to'g'risidagi fikriar pedagogika fanining ilk rivojlanish davridayoq bildirilgan. Jamoada lining a'zolari o'rtasidagi inunosabatning alohida shakli yuzaga keladi, bu esa shaxsnинг jamoa bilan birgalikda rivojlanishini ta'minlaydi. Lekin liar qanday guruhnini ham jamoa deb hisoblab bo'lmaydi. Jamoa bir qator belgilarga egadirki, maz.kur belgilalar jamoani kishilarning yetarii darajada uyushgan har qanday guruhidan ajratib turadi.

Jamoas ijtimoiy jamiyatning bir qismi hisoblanib, unda ijtimoiy hayot va kishilik munosabatlarining barcha me'yorlari o'z ifodasini topadi. Zero, jamoa jamiyatdagi mavjud munosabatlar tizimida namoyon bo'lar ekan, jamoa va ijtimoiy

jamiyat maqsadi, intilishda o'zaro birlik, uzviy maqsadga muvofiq tashkil etiladi. Shu bois jamoa hayotining bir (yagona) maqsadga qaratilganligi va ijtimoiy-g'oyaviy yo'nalganligi uning yetakchi belgisi sanaladi.

Mar bir jamoa boshqa jamoalar bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Uning har bir a'zosi jamiyat ijtimoiy faoliyatini tashkil etish jarayonida o'z jamoasi bilan birlgilidagi ishtirok etadi. Jamoani tushunish, uni his etish hamda shaxsni shakllantirishdagi o'rni va rolini to'g'ri baholay olish umumiy va xususiy (shaxsiy) maqsadning qiziqishi, ehtiyoj va faoliyatning birligini namoyon etib, bo'linishga yo'l qo'yaydi.

Har bir jamoa o'zini o'zi boshqarish organiga ega va umummilliyligi jamoaning uzviy qismi sanaladi. Shuningdek, u maqsadning birligi va tashkil qilish xususiyatlari orqali umummilliyligi jamoa bilan bog'lanadi. Ijtimoiy jamiyatning ehtiyojini qondirishga yo'naltirilgan birlgilidagi faoliyat jamoaning navbatdagi muhim xususiyatlaridan biridir. Jamoa faoliyatining ijtimoiy-g'oyaviy yo'nalishi ham jamoaning faoliyati mazmunida o'z aksini topishi muhim ahamiyatga egadir.

Jamoa xususiyatini aniqlashda kishilar guruhning yagona ijtimoiy tizimini o'rnata olishdagi usuli, ya'ni jamoani tashkil qilish usuli ham muhim hisoblanadi.

Pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tashkil etilgan jamoa faoliyati natijasida jamoa a'zolari o'rtasida ishchanlik, bir-biri uchun g'amxo'rlik, o'zaro yordam, jamoa manfaati uchun javobgarlik hissi qaror topadi.

Birlgilidagi faoliyat umumjamiyat ishi uchun mas'uliyat hissini uyg'ota borib, jamoa a'zolarini bir-biriga yaqinlashtiradi, jamoaga mansublik hissingining paydo bo'lishiga ko'maklashadi, jamoa bilan munosabatda bo'lish ehtiyojini oshiradi. Jamoa a'zolari orasida o'zaro yaqinlik, hissiy birlik (bir-birini yoqtirish) yuzaga keladi. Ushbu munosabat ko'pincha o'z-o'zidan paydo bo'ladi hamda ular pedagogik ta'sir ko'rsatish uchun qo'l keladi.

Ruhiy va hissiy jamoa a'zolarining birlgilidagi faoliyatining mazmuniga, ular orasidagi hosil bo'lgan ishchanlik faoliyatining xarakteriga bevosita bog'liqidir.

Jamoaning rasmiy (ishchanlik) va norasmiy (hissiy) tuzilishini bir-biridan farqlash lozim. Jamoaning rasmiy tuzilishi deganda, jamoa faoliyatining turli ko'rinishlarini amalga oshirish uchun zarur bo'ladigan tashkiliy jihatlari ko'zda tutiladi. Mazkur tuzilma, bir tomonidan, jamoa a'zolari qo'shilgan ishchanlik munosabatlami ifoda etsa, ikkinchi tomonidan, rahbarlik vazifasini bajaruvchi tarbiyachilar hamda jamoa a'zolari o'rtasidagi mavjud boshqarish munosabatlari mazmunini ifoda etadi.

Norasmiy tuzilma jamoaning barcha a'zolari o'rtasidagi shaxslararo ma'naviy-psixologik niunosabatlarning umumiyyatini va mikroguruhini tashkil qiluvchi ayrim a'zolar o'rtasidagi tanlash munosabatlari mazmunini ifodalaydi. Jamoaning har bir a'zosi mavjud munosabatlar tizimida u yoki bu o'rinni egallaydi.

Tarbiyalanuvchi shaxsning jamoadagi o'rni uning shakllanish jarayoniga ta'sir ko'rsatadi. Maklab yoki sinfdagi rasmiy va norasmiy tuzilmalar bir-biriga muvofiq bo'lganda, jamoaning rasmiy yetakchilari norasmiy munosabatlar tizimida ko'zga ko'ringan o'rnini egallagan holdagina u chinakam jamoa bo'la oladi. Shuningdek, norasmiy guruhrilar (mikroguruhrilar) umumjamoa ijtimoiy manfaatlari uchun kurashuvchi guruhrilar bo'lgandagina, jamoa o'zini o'zi chinakam jamoa tarzida namoyon etishi mumkin.

Yashash joylarida o'zaro birikkan bolalar guruhrulari qanchalik ahil va inoq munosabat zaminidan tashkil topgan bo'lmasin, haqiqiy jamoa bo'la olmaydi. Chinakam jamoa ijtimoiy ahamiyatga moyillik faoliyatini tashkil eta olishi, jamoa a'zolari o'rtasida ijtimoiy ahamiyati faoliyat, maqsad, ishchanlik xarakteridagi aloqa va munosabatlami o'rnata olishi lozim. Jamoaning majburiylik belgisi unga pedagogik rahbarlikning bo'lishidir.

Shunday qilib, jamoa kishilarning shunday muayyan guruhi bo'lib, u ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan umumiylar maqsad hamda mazkur maqsadni amalgalash uchun yo'naltirilgan faoliyatni tashkil etadi. Ushbu guruh a'zolari o'zaro birlik, a'zolaming munosabatlar jarayonidagi tengligi asosida unga rahbarlik qilish va bir-biriga bo'y sunish, shuningdek, jamoa oldidagi javobgarligi asosida muayyan faoliyatni olib boradilar.

Jamoa va uni shakllantirish — pedagogik faoliyatning maqsadi hisoblanadi. Ayni ko'rsatkich uni shakllantirish vositasi bo'lib, uning yordamida jamoaning barcha yoki har bir a'zosini tarbiyalash yaxshi samara beradi.

### **O'quvchilar jamoasini shakllantirishga yordam beruvchi shart-sharoitlar**

Jamoaning yetakchi tarbiyaviy vazifasi.

Shaxsni liar tomonlama tarbiyalash, unda ijobiy sifatlarni hosil qilib, mustahkam hayotiy pozitsiyani qaror toptirishdan iboratdir. Umumiy o'rta ta'limga hamda yangi turdagiga ta'limga muassasalarida jamoani shakllantirish mas'uliyatlari vazifa sanaladi.

Maktab jamoasi tarkibida eng barqaror bo'g'in, bu — sinflar jamoalari sanaladi. Sinf jamoasida o'quvchilarning asosiy faoliyati o'qishdir. Aynan inf jamoasida o'quvchilar o'rtasida mustahkam shaxslararo aloqa va munosabatlar tarkib topadi. Shu bilan birga, inf jamoasi o'z negizida maktab jamoasining shakllanishi uchun o'ziga xos poydevor vazifasini bajaradi. Maktab jamoasi tarkibida o'quvchilar jamoasi asosiy qismni tashkil etadi. O'quvchilar jamoasi — bu ijtimoiy ahamiyatini tashkil etish, shuningdek, umumiy saylov organlari va umumiy javobgarlik, barcha a'zolarining huquq va burchlari tengligi asosidagi o'zaro birlikka ega o'quvchilar guruhidir.

O'quvchilar jamoasi pedagogik tarbiyachilar hamda bolalardan iborat jamoaning murakkab birlashmasi, o'zini o'zi nazoral, o'zini o'zi boshqaruv jarayonini tashkil etuvchi mustaqil tizim, shuningdek, o'zining psixologik muhitiga, an'analariga

ega guruh hisoblanadi.

### **Jamoaning o'ziga xos xususiyatlari.**

Yuksak darajada uyushtirilgan jamoa o'zida bir necha xususiyat (belgi)larni namoyon etadi. Ular quyidagilardir:

Jamoani shakllantirish muayyan qonuniyatlarga bo'y sunadigan uzoq muddatli, murakkab jarayondir. Jamoaning vujudga keiishi uchun to'rt bosqich zarur. Jamoaning shakllanish bosqichlarida, pedagog dastlab butun guruhga talab qo'yadi, so'ngra jamoa faollari, jamoa a'zolariga talab qo'yadi, so'ngra butun jamoa alohida shaxsdan muayyan tarzda faoliyat olib borishini talab qiladi va nihoyat, shaxs o'ziga o'zi talabni quyidagicha bayon etishi mumkin:

Qo'yilayotgan talablar mazmunidagi farq jamoarivojlanishi bosqichini aniqlovchi yorqin tashkil ko'rsatkichi sanaladi. Jamoaning amaliy faoliyati mazmuni jamoa a'zolarining xulqatvori, axloqiy kamolot darajasini ko'rsatuvchi muhim belgilar sifatida namoyon bo'ladi. Jamoani shakllanirishda uning hayotini belgilovchi ichki jarayonning mohiyatini inobatga olish zarur.

Jamoaning shakllanish bosqichlarini belgilash shartli hisoblanadi, chunki jamoa chegara yoki oraliqqa ega emas. Shunga qaramay, pedagogik nuqtayi nazardan jamoaning shakllanish ini bosqichlarga ajratish juda muhimdir. Bolalar jamoasini rivojlanish bosqichlariga ajratish muhimdir. Bolalar jamoasi rivojlanishning har birta'sir ko'rsatish shakl va metodlarini tanlash imkonini beradi.

Jamoa rivojlanishining birinchi bosqichi. Mazkur bosqichda talab faqat pedagoglar tomonidan qo'yiladi. Bu jamoa rivojlanishining boshlang'ich nuqtasidir. Ushbu davrdagi jamoa hali tarbiyalovchi jamoa bo'lmay, balki «tashkil etuvchi birlik» (sinf guruhi) dir.

Tarbiyalanuvchilar talablar qo'yilishiga e'tiborsiz qarashadi. Jamoa a'zolarining uzluksiz ijodiy faoliyatni tashkil qilish va ularni muayyan (yagona) maqsad atrofida

birlashtirishga erishish orqaligina jamoa qaror topadi. Tarbiyalanuvchilarning jamoa faoliyatida ishlirok etishi tufayli, asta-sekin boyib boradigan tajriba, faoliyat natijasini bиргаликда мухокама qилиш, qilinajak ishlarni rejalashtirish jamoa a'zolarida mas'uliyat, javobgarlik, faoliyat birligi, shuningdek, ishchanlik munosabatining paydo bo'lishiga, tarbiyalanuvchilarda jamoa faoliyatiga nisbatan qiziqish paydo bo'lishiga olib keladi. Bolalarning jamoa faoliyatini tashkil ctish borasidagi ma'lumotga ega emasliklari bois, mazkur bosqichda pedagogning asosiy maqsadi jamoa a'zolari oddiy tarzda uyushtirishdan iborat bo'ladi.

Ushbu bosqichda pedagogning talabchanligi, qat'iyligi, izchilligi, murosasizlik va jamoaning barcha a'zolariga talabni bir xil qo'ya olishi asosiy omil hisoblanadi. Bu vaziyatda o'qituvchilik, «hukmdorlik» davri uzoq davom etishi mumkin emasligini, aks holda bir qarashda intizomning vujudga kelganligi ma'lum bo'lsada, guruh a'zolarining faolliklarini rivojlantirish uchun sharoitning mavjud emasligini hisobga olish zarur.

Jamoani shakllantirish bosqichlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari. Jamoa hayotining birinchi bosqichida jamoa faoliyatining paydo bo'lishi ushbu davr uchun xarakterli hodisadir. Faollaming tarkib topishi demakdir. Jamoa faoli muayyan guruohning shunday a'zolariki, ular jamoa manfaatiga muvofiq tarzda harakat qilishib, pedagog faoliyati va talabiga nisbatan xayrxohlik bilan munosabatda bo'lishadi. Faol pedagogning yaqin yordamchilari sifatida ish olib boradilar.

Jamoa rivojlanishining ikkinchi bosqichi. Ushbu bosqich jamoa faolining pedagog talabini qo'llab-quvvatlashi hamda, o'z navbatida, uning o'zi bu talablami jamoa a'zolari zimmasiga qo'yishi bilan tavsiflanadi. Kndilikda pedagog jamoada paydo bo'lgan va u bilan bog'liq muammo, masalalarni yolg'iz o"zлari hal qilmaydi.

Jamoa faoli bilan maxsus tarbiyaviy ish olib borish orqali,

bu ishga unijalbetadilar. Jamoa hayotini tashkil qilish usuli murakkablashib boradi, ya'ni jamoa o'zini o'zi boshqarishga o'tadi.

Tarbiyalanuvchilar amaliy faoliyatning doimiy ravishda murakkablashib borishi — mazkur davrning muhim xususiyati sanaladi. Ikkinci bosqichda jamoaning muhim ishlarining o'qivcbilar tomonidan mustaqil rejalashtirilishi, tadbirlarni o'tkazishga tayyorgarlik, uni o'tkazish hamda faoliyatnatijalarini muhokama qilish jamoa faoliyatining ijodiy xususiyatini ko'rsatuvchi omillar sanaladi.

Jamoaning ijobiy rivojlanishi uning a'zolarida faoliyat motivlari (rag'batlari)ning paydo bo'lishi. ijodiy hamkorlik va o'zaro yordam munosabatlarining tez sur'atlar bilan rivojlanishiga olib kcladi.

Jamoada mustaqil faoliyatning yuzaga kelishida jamoa faollarining rolibeqiyosdir. Ammo jamoa faolining jamoa a'zolari o'rtasida hurmat qozona olishi, namuna bo'lishi, o'z burchini aniq. va puxta bajarishi hamda o'z mavqelarini suiiste'mol qilmasliklari juda muhimdir. Bu o'rinda A.S. Makarenko jamoa faolligi nisbatan «jamoa vijdoni», deya bergen ta'rifini eslab o'tish joizdir.

Jamo faoli birmuncha imtiyozlar (huquqlar)ga ega bo'lsa-da, ayni paytda uning o'ziga ham oshirilgan talablarning qo'yilishi maqsadga muvofiqliqdir.

Jamoa rivojlanishning bu bosqichida to'xtab qolishi mumkin emas, chunki faoliyat ko"rsatayotgan kuch jamoaning bir qismigina, xolos. Bordi-yu, jamoaning rivojlanishi ushbu bosqichda to'xtatib qolinsa, jamoa faolini guruohning boshqa a'zolari bilan qarama-qarshi qo'yish xavll tug'ilishi mumkin. Bu bosqichda jamoaning barcha a'zolari faol faoliyatga o'tishi zarur sanaladi.

Jamoa rivojlanishining uchinchi bosqichi jamoa faoliyatida anchagina sermahsul hisoblanadi. A.S. Makarenkonig aniqlashicha, bu davrda butun jamoa «ayrim o'zini chetga olib

qoluvchi, injiq shaxs» larga talab qo'ya boshlaydi.

Bunga endilikda faqat faollar emas, balki uning butun a'zolari qiziqadi. Jamoa hayotidagi uchinchi bosqich ijtimoiy fikr mavjudligi bilan ifodalanadi. Pedagog mazkur yo'nalihsda maqsadga muvofiq va izchil ish olib borgan sharoitdagina ijtimoiy fikrni shakllantirishga erishishi mumkin.

Shu maqsadda u yoki bu tadbir rejasini, jamoaning birgalikdagi faoliyatini, uning a'zolari xatti-harakati jamoa bo'lib muhokama qilinadi. Turli mavzularda suhbatlar va ma'ruzalar uyush-tirilib, o'quvchilar o'rtasida samarali axborot vositalari yordamida ijtimoiy-g'oyaviy, axloqiy, estetik, ekologik, huquqiy-iqtisodiy va boshqa bilimlar targ'iboti tashkil etiladi. Pedagog jamoa a'zoiarining birgalikdagi faoliyatini tashkil etar ekan, jamoa a'zoiarining o'zaro munosabatlarini shakllantirishga ta'sir ko'rsatadigan shakl va metodlardan foydalaniadi.

Jamoa o'zining har bir a'zosida ijtimoiy ahamiyatli faoliyatni maqsadga muvofiq ravishda shakllantirib borish, jamoa a'zolari orasida barqaror insoniy munosabatlarning tarkib topishiga yordam beradi. Jamoada barqaror insoniy munosabatlarning yuzaga kelishi sababi, uning a'zoiarining yuksak aqliy mazmunga ega bo'lgan ishlarni tashkil etishda faol ishtirok etishining samarasidir.

Jamoa rivojlanishining uchinchi bosqichida ko'rsatib o'tilgan xususiyatlar shundan dalolat bcradiki, ushbu bosqichda jamoa faolligini emas, balki jamoaning har bir a'zosi bir-birlariga axloqiy mazmundagi talablami qo'ya boshlashadi.

Jamoa rivojlanishining to'rtinchchi bosqichi uning barcha a'zolari jamoa oldida turgan talablar asosida o'z-o'zlariga talablar qo'ya olishlari bilan tafsiflanadi. Shuni aytish mumkinki, har bir bosqich jamoa a'zoiarining o'z oldiga muayyan talab qo'yishi bilan tafsiflanadi, ammo qo'yilgan har bir talab o'ziga xos yo'nalihi (masalan, o'yindan umuminsoniyat baxti uchun kurashishga intilish o'rtasidagi farq) bilan ajralib turadi.

Xuddi shu jihatdan to'rtinchchi bosqich jamoa a'zoiarining

o'ziga nisbatan yuksak axloqiy talablar qo'ya olishlari bilan ahamiyatlidir. Jamoaning hayoti va faoliyati mazmuni jamoa a'zoiarining har biri uchun shaxsiy ehtiyojga aylanadi. Jamoadagi tarbiya jarayoni o'z-o'zini tarbiyalash jarayoniga o'sib o'tadi.

Biroq, bu ayrim shaxsnинг yanada rivojlanishidagi jamoaning tutgan о'rnini pasaytirmaydi. To'rtinchchi bosqichda amalga oshiriladigan vazifalar ancha murakkab va mas'uliyatlidir. Mazkur bosqichda jamoa oldiga istiqbolli yuksak va murakkab talablar qo'yish uchun qulay sharoit yaratiladi.

### **Adabiyotlar:**

1."O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", "Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori"- Toshkent: Sharq, 1997-65b.

2.Karimov I.A "Yuksak m'naviyat yingilmas kuch ". Toshkent: O'zbekiston 2008. 202 b.

3.Tarbiyaviy ishlar konsepsiysi. 2005y.

4.A. Avloniy "Turkiy Guluston yohud ahloq" (nashirga tayyorlovchi Holiqov L)- Toshkent: O'qituvchi, 1992. 160b.

## 21-mavzu Tarbiya nazariyasining psixologik xususiyatldari.

### Reja:

1. Tarbiya jarayonining psixologik mohiyati, maqsad va vazifalari.
2. Tarbiyaviy ta'sirning psixologik asoslari.

### Tarbiya jarayonining psixologik mohiyati, maqsad va vazifalari

Jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida ham davr talabiga munosib bo'lgan yosh avlodni tarbiyalash muammosi hamisha dolzarb ahamiyatga molik bo'lib kelgan.

Tarbiya - bu shaxsnинг ijtimoiy, ma'nawiy va ishlab chiqarish faoliyatiga tayyorlash maqsadida uning ma'nawiy, jismoniy kamolotiga muntazam ravishda ta'sir ko'rsatish jarayonidir.

Tarbiya tarbiyachi tomonidan tarbiyalanuvchida barqaror axloqiy hislat va xulqiy fazilatlarni tarkib toptirish, shakllantirish maqsadida tarbiyalanuvchining ongiga aniq maqsad yo'lida tarbiyaviy ta'sir etish jarayonidir.

Tarbiya - bolaning ijtimoiy muhitda o'z o'rnnini topishni o'rganishi hamda insonning hayotiy ko'nikma va malakalarga ega bo'lishidir. Ta'lim jarayonining markazida shaxsnинг bilish va anglash jarayoni, uning qobiliyati, ilm o'rganishi yotsa, undan farqli o'laroq tarbiya insonni shaxs sifatida shakllanishiga, uning dunyoqarashi va jamiyatga munosabatiga qaratiladi. Tarbiya - bu alohida jarayon emas, balki o'qitishning bir tomoni bo'lib, u bilan umumiy va farqli tomonlarga egadir. Bilim berish va tarbiyaga, asosan, insonning ijtimoiy ko'nikma olish mexanizmining o'ziga xos jihatlarini kiritish mumkin. Tarbiya jarayonida shaxsning sifat va xossasi, ijtimoiy xulq-

atvori va shakllari nazarda tutilsa, o'qitishda bilim, ko'nikma va malakalar inobatga olinadi.

Tarbiya jarayonining ilmiy asoslari bilan, psixologiyadan tashqari falsafa, sotsiologiya va pedagogika fanlari shug'ullanadi. Holbuki, psixologiya fanisiz tarbiyaning asosiyligi muammolari hal qilinib bo'lмаган holda to'g'ri qo'yilishi ham mumkin emas, chunki ularni anglash negizida shaxs psixologiyasi, insoniy munosabatlar, har xil ijtimoiy jamoalar psixologiyasini bilish yotadi. Barcha uchun umumiy bo'lgan yoki bolalarga individual tavsiyalar berishda umumiy psixologiya va yosh davrlar psixologiyasiga tayaniladi.

### Tarbiya uning maqsadlarini aniqlashdan boshlanadi.

**Tarbiyaning bosh vazifasi** - jamiyat hayotida zarur bo'lgan kerakli sifatlarni o'zida mujassamlashtirgan shaxsni shakllantirish va rivojlantirishdan iborat.

Tarbiya jarayonida doimiy va o'zgarmas maqsad qo'yilmaydi, chunki o'zgarmas maqsad har qanday jamiyatga ham mos bo'lavermaydi. Jamiyat tuzilishi va ijtimoiy munosabatlar o'zgarishi bilan tarbiya maqsadi o'zgaradi.

Tarbiya turli xil davrlarda va turli xil jamiyatlarda o'zgarmas jarayon bo'lib qolmaydi. Tarbiyaning maqsadlari, mazmuni, shakl va metodlari har bir tarixiy davrda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Inson shaxsini shakllantirish bo'yicha har bir ijtimoiy tuzum yo'nalishiga mos ravishda talablar qo'yiladi. Tarbiyaning barcha tarixiy davrlar uchun xos bo'lgan ba'zi bir umumiy belgilari ham mavjud. Pedagogik g'oyalar va tarbiyaviy ishni rivojlantirishda muayyan darajadagi aloqa va ma'lum bir davomiylik mavjud. Jumladan, asrlar davomida dars maktabda o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishning asosiyligi shakli bo'lib keldi va shunday bo'lib qolmoqda. Qator o'quv predmetlari mazmuni ma'lum darajada saqlanib qolayapti. Ayni chog'da tarbiyada va ta'lim berishda g'oyaviy jihatdan betaraf qoladigan jihatlar borligini ham unutmaslik lozim. Tarbiya va ta'limning tashkiliy shakllarini aniq to'ldirish, maktab ishining u yoki bu

masalalarini izohlashda turli davrlarda turlicha yondashuvlar mavjud bo'lgan.

Agar jamiyat o'z taraqqiyot davrida ma'lum bir rivojlanishga, madaniyatga va ma'naviyatga erishgan bo'lsa va uni saqlab qolishni hamda yuksaltirishni istasa, uning tarixida turli xil o'zgarishlar ro'y berishidan qat'iy nazar, u o'tmishdan beri saqlanib kelayotgan eng yaxshi an'ana va qadriyatlarini qabul qilishi, davom ettirishi lozim bo'ladi. Umuminsoniy qadriyatlar va madaniy boyliklar tarixiy va hududiy chegara va hududiy chegara bilmaydigan boyliklar qatoriga kiradi. Birinchi navbatda xuddi o'shalar ijtimoiy tarixning barcha bosqichlarida tarbiya maqsadlarini ifodalaydi. Bu maqsadlar yaxshilik va yomonlik, to'g'rilik va tartiblilik, insoniylik va tabiatga bo'lgan muhabbat tushunchalari bilan bog'liqdir. Bu yana ruhiyat, erkinlik, shaxsning o'zi va atrofida ro'y berayotgan voqealarga javobgarlikni his qilishi, kamtarlik, insoniylik ko'rinishlarida namoyon bo'ladi.

Ruhiyat yuqori ahloqiy tafakkurning bir daqiqalik mayl va ehtiyojlardan yuqori qo'yilishini bildiradi. O'sib kelayotgan va rivojlanayotgan shaxsda bu doimiy ravishda ahloqiy barkamollikka intilishda namoyon bo'ladi. Erkinlik bu insonning ichki va tashqi ozodlikka intilishidir, bunda boshqa shaxsning ijtimoiy kelib chiqishi, millati, diniy va siyosiy qarashlari, sinfiy munosabatlari va boshqa xususiyatlardan qat'iy nazar, uning xuquqlari albatta to'la to'kis tan olinishi lozimdir.

Majburiyat yoki javobgarlikni his qilish - erkinlikning qaramaqarshi jihatni bo'lib, bu shaxsning manfaatlariga xizmat qiladi. Majburiyatsiz erkinlik - bu o'zboshimchalik, palapartishlik hisoblanadi. Erkiniksiz majburiyat esa - bu qullikdir. Unisi yoki bunisi o'zaro birbirini to'ldirganda yoki bog'langanda mustaqillik mavjud bo'lishi mumkin. Majburiyatni yana boshqacha talqin qilinsa, insonning o'z ixtiyori bilan jamiyat hayoti va boshqa insonlar taqdiri uchun javobgarlikni o'z ustiga olishi tushuniladi. Hozirgi zamon tarbiyasining umumiyl

maqsadi bolani yuksak ahloqli, ruhiy jihatdan boy, qalban ozod, erkin, burch va majburiyatni his qila oladigan shaxs sifatida shakllantira olishdir. Tarbiyaning umumiyl maqsadi bilan bir qatorda maxsus ijtimoiy maqsadlar ham kelib chiqishi mumkin. Ular tarixning ma'lum davrida o'zgaruvchan talablar bilan jamiyat taraqqiyotining dolzarb muammolarini bayon etishi va rivojlanishiga hissa qo'shishi lozim. Ma'lum vaqtidan so'ng jamiyat taraqqiyoti o'zining ma'lum bir bosqichidan o'tgandan keyin rivojlanish yana davom etadi va talablar ham o'zgaradi. Tarbiyaning maqsad va vazifalaridan biri bu jamiyat taraqqiyotining zamonaviy rivojlanish bosqichlariga javob bera oladigan maxsus tashabbuskor bolalarni yetishtirish, shaxsni o'z-o'zini hurmat qiladigan va intiluvchan qilib tarbiyalashdan iboratdir.

Yuksak tafakkur namoyondalarining, xususan faylasuflarning risolalarida hamda badiiy adabiyotning yirik vakillari asarlarida ijtimoiy-siyosiy va axloqiy ta'lilotlarga, ayniqsa, keng o'rinn berilgan. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, o'tmishda axloqshunoslik sohasida ijod qilib, shu fan taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shgan mutafakkirlarimiz talaygina.

**Abu Nasr Farobi** bolalarni axloqli, nazokatli qilib tarbiyalashda musiqa bilimining ahamiyati haqida bunday deydi: "Bu fan shu ma'noda foydaliki, kimning fe'l-atvori muvozanatni yo'qotgan bo'lsa, u tartibga keltiradi, kamol topmaganlarni kamolga yetkazadi va muvozanatli bo'lganlarni muvozanatini uzoq muddatga saqlaydi. Musiqa ruhni davolaydi, uningsozlarining ta'siri bilan ruhiy quvvatlar o'z substansiyasiga uyg'unlashadi va tartibga, muvozanatga keladi".

Farobiy o'zining "Iso-al-ulum" kitobining oxirgi bo'limida: "Inson aqli faqat bilim bilan cheklanmaydi, balki odat va qarashlarni o'zining maqsadlariga bo'ysundira olishi va yo'naltirishi, o'zgartirishi ham mumkin," -deb yozadi. Uning filkricha, har bir kishi bilimlarni yaxshi egallamog'i, yaxshi va

barkamol tarbiya olmog'i, eng yaxshi fazilatlarga ega bo'lmosg'i kerak. Farobiy fikricha, kishidagi tub g'oya – saodatdir. Tarbiya vositasi bilan bolalarda hosil qilinadigan barcha insoniy, axloqiy fazilatlar shunga qaratilmog'i kerak.

### Tarbiyaviy ta'sirning psixologik asoslari

Insonning tabiatini o'zgartiradigan, uning shaxsini tarkib topishiga ta'sir qiladigan kuch ijtimoiy omillar yoki boshqacha qilib aytganda, jamiyat ishlab chiqarish kuchlari hamda ishlab chiqarish munosabatlarining o'sishi va o'zgarishidir. Bundan tashqari inson shaxsining tarkib topishiga ta'sir qiluvchi yana bir kuchli omil - inson orttirgan tajribalarining tarbiya vositasi orqali bolalarga berilishidir. Shunday qilib, inson shaxsi juda murakkab psixologik kategoriya bo'lib, u kishining individual hayoti davomida ma'lum konkret omillarning ta'siri ostida sekin-asta tarkib topadi. Ilmiy manbalarga qaraganda inson shaxsi uchta faktorlar ta'sirida tarkib topadi. Ulardan birinchisi, odam tug'ilib o'sadigan tashqi ijtimoiy muhitning ta'siri bo'lsa, ikkinchisi, odamga uzoq muddat davomida sistemali ravishda beriladigan ijtimoiy ta'lim-tarbiyaning ta'siridir va nihoyat, uchinchisi odamga nasliy yo'l bilan beriladigan irlsiy omillarning ta'siridir.

Insonning psixik taraqqiyotida va shaxsiy sifatlarining tarkib topishida tashqi, ijtimoiy muhit va tarbiyaning roli hal yetuvchi ahamiyatga egadir. Lekin, inson shaxsining tarkib topishi, yuqorida aytib o'tganimizdek, faqat shu ikkita faktorga emas, balki uchinchi bir faktorga ham bog'liqidir. Bu faktor nasliy yo'l bilan ayrim anatomik va biologik xususiyatlarning ta'siridir. Masalan: tanasining tuzilishi, sochi va ko'zlarining rangi, ovozi, gapirish uslublari, ayrim harakatlari tug'ma ravishda berilishi mumkin. Lekin, shuni hech qachon esdan chiqarmaslik kerakki, odamga hech vaqt uning psixik xususiyatlari, ya'ni uning aqliy tomonlari bilan bog'liq bo'lgan sifatlari nasliy yo'l bilan berilmaydi. Nihoyat, nodir hollarda ayrim qobiliyatlar, masalan,

musiqa, matematika qobiliyatlarda nasliy yo'l bilan berilishi mumkin. Bunday imkoniyatlarning amalga oshirilishi, ya'ni ro'yobga chiqishi uchun albatta, ma'lum sharoit bo'lishi kerak.

Hozirgi kunda xalqimiz orasidan yetishib chiqqan iste'dodli olimlar, muhandis-ixtirochilar, yozuvchi va shoirlar, davlat va jamoat arboblari, iste'dodli artistlar, rassomlar va boshqa kishilarimizga nasliy yo'l bilan berilgan barcha imkoniyatlarning ro'yobga chiqishi uchun har qanday sharoit maydonga kelganligini dalili bo'la oladi.

Shaxsning barcha xususiyatlari, munosabatlari va xatti-harakatlari shaxsning hayoti faoliyatida ma'lum rolni bajaruvchi va har biri murakkab qurilmadan iborat bo'lgan hamda shartli ravishda to'rtta o'zaro mustahkam bog'langan funksional bosqichlarga birlashtiriladi:

Shaxsning ana shu ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan barcha sifatlari ijtimoiy taraqqiyotning yuksak ongli faoliyatchisi sifatidagi shaxsning hulq-atvori va xatti-harakatlarini belgilaydi.

**Birinchি tizim**ning hosil bo'lislida analizatorlar o'rtaсидаги doimiy tabiiy aloqani aks ettiruvchi filogenetik mehanizmlar katta rol o'ynaydi. Biroq, bu ilgari yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek ontogenez jarayonida filogenetik analizatorlar o'rtaсидаги aloqa vaqtli aloqalar bilan organik jihatdan qo'shilib keladilar. Bunda mazkur tizimning ichida perseptiv tizimga o'tib ketadigan yuksak darajada integratsiyalangan ma'lum ichki sensor komplekslarni hosil qiladi. Bunday komplekslar qatoriga nutq, eshitish, ko'rish hamda sensomotor komplekslarni kiritish mumkin. Mana shu komplekslarning hammasi odamning hayot-faoliyati jarayonida o'zaro bir-biri bilan doimiy aloqaga kirishib, sensorperseptiv uyushishning yagona funksional dinamik tizimini yaratadi. Insonning sensor-perseptiv jihatlari doimo takomillashib boradi.

**Ikkinchи tizim** barqaror psixik holatlarni o'z ichiga oladi. Bu holatlar bolaning aniq maqsadni ko'zlovchi va foydali faoliyatining ongli subyekti sifatida boshlagan harakatlarining

dastlabki yillaridayoq shakllana boshlaydi. Temperament, intellekt, bilim va munosabat ana shunday xususiyatlar jumlasiga kiradi.

**Uchinchi tizim** - shaxsni arbob sifatida stabilizatsiya tizimidir. Yo'naltirilganlik, qobiliyat, mustaqillik va harakter uning tarkibiy qismini tashkil etadi.

**Yo'naltirilganlik** - shaxsning integral va generalizatsiya qilingan xususiyatidir.

Yo'naltirilganlik bilim, munosabatlarning hamda shaxsning xulqatvori va xatti-harakatlarida ijtimoiy ahamiyat yetakchilik kilgan motivlarning bir butun ekanligida o'z ifodasini topadi. Bu xususiyat odamning dunyoqarashi, qiziqishlari va ma'naviy ehtiyojlarida namoyon bo'ladi.

Yo'naltirilganlik strukturasida g'oyaviy e'tiqod katta rol o'ynaydi. G'oyaviy e'tiqod - bu bilimning, o'sha shaxsga xos bo'lgan intellektual, emotsiyal va iroda sifatlarining sintezi, g'oyalar va xatti-harakatlar bir butunligining negizidir.

**To'rtinchi tizim** o'z ichiga shunday xususiyatlar, munosabatlар va xattiharakatlarni oladiki, ularda real shaxslarning ijtimoiy «o'y fikrlari va his-tuyg'ulari» aks ettiriladi. Ular bu shaxslarning siyosiy jihatdan ongli, ijtimoiy taraqqiyotning mas'ul arboblari sifatida xulqatvorini belgilab beradi. Bunga gumanizm, optimizm va mehnatsevarlik fazilatlarini kiradi.

Shaxs shakllanishida u yashayotgan muhit, kishilar, jamiyatning roli juda kattadir. Masalan, biron mahallada inson shaxsining tarkib topishiga faol ta'sir ko'rsatuvchi yuzta o'ziga xos ijtimoiy muhit bor degan ma'noni bildiradi. Bu yerda shunday bir savol tug'iladi:

**«Tashqi muhit inson shaxsining tarkib topishiga qanday ta'sir qiladi?»**

**Birinchidan**, ijtimoiy muhiddagi turli hodisalar odamning ongiga bevosita ta'sir qilib, unda chuqur iz qoldiradi.

**Ikkinchidan**, tashqi ijtimoiy muhit ta'sirining chuqurroq

va mustahkamroq bo'lishiga odamning o'zi yordam beradi. Ma'lumki, bolalar o'z tabiatlariga ko'ra, ilk yoshlik chog'laridan boshlab, nihoyat darajada taqlidchan bo'ladilar. Bolalar katta odamlarning barcha xatti-harakatlariga bevosita taqlid qilish orqali bu xatti-harakatlarni, yaxshi-yomon fazilatlarni o'zlariga singdirib boradilar. Bolalar oilada, ko'cha - ko'yda, katta odamlarning har bir harakatlarini, o'zaro munosabatlarini zimdan kuzatib turadilar.

Insonshaxsining tarkib topishida tashqijitmoiymuhitning roli haqida gap borar ekan, shuni ham ta'kidlab o'tish zarurki, ayrim g'ayri tabiiy hodisalar inson shaxsining tarkib topishida tashqi muhit ta'sirining hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini to'la tasdiqlaydi. Biz ayrim tasodifiy hollarda odam bolalarining yovvoyi hayvonlar muhitiga tushib qolish hodisasini nazarda tutayapmiz. Hayotda bunday hodisalar juda siyrak bo'lsa ham har holda uchrab turadi. Masalan, Hindistonlik doktor **Sing Kalkutta** yaqinidagi o'rmonzorda bo'ri bolalari bilan birga ikkita odam bolasining ham to'rt oyoqlab yugurib yurganini ko'rib qoladi. Keyin ularni poylab, qarorgohlarini topib, bolalarni olib ketadi. Ulardan biriga **Amala**, ikkinchisiga **Kamala** deb nom qo'yadi. Shu narsa xarakterlik, bolalar yoshlikdan bo'rilar muhitiga tushib qolganliklari tufayli, fe'l-atvorlari, xatti-harakatlari jihatidan bo'rildan farq qilmas edilar. Nutq yo'q, demak tafakkur ham nihoyat darajada cheklangan edi. Juda katta qiyinchiliklar bilan qayta tarbiyalanilayotgan bo'ri muhitidagi bolalar shamollah natijasida o'lib qoladilar. Bu hodisa odamning shaxs sifatida rivojlanishi uchun eng avval insoniy muhit, ya'ni ijtimoiy muhit bo'lishi kerakligini to'la tasdiqlaydi. Shaxs va uning psixologiyasiga ta'sir etuvchi ikkinchi omil ta'lim- tarbiyaning ta'siridir. Ma'lumki, ta'lim-tarbiya inson ongini shakllantiradi, uning dunyoqarashi, e'tiqodi, hayotga bo'lgan munosabatini tarkib toptiradi. Agar bolalarning ruhiy taraqqiyotlari va shaxsiy xususiyatlarining tarkib topishi faqat tashqi ijtimoiy

muhit bilan, ta'lim-tarbiyaning o'zigagina bog'liq bo'lganda edi, unday paytda biz bir xilda sun'iy va aynan bir xil ta'lim-tarbiya sistemasini tashkil qilib, har tomonidan bab-baravar taraqqiy etgan va deyarli bir xil shaxsiy xususiyatlarga ega shaxslarni yetishtirib chiqarar edik. Vaholanki, bunday bo'lishi mumkin emas. Shuni aytib o'tish kerakki, bola shaxsining tarkib topishiga ta'lim-tarbiyaning ta'siri deganda, albatta, birinchi navbatda tarbiya muassasalarida, ya'ni bog'cha, mакtab, internat, litsey va kollejlarda beriladigan ta'lim-tarbiya tushuniladi. Biroq, bundan oilada bolaga beriladigan ta'lim-tarbiya mutlaqo mustasno emas. Oiladagi umumiy ijtimoiy muhitdan tashqari, oilada beriladigan ta'lim-tarbiyaning ham roli kattadir. Bola tarbiyasi bilan sistemali shug'ullanadigan va umuman shug'ullanmaydigan oilalarga misollar keltirish mumkin.

Yuqorida aytib o'tilgan ikkita omildan tashqari uchinchini omil ham mavjudki - bu nasliy xususiyatlardir. Odamga **nimalar nasliy beriladi?** Odamga nasliy yo'l bilan ayrim anatomik va biologik xususiyatlari beriladi. Masalan, tana tuzilishi, sochi va ko'zlarining rangi, ovozi, gapisht uslublari, ayrim harakatlari tug'ma berilishi mumkin. Lekin shuni hech qachon esdan chiqarmaslik kerakki, odamga hech vaqt uning psixik xususiyatlari, ya'ni uning aqliy tomonlari bilan bog'liq bo'lgan sifatlari nasliy yo'l bilan, ya'ni tug'ma ravishda berilmaydi. Nihoyatda nodir hollarda ayrim qobiliyatlar, masalan, musiqa, matematik qibiliyatlar nasliy yo'l bilan berilishi mumkin.

Odamning ruhiy taraqqiyoti va shaxsiy xususiyatlarining tarkib topishi haqida gapirar ekanmiz, yana bir muhim narsa ustida to'xtab o'tish kerak. Xozirgi kunda tez-tez **akseleratsiya** terminini ishlatayapmiz.

**Xo'sh akseleratsiya bu nima?** Akseleratsiya - «tezlatish» degan ma'noni anglatadi. Hozirgi kunda bolalarni ham jismoniy, ham ruhiy jihatdan juda jadallik bilan rivojlanayotganliklarining guvohi bo'lib turibmiz. **Xo'sh, buning sababi nima bo'lishi**

**mumkin?** Albatta, bunga turli fikrlar bor. Ayrim olimlar akseleratsiyaning sababini ilmiy-texnika taraqqiyoti bilan bog'lab tushuntirishga intilmoqdalar. Ularning fikricha, ilmiy-texnikaning juda jadal temp bilan rivojlanishi insoniyatning oldiga mislsiz ko'p axborotlarni idrok qilish va fikrda qayta ishslash talablarini qo'yadi. Bu talab o'z navbatida insonni har tomonlama, ya'ni ham jismoniy, ham psixik jihatdan tez rivojlanishiga olib keldi. Yuqorida aytib o'tilgan olimlarning fikricha, akseleratsiya - bu XX asrning ikkinchi yarmiga xos bo'lgan hodisadir.

Tarbiyali bo'lish - bu xulq-atvorini nazorat qilishdan iboratdir.

Bunday nazorat insonga yomon xatti-harakatlarni bajarmaslik imkoniyatini beradi. Agar shaxs xulq-atvorini axloqiyligi haqida qayg'ursa, u ijtimoiylashuvga erishgan bo'ladi.

Tarbiyalanganlik ijtimoiylashuvni o'rganish jarayoni sifatida qaraladigan yosh psixologiyasida olingan natijalarga asoslanadi. Bola o'zini egotsentrik emas, balki tarbiyali tutishi uchun tarbiyalanganlik qanday rag'batlantirilishi kerak? Tarbiya o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiy jihatdan ijobiy ehtiyojlarni hosil qilishidir. Agar ta'lim shaxsning ongini shakllantirish bo'lsa, tarbiya uning ongsizlik sohasiga ta'sir etishdir. Bolalarga ularni tarbiyalaydiganlarga hissiy yaqinlik xos. Odatda 6 oylik bolalar unga g'amxo'rlik qiladigan ota-onasiga bog'lanib qoladilar. Ota-onaning oldida, ular bilan muloqotda bo'lish bolalarga juda yoqadi, ularning yo'qligi bolaga yoqmaydi. Ota-onaning g'amxo'rligini bildiradigan so'zlar, xatti-harakatlar bola uchun juda katta ahamiyatga ega, uni erkalamaslik, suymaslik salbiy ahamiyatga ega bo'ladi. Xulq-atvorning dastlabki ijtimoiylashuvni xuddi shu o'rganish jarayoni orqali sodir bo'lishi mumkin: xulq-atvorning istalgan shakllari g'amxo'rlik va e'tibor bilan taqdirlanadi, kutilmagan shakllari esa qo'llabquvvatlanmaydi. Lekin, yaxshi xulq-atvorni rag'batlantirish va yomon xulqatvor

uchun jazolash axloqiy ijtimoiylashuvning kichik bir qismidir. Biz ko'rib chiqkan xulq-atvor hamma bolalarga ham taalluqli emas

Bolalarni tarbiyalash samaradorligini oshirishda an'ana va urfodatlarning roli katta. Xalq urf-odatlari, an'analari va marosimlari katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Ular odamlarni bir-biriga yaqinlashtiradi, do'stlik-birodarlik his-tuyg'ularini rivojlantiradi.

Bular o'z navbatida yoshlar uchun ibrat namunasini o'taydi.

Tarbiya jarayonida g'amxo'rlikning funksiyasi kattadir. Bolalar befarq ota-onalarga nisbatan g'amxo'r ota-onaga ko'proq taqlid qiladilar. G'amxo'r ota-onalar bolaning salbiy xulq-atvorini qo'llab-quvvatlamaganda, bola o'z xatti-harakatlarining oqibatini ertaroq anglaydi.

Tarbiyaviy jarayonni amalga oshirishda g'amxo'rlik bilan bir qatorda yaxshi ko'rishga asoslangan intizomga rioya qilish zarurdir. Bu bola bilan doimiy muloqotni, tushuntirishni, muhokama qilishni, agar bolaning xulq-atvori shuni talab qilsa, og'zaki tanbeh berishni, yaxshi xulq-atvor uchun taqdirlashni nazarda tutadi.

Bola shaxsi rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari uning ilk davrlardagi rivojlanishini aniqlamasdan turib tushunish qiyin. Axloqiy rivojlanish ilk bor shaxsning umumiyl xususiyatlari va xislatlari shaklida shakllanishi haqidagi g'oyalari ilk bor **X.Xartshorn** va **M.Meylar** tomonidan ilgari surilgan bo'lib, ularning fikricha, axloqiy xulq-atvorni keltirib chiqaruvchi va faoliyatga undovchi fenomenlar aniqlanmaguncha axloqiy rivojlanishni o'rganib bo'lmaydi. X.Xartshorn va M.Meylar olib borgan tadqiqotlarining asosiy maqsadi axloq normalariga rioya qilishda bola shaxsining umumlashgan hislatlarini shakllantirish muhim rol o'ynaydimi yoki xususiy axloqiy odatlar ahamiyatiroqmi, degan savolga javob topish bo'lib, tadqiqotlardan shu narsa aniqlanadi, axloqiy normalarni

bola ongiga singdirilishida xususiy odatlarni yuzaga keltirish va o'ziga xos ta'lim nazariyasiga asoslanish ustunligi yaqqol namoyon bo'ladi.

Bolalar tomonidan ba'zi bir axloqiy tushunchalar va tasavvurlarning o'zlashtirilishi va ularning bola shaxsiga bo'lgan ta'sirini psixologik nuqtai nazardan o'rgangan V.A.Krutetskiy o'z tadqiqotida 10 ta asosiy tushunchani tanlab oladi. Bular: qat'iylik, sezgirlik, faxrlanish, haqgo'ylik, mardlik, bir so'zlilik, kamsuqumlik, qo'rmaslik, faxrlanish, burch kabilardir. Olim o'tkazgan tadqiqotidan shunday xulosaga keladiki, bolalar ushbu tushunchalarni mukammal tushunishlari va hayotga tadbiq etishlari uchun:

- bola tarfaolligini oshirish;
- ularda emotsional qo'zg'allishni vujudga keltirish;
- hayotiy faoliyatdan keng foydalansh;
- bir -biriga qarama -qarshi tushunchalarni chuqurtahil qilish zarurekan.

Bolalarda o'z-o'zini anglashda shaxs axloqiy hislarining ba'zi bir jihatlari masalari **P.I.Razmislov**, jamoa oldida burchni rivojlanish xususiyatlari **A.L.Shnirman**, burch hissini tushunish muammolari **A.S.Alyakrinskaya**, **axloqiy jihatdan o'zini aniqlash muammolari**

**V.I.Shardakovlar** tomonidan o'rganilgan.

Bolalik va maktab yoshida shaxs tarbiyaning hal kiluvchi ta'siri ostida tarkib topadi. Tarbiya maxsus faoliyat sifatida muyayan dasturning, anglab olingan maqsadning mavjudligi bilan ta'sir ko'rsatishning maxsus ishlab chiqilgan va asoslab berilgan vositalari, shakllari hamda metodlarining tasodifiy yoki stixiyali ta'sirlaridan ajralib turadi. Ma'lumki, tarbiyaning eng muhim vazifasi yosh avlodda mustahkam e'tiqod va

histuyg'ular hamda ularga asoslangan ma'naviy xulq- atvorni hosil qilishdir. Bu vazifani shaxsni faol va muayyan maqsadni ko'zlagan holda, shuningdek bolaning individual xususiyatlarini hisobga olgan taqdirdagina hal etish mumkin.

Mashhur olim Gerbart tarbiya maqsadini belgilab olishga katta ahamiyat bergen. U tarbiyaning maqsad va vazifalarini yaxshi fazilatli kishini tarkib toptirishdan iborat, deb hisoblaydi. Gerbart tarbiya ishida aqliy ta'limga tarbiyaning eng katta va asosiy vositasi deb bilib, ta'limsiz tarbiya bo'lmaydi deb hisoblagan.

Tarbiya uzlusiz ravishda ta'lim bilan birlashtiriladi. Avvalo oilada, keyinchalik ta'lim- tarbiya muassasalarida berib boriladi. Shaxsning qaror topishini eng muhim vazifasi bolada axloq talablariga javob beradigan e'tiqod va ideallarni tarkib toptirishdir. Bola shaxsining shakllanishidagi jarayonda yuzaga kelgan axloqiy e'tiqod va ideallar sistemasi, ya'ni uning ma'naviy ongi hukmronlik qiluvchi, uning ijtimoiy faolligini belgilab beruvchi omilga aylanadi.

Shaxsning ijtimoiy yo'nalishini tarkib toptirish uchun mактаб болаларини барча вазият ва holatlarda to'g'ri yo'l tutishini istashi hamda to'g'ri yo'lдан borishi uchun uning nima qilishini bilishi, o'zi ham to'g'ri xulq-atvorli bo'lishni mashq qilishi zarur.

Bolalarning ongiga singdirilgan qoidalarni yaxshilab asoslab berilishi, isbotlangan bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Bu hamma narsani tushinib olishga va buning asoslanganligiga ishonch hosil qilishga, oqilona isbotlarga rozi bo'lishga qodir bo'lgan o'smirlar va katta yoshdagibolalar uchun juda muhimdir.

Bolalarda maksimal faollikni yuzaga keltirish yoki jonli ravishda fikr almashish istagini uyg'otish, ularning fikrini avj oldirish va o'zlarini axloq masalalari ustida o'ylab ko'rishga majbur qilish zarur. Bolalarga tayyor haqiqatni zo'r lab qabul qildirish yaramaydi, axloq normalari haqidagi xulosalarni chiqartirish ularning faol ishtirokida amalga oshirilishi lozim.

Buning uchun suhbat jarayonida muhokamaga qo'yilishi kerak bo'lgan masalalarni oldindan tayyorlab qo'yish tavsiya etiladi.

Bolalarda chuqr va ta'sirchan emotsiyalarni uyg'otishga intilish lozim. Bunda o'qituvchi suhbatni befarq, shavq va zavqsiz emas, balki emotsiyalarni tarzda jonli qilib o'tkazilgandagina erishish mumkin. O'qituvchi o'zining ehtirosli e'tiqodi bolalarga o'tishini unutmaslik darkor.

Yuqorida aytilgan fikrlardan o'qituvchilar va ota onalar o'zlariga hamda o'z xulq-atvorlariga nisbatan juda qattiq talablar qo'yishi, o'nlab bolalarning sinovchan ko'zları, ularning kuzatib turganliklarini hech qachon unutmasliklari kerak.

**Konfutsiy:** "Eskini o'zlashtirgan va yangini tushunishga qodirinsonginatarbiyachibo'laoladi"-deganedi. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq butun mamlakat miyosida ta'lim-tarbiya, ilm-fan, kasb-hunarga o'rgatish sohalarini isloh qilishga nihoyatda katta zarurat sezila boshladи. Bugungi kunda tarbiya jarayonida ham qator o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Shuni ta'kidlash lozimki, ma'rifat xalqimiz, millatimiz qonidadir. An'anaviy sharqona qarashga ko'ra, ma'rifatlilik faqat bilim va malaka emas, ayni paytda chuqr ma'naviyat va go'zal axloq degani hamdir.

Bir ijtimoiy jamiyatning ikkinchisiga almashishi, shuningdek, milliy mustaqillik va uning ne'matlari, respublikamiz fuqarolarida tub o'zgarishlarni vujudga keltirmoqda. Milliy tuyg'u, qiyofa, harakter, ta'b, kuy, raqs, ma'naviyat, qadriyat hamda ruhiyat ta'siri ostida o'zining tub mohiyatini aks ettira boshladи. O'tmisning boy merosi, uning an'analari milliy istiqlol tufayli o'z egalariga qaytarib berildi. Fuqarolarning ijtimoiy ongi asta-sekin o'zgarib borishi natijasida etnopsixologik xususiyatlar tiklana boshladи, milliy, umumbashariylik hislatlari o'rtasida adolatlilik, teng huquqlilik aloqalari o'rnatalmoqda.

XXI asrda shaxs shakllanishida, uning tarbiyalanganlik darajasini ortishida dinning, xususan «Hadis» ilmining

ahamiyati kattadir. Shaxslararo munosabatda tenglik, g'amxo'rlik, samimiylit, o'zaro yordam, simpatiya, antipatiya, hamdardlik, sevgi-muhabbat singari milliy xususiyatlarni tarkib toptirishda hadislarning roli yanada ortadi.

O'zbek oilasida tarbiya mohiyati, mazmuni tarbiyaning kundalik rejasi, bolalarga ta'sir o'tkazish vositasini tanlash va undan unumli foydalanish o'ziga xos xususiyatga ega, chunki uning asosida xalq an'analari yotadi.

Ma'lumki, yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi bilan oila, mahalla, ta'lif muassasalari, ommaviy axborot vositalari, huquknimuhofaza qiluvchitashkilotlar, ilmiy-pedagogikkadrlar shug'ullanadilar. Tarbiya jarayonida barcha ishtirokchilarning bahamjihatlik bilan olib boradigan ishlarigina, o'zining ijobiy natijalarini berishi mumkin.

#### Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – T.: OPI, 2003.
2. Sultonova G.A. Pedagogik mahorat. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.
3. Markova A.K. Psixologiya professionalizma. – M.: Znaniye, 1996.
4. Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta'lifi pedagoglarini kasbiy shakllantirish / Monografiya. – T.: Fan, 200'.
5. Muslimov N.A., va boshqalar. Kasb ta'lifi pedagoglarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi/ Monografiya. – T.: "Fan va texnologiya" nashrieti, 2013.
6. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari – Toshkent, 2015.
7. M.M. Axmedjanov, B.Q.Xo'jayev, Z.D. Hasanova. Pedagogik mahorat- Buxoro Davlat universiteti, 201'

#### 22-mavzu. Psixologik omillaming tarbiyaga ta'siri.

##### Reja:

1. Tarbiya jarayoni haqida qisqacha tushuncha.
2. Tarbiya jarayonida kuzatuvchanlik va tafakkur tarkib toptirish.
3. Tarbiya jarayonida xotira.
4. Tarbiyada diqqat va qiziqishlar.
5. Tarbiyada irodaning roli.

**Tayanch iboralar:** Tarbiya, Tarbiya muvaffaqiyatining omillari, kuzatuvchanlik uning Tarbiya jarayonidagi o'rni, fikr yuritish jarayonlari va vositalari, shakllantirish usullari, Tarbiya jarayonida esda olib qolish, esda saqlash, esga tushurishning o'rni, Tarbiyada diqqatning o'rni, qiziqishlar, o'quvchining irodaviy zo'r berishi, o'z-o'zini qo'lga olishi.

##### Tarbiya jarayoni haqida qisqacha tushuncha.

Tarbiya talabaga mufyyan ko'lamma va darajada bilim, ko'nikma va malaka berishga, shuningdek shaxsnинг aqliyati rivojlantirishga qartilgan murakkab jarayon hisoblanadi. Tarbiya ikki tomonlama xarakterga ega bo'lib, o'qituvchi (Tarbiya beradi) va talaba (Tarbiya oladi) larning hamkorlikdagifaoliyatini natijasida amalga oshiriladi. Tarbiyaning muvaffaqiyati, birinchidan o'qituvchi bilan talabalar jamoasi hamkorligidagi faoliyatining faol tarzda o'tishiga, ikkinchidan, nimalardan saboq berishga, Kim tomonidan tashkil qilishga, uni qanday metodlar Bilan amalga oshirishga va kimlarni o'qitishga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Oliy Tarbiya tizimida o'qish o'qituvchi rahbarligidagi o'qitish jarayonining bir tomonini xarakterlaydi, xolos. O'qishdagi muvaffaqiyatni ta'minlovchi asosiy omil talabaning mustaqilligidir. Mustaqillik Tarbiyaning obyektiv /o'quv materiali, o'qitish sur'ati, metodi, darsliklar va boshqalar/ va

subyektiv /talabaning o'quv motivi, qiziqishi, mayli kabilar/ sabablariga ta'sir qiladi. Bu o'rinda ta'sir o'tkazish, ta'sirlanish, o'z-o'zini qo'lga olish, o'z-o'ziga buyruq berish holatlari muxim rol uynaydi.

Pedagogik psixologiyada Tarbiya /o'qitish/, o'qish /o'rganish/ bilan bir qatorda o'zlashtirish tushunchasi ham qo'llaniladi. Oliy maktab amaliyotida o'qish va o'qitish oldiga qo'yiladigan asosiy vazifa bilimlarni, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishdan ibratdir. O'zlashtirish jarayoni inson faoliyatining ajralmas qismi bo'lib pedagogik psixologik ta'sirlar talabalar ongida qay yo'sinda tasavvur obrazlari, fikr va mulohazalar bo'layotganligi, ularning amaliy faoliyatlarida qanday shaklda aks etayotganligi, psixik o'sishga, ilmiy dunyoqarash va e'tiqodlarni egallahgayordam berayotganligini aks ettiruvchi murakkab jarayon hisoblanadi.

### **Tarbiya jarayonida kuzatuvchanlik va tafakkur tarkib toptirish.**

Kuzatuvchanlikni talabaarda shakllantirish uchun o'qituvchi ular oldiga aniq va muayyan maqsad qo'yishni: yaxlit predmetdan bo'lak va qismlarni ajratishni, obyektlarni o'zaro taqqoslashni, muxim va nomuxim belgilarni farqlashni o'rgatish lozim. Kuzatish yordamida o'rganilgan narsa va hodisalar talabalar tomonidan rasmlar, chizmalar, loyihalar, esdaliklar, muloxazalar tarzida qayd qilib boriladi. Faol maqsadga yo'naltirilgan uzluksiz kuzatish zamirida ularning kuzatuvchanlik xususiyati tarkib topadi va bilimlarni puxta, tez va aniq o'zlashtirish uchun xizmat qiladi.

Bilimlarni o'zlashtirishning muxim tomonlaridan biri o'quv materialini tushinishdan iborat bo'lib, ularning o'zoro bog'liqligi, predmetlararo aloqasi, muayyan sohalarga va tizimlarga taalluqligini anglash bosqichiga ko'tariladi. Talaba o'rganilayotgan materiallarni o'tilgan mavzular bilan murakkab ichki bog'lanishga ega ekanligini, qonuniyat ta'rifini, sabab-

oqibat munosabatlari kelib chiqishini tushunish imkoniyatiga ega bo'lmos'h'i zarur. Bu narsalarni oddiy idrok qilish yoki kuzatish orqali anglab bo'lmaydi. Shuning uchun u fikrlash, mulohaza yuritish, ijodiy izlanish, ya'ni tafakkur quratri Bilan aniqlanadi.

O'quv materiallarini o'zlashtirish uchun talabalar matndagi har bir tushunchalarni anglab yetmog'i zarur. Masalan, «kitob» - umumiy tushuncha, ya'ni bunda bir jinsdan bo'lgan ko'p narsa va hodisalar gavdalanadi; «Samarqand» - yakka tushuncha, chunki yakka nom haqida ma'lumot beradi; «daraxt» - yaqqol tushuncha, bu yerda alohida olingan bir butun narsaga aloqadorlik aks ettirilmoqda; «siyosat» mavhum tushuncha. Hatto talabaga «gulzor» so'zini to'planma tushunchalarga taalluqli ekanligini isbotlab, dalillab bermog'i shart.

Bilimlarni aniqlash va ularni mustaqil o'zlashtirish jarayonida fikr yuritish operasiyalaridan unumli foydalanmog'i darkor. Masalan: matnni tahlil va sintez qilish, taqqoslash, umumlashtirish, tizimlashtirish va hokazo. Tahlil narsa va hodisalarni fikran tarkibiy qismlarga ajratishdan iborat bo'lib, unda butunning bo'laklarga nisbatan munosabati aniqlanadi. Sintez esa, aksincha, fikr obyekti bo'lgan narsa va hodisalarning tarkibiy qismlarini fikran bir butun qilib qo'shishdir.

O'rganilayotgan narsa va hodisalardan ularning muhim belgilarini, sifat yoki xususiyatlarni fikran ajratib, ana shu belgi sifat yoki xususiyatlarni mustaqil fikr obyekti aylantirish, ya'ni mavhumlashtirish /abstraksiyalashtirish/. Ayni muddaodir. Shuningdek, ular o'zlashtirilayotgan narsa va hodisalarning muxim va uxshash belgilari ko'ra bir guruhga birlashtirish ko'nikmasiga ega bo'lishi lozim. Psixologiya fanida uning uchta ko'rinishi mavjuddir: ta'kidlovchi, ayruvchi, taqqoslovchi.

Talabalar o'zlashtirilgan bilimlari yuzasidan mustaqil ravishda hukm chiqarish imkoniyatiga erishmoqlari kerak. Narsa va hodisalarning belgi va xususiyatlari haqida tasdiqlab yoki inkor qilib aytilgan fikr hukm deyiladi. Tarbiyada odatda

hukmlarning yakka, umumiy, ehtimollik kabi turlari ko'p qo'llaniladi. Masalan, «Alisher Navoiy o'zbek adabiy tilining asoschisidir» /yakka hukm/, «O'zbekiston Respublikasining barcha fuqarolari mehnat qilib, bilim olish huquqlariga egadirlar» /umumiy hukm/, «Ehtimol, quyosh tizimidagi sayyoralarning ko'plab yo'l doshlari bordir» /ehtimollik hukm/ va boshqalar.

Xulosa chiqarish shunday tafakkur shaklidirki, bu shakl vositasi Bilan talaba ikki va undan ortiq hukmlardan yangi hukm hosil qiladi. Xulosa chiqarish induktiv, detuktiv va analogiya turlariga bo'linadi. Induktiv xulosa chiqarishda fikrning yo'nali shixususiydan umumiylilik tomon boradi. Masalan, «I kurs talabalari paxta terimida faol ishtirot etadilar», «Paxta yig'im-terimida III kurs talabalari ham qatnashadilar», «Paxta yig'im-terimida IV kurs talabalari ham chetda turmadilar», talaba yuqoridagi hukmlardan yangi umumiy hukm chiqaradi: «Universitetimizning barcha talabalari paxta yig'im-terimida faol ishtirot qildilar».

Deduktiv xulosa chiqarishda fikrning yo'nali shi umumiylidan xususiy tomon boradi. Masalan, «Respublikamiz mehnatkashlari yer kurrasida tinchlik bo'lshi uchun qo'l qo'yganlan», «Bizning Toshkent Davlat universiteti talabalari ham tinchlik tarafdiridirlar»!

Analogiya yo'li Bilan xulosa chiqarishda fikrning xususiydan xususiya tomonga qaratiladi. Masalan, «Havo o'zgarib, avzoyi buzilmoqda», «Utgan yili ham shunday havodan keyin sovuq shamol esib, qor yoqqan edi», «Ob-havo xuddi shunday o'zgarib turibdi, albatta yana qor yoqsa kerak». Xudi shu analogik yo'l bilan talabalar boshqa hodisalar to'g'risida ham xulosa chiqarishi mumkin. Mustaqil xulosa chiqarish o'zlashtirilgan materiallarni tushunishdan dalolat beradi.

Talabalar oldida muammoli vaziyatlar vujudga keltirilganda, ularning yechimini mustaqil ravishda topishlari kerak bo'ladi. Aytaylik, manna bunday vaziyat maydonga keladi:

«Mustaqil bilim olish uchun talabalar qanday imkoniyatlarga ega bo'lishi kerak?» Mazkur muammo yechimini aniqlash uchun, birinchi navbatda, uning mohiyaini anglash, yechish yo'llarini va vositalarini topi shva tadbiq qilish, yechimini tekshirish kabi murakkab faoliyatni amalga oshirish zarur. Ana shundan so'ng talabada o'quv materiallarini o'zlashtirishga ongli yondoshish ko'nikmasi vujudga keladi. Shu bilan birga ular narsa va hodisalarning mohiyatini aks ettiruvchi tushunchalarga tayanib fikr yuritishdan /maxxum tafakkurdan/, nazariy muloxaza bildirishdan /nazariy tafakkurdan/ foydalanishi kerak. Chunki tushunchalarni anglash fikr yuritishning turli ko'rinishlarini mustaqil ravishda qo'llashni taqozo qiladi.

### **Tarbiya jarayonida xotira.**

O'quv materialini esda olib qolish, esda saqlash, esga tushirishsh uchun xotiraning bir necha xil vositalaridan foydalilanadi. Dastlab bilimlar, axborotlar talaba ongiga assosiativ yo'l bilan boradi. Jumladan, o'rganilayotgan narsa va hodisalarning o'zaro o'xshashligi, yondoshligi, qaramaqarshiligi /kontrast holati/ mavjud bo'lgandigi sababli ular yegilroq o'zlashtiriladi. Ba'zan qonun va qoidalar ma'nosiga tushunmay, mexanik ravishda yod olinadi. Lekin, bunday materiallar esda po'xta saqlanmaydi. Ana shuning uchun o'quv materiallari mohiyatini imkonli boricha mantiqiy yo'l bilan esda olib qolish kutilgan samaralarni beradi. Ayniqsa, esda olib qolishning omilkor usullaridan foydalanish o'zlashtirish sifatini oshiradi. Chunonchi, ma'nosiga ko'ra matndagi so'zlarni, iboralarni fikran guruhlashtirish, matndan tayanch nuqtalarini topish, matn buyicha reja tuzish, o'tilgan mavzularni idrok qilgan holda yangi mavzuni takrorlashning axamiyati nixoyatda kattadir.

O'zlashtirish jarayonidagi samaradorlik ko'p jihatdan talabalarga beriladigan ustanovkalarga /ularning ruhan shu narsana qabul qilishga tayyorgarligi, yaqqol ko'rsatmalar

berilishi, inson o'zini-o'zi yo'naltirish jarayoni/ bog'liqdir. Odatda ularning /materiallarning/ xususiyatlaridan kelib chiqqan holda uzoq yoki qisqa muddat esda saqlashga, aniq esga tushirishga, erkin fikr yuritishga mo'ljallangan ko'rinishlarga ajratish mumkin.

O'qituvchi talabalarda esda olib qolish xususiyatlarini /ustanovkani/ hosil qilishda qaysi materialni uzoq muddat saqlash, qaysi turkumdag'i materialning mohiyatini tushunib olishni; nimalarni aynan esda qoldirish, qanday axborotlarni o'z so'zi Bilan ifodalagan holda xotirasiga joylash kabilarning usul va vositalarini tushuntirib berishi lozim.

### **Tarbiyada diqqat va qiziqishlar.**

Bilish jarayonining barqarorligi, mazmundorligi va tartibliliqi bevosita diqqatga bog'liqdir. Diqqat passiv, kuchsiz bo'lgan vaqtida bilish jarayoni sekinlashadi yoki tormozlashadi. Talabalarning diqqati uzoq vaqt davomida muayyan vazifaga qaratilgandagina bilish jarayoni amalga oshadi. Diqqat faolligiga ko'ra ixtiyorsiz, ixtiyoriy, ixtiyoriydan keyingi; obyektga qarab tashi, ichki; faoliyat shakliga qarab yakkahol, guruhiy, jamoaviy turlarga bo'linadi.

Ixtiyorsiz diqqat Tarbiya jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin, o'qitishda diqqatning faqat manna shu turiga asoslanib ish ko'rish maqsadga muvofiq emas. Ma'lumki, o'ta qiziqarli ma'ruzalar, mashg'ulotlar talabalarning fikr yuritishiga, qiyinchiliklarni yingishiga salbiy ta'sir qiladi. Saboq berish jarayonida ko'proq ixtiyoriy diqqatga tayanish yaxshi natija beradi. Chunki, irodaviy diqqat Bilan emosional qiziqishning birlashuvidiqqatnishakllantirishning muhim sharti hisoblanadi.

Shu narsani alohida ta'kidlab o'tish kerakki, irodaviy diqqatdan uzoq fursat foydalanish uning chalg'ishiga olib keladi. Binobarin, mashg'ulotlarda diqqatning har qaysi turidan foydalanish zarur. Ayniqsa, bu o'rinda ixtiyoriydan keyingi avtomatlashgan diqqat turi alohida axamiyatga ega.

Tarbiya jarayonida qiziqishning roli g'oyat muhim. Chunki qiziqishlar talabalarning o'qishga nisbatan munosabatini, o'quv predmetlarining mazmuniga ko'ra moyillik kuchini aks ettiradi. Moyillik kuchi ularda yuzaga kelgan bilimga nisbatan extiyojlariga javob reaksiyasini bildiradi; bilishga chanqoqlik xislarini qondirish vositalarini izlab topishga yo'l ochadi. Qiziqishlar, odatda, bevosita va bavosita, beqaror va baqaror, keng va tor, umumiylar va maxsus turlarga bo'linadi. U sinchkovlik, bilishga qiziqish, turg'un qiziqish bosqichlarini bosib o'tadi. Qisqa muddatli sinchkovlikka ega bo'lgan talabalar mashg'ulotda olgan bilimlarni oddiygina idrok qilish bilan kifoyalanib, ichki mohiyatini oshib berishga urinmaydilar. Qiziqishlikka ega bo'lganlar – predmet, voqye va hodisalarini o'zaro jamlab umumiylar xulosa chiqarishga harakat qiladilar.

Lekin bunday haarkatlarni amalga oshirishda chuqur mazmunga ega emasligi namoyon bo'ladi. Bilishga qiziqish paydo bo'lgan talabalar o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotga tadbiq qilishga intiladilar. Ularning intilishlari barqaror xarakter kasb etib, narsa va hodisalar mohiyatini anglab olishga qaratilgandir. Turg'un qiziqishni egallagan talabalarga bilimlarni amaliyotga tadbiq qilishdan, maqsadni aniq yoritishdan tashqari barcha narsa va hodisalarning o'zaro munosabatlarini tushuntirib berishda hamma vaqt ijobjiy munosabat, ijodiy yondoshish xarakterlidir. Ularda tashabbuskorlik, ijodiy izlanish, tirishqoqlik kabi shaxs sifatlari majmuidir.

### **Tarbiyada irodaning roli.**

O'zlashtirishning samaradorligi talabalarning irodaviy zo'r berish, ma'naviy extiyoji va anglashilgan o'quv motiviga bevosita bog'liq. Shunday ekan, ularni qiyinchiliklarni yengishga, ayrim paytda duch keladigan muvaffaqiyatsizliklar oldida dovdirab qolmasdan, balki ularni o'z-o'zini boshqarishga buyruq berishga o'rgatish ayni muddaodir. Buning uchun ularda qiyinchiliklarni yenga olish o'quvini, o'z-o'zini qo'lga

olish fazilatini shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Hozirgi davrda o'z-o'zini tarbiyalash, o'z-o'zini takomillashtirish, ichki imkoniyatini ruyobga chiqarishga xizmat qiluvchi treninglar, ishbilarmonlik qyinlari, rolli va syujetli o'yinlarga oid mashqlar majmuasi, mashqlar to'plami mavjuddir. Ularning har biridan unumli foydalanish yo'l-yo'riqlarini talabalarga tanishtirish o'qituvchining kasbiy burchidir.

Tarbiya jarayonida o'qituvchi bilan talabalar muloqoti va muomalasini oqilona tashkil qilish, talabalarning individual-tipologik jinsiy, etnopsixologik, hududiy, yosh davrlari xususiyatlariga, intellektual rezervlariga, iqtidoriga e'tibor berish, hamkorlik faoliyatini, to'g'ri joriy qilish o'quv-tarbiya ishlarini takomillashtirishga yordam beradi.

### **Adabiyotlar**

1. I.A.Karimov. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T, 1997 y. 7-12 betlar.
2. V.A.Kruteskiy. Pedagogik psixologiya asoslari. T, 1976 y. 296-300 betlar.
3. M.G.Davletshin. Zamonaviy maktab o'qituvchisining psixologiyasi. T, 1999 y. 11-18 betlar.
4. E.G'oziyev. Oliy maktab psixologiyasi. T, 1997 y. 9'-98 betlar.
5. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
6. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

### **QAYDLAR UCHUN**

**Mirzraxmonova Shaxnoza Mirzaaxmedovna  
Sotbarov Atabek Asilbek o'g'li  
Azamov Sherzod**

## **TARBIYA NAZARIYASI**

Muharrir: X. Tahirov  
Texnik muharrir: S. Meliquziyeva  
Musahhih: M. Yunusova  
Sahifalovchi: A. Isxoqov

Nashr. lits № 2244. 25.08.2020 y.  
Bosishga ruxsat etildi 29.05.2024 y.  
Bichimi 60x84 1/16. Ofset qog‘ozи. “Cambria”  
garniturasи. Hisob-nashr tabog‘и. 11,375.  
Adadi 100 dona. Buyurtma № 2231378.

«Sarbon LLS» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

**Nashriyot tel. raqami +998 (94) 673-66-56**

ISBN 978-9910-9392-7-3



9 789910 939273